

X. Mamatralimova

BIBLIOGRAFIYA TARIXI

“Bibliografiya nazariyasi va tarixi” fanidan
o‘quv qo‘llanmasi

TOSHKENT - 2010

S O‘Z B O SH I

Ushbu “Bibliografiyasi tarixi” “Bibliografiya nazariyasi va tarixi” fanidan o‘quv qo‘llanmasi bo‘lib, bibliografiyaning eng keng tadqiq qilingan tarixiy qismini ilk marotaba o‘zbek tilida yoritadi.

Har bir sohaning holati haqida, uning yaratilishi va uning rivojlanishi tarixini o‘rgangach, to‘la tasavvur hosil qilish mumkin. Bu borada bibliografiya ham bundan mustasno emas.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 1999 yilgi 155-sonli “Uzluksiz ta’lim tizimini darslik va o‘quv adabiyotlari bilan ta’minlash to‘g’risida”gi buyrug’iga muvofiq hozirda bibliografiya fanlari tsiklining asosi bo‘lgan “Bibliografiya nazariyasi va tarixi” fanini talabalarga o‘qitishda o‘zbek tilida darslik, o‘quv qo‘llanmaning yo‘qligi ushbu qo‘llanmani yaratilishiga asos bo‘ldi.

O‘quv qo‘llanmasida jahon bibliorafiyasi tarixi u ilk paydo bo‘lgan davrdan to XVII – XVIII asrlargacha mavjud bo‘lgan va XX asrning I yarmigacha rivojlangan YEvropa davlatlari, qisman Osiyo hamda keyinchalik tarqalgan Amerika qit’asidagi ayrim davlatlar misolida yoritiladi.

Bibliografiyaning dastlabki paydo bo‘lish shakllari va shart-sharoitlari, unga bo‘lgan ehtiyojning ortib borishi natijasida yangi turlarining ajralib chiqishi, uning har bir davrda bajargan vazifasi va ahamiyati, uning ob’ekti bo‘lgan kitob va uni bosish, uning yaratilishi, taraqqiyoti, tarqalish ko‘لامи bilan bog’lik holda rivojlanishi keng manbalar asosida tahlil etilgan.

Qo‘llanmada yana jahon bo‘yicha bibliografiya sohasida xalqaro hamkorlik bo‘yicha, bibliografiyaning rivojlanishiga o‘z hissalarini qo‘shtigan mashhur bibliograflar haqida ham ma’lumotlar mavjud. Ularda xalqaro hamkorlik tarixi, eng yirik hamkorlik tashkilotlari, ular bajaradigan vazifalar, xalqaro bibliografik dasturlar haqida ma’lumotlar beriladi.

Ushbu qo‘llanmada takroriylikka yo‘l qo‘ymaslik maqsadida O‘rta Osiyo va O‘zbekistonda bibliografiya tarixi masalalari olinmadni, bu “O‘zbekiston bibliografiyasi” fanida O‘rta Osiyoda bibliografiyaning ilk paydo bo‘lgan davridan to hozirgi kungi holatigacha o‘rganiladi.

Qo‘llanmani yozishda asosan rus tilida mavjud bo‘lgan bosma manbalar (ilmiy monografiyalar, darsliklar, o‘quv qo‘llanmalari, ilmiy to‘plamlar, maxsus vaqtli matbuotda bosilgan maqolalar) dan, shuningdek, kam sonli mahalliy materiallardan foydalanildi.

O‘quv qo‘llanmasi oliy va o‘rta maxsus o‘quv yurtlari talabalari va o‘qituvchilariga bibliografiyaning paydo bo‘lgan ilk davridan to XX asrning o‘rtalarigacha bo‘lgan davrdagi tarixi haqida to‘liq tushuncha beradi va “Bibliografiya nazariyasi va tarixi” fanini o‘zlashtirishda yordam beradi.

1 – BOB. BIBLIOGRAFIYANING PAYDO BO‘LISH TARIXI

1.1. Qadimgi Gretsiya va Rimda bibliografiyaning paydo bo‘lishi

Qadimgi SHarq xalqlarida boy adabiyot (ilmiy, diniy, lirik, epik) mavjud bo‘lgan. Ularda katta kitob saqlash omborlari (shox saroy kutubxonalari) bo‘lganligi ham kitob tarixidan ma’lum. Bizgacha u kitob saqlash omborlarining ba’zi bir bo‘lakchalari (masalan, Ussuriya bu shoxlik hozirgi Suriya hududida bo‘lgan mashhur kutubxonasi) yetib kelgan xolos.

Qadimgi SHarq xalqlarida sprawka ahamiyatiga ega bo‘lgan – keyingi entsiklopediyalarga o‘xhash adabiyotlar ham bo‘lgan. Biroq qadimgi SHarqning Qadimgi Misr, Ussuriya va boshqa davlatlarida bibliografiyaning boshlang’ich shakllarini tasdiqlovchi hech bir dalil yo‘q va yana bu narsa «bibliografiya» so‘zining «kutubxona katalogi» bilan tenglashtirish natijasida yuz bergen.

«Bibliografiya» so‘zi Qadimgi Gretsiyada eramizdan avvalgi V asrda paydo bo‘lgan bo‘lib, u «biblion» kitob, «grapo» - yozaman, ya’ni, «kitob yozish» degan ma’noni anglatgan. Dastlab kitobni ko‘chirib yozish ishi bibliografiya deb atalgan. Eramizning dastlabki asrlaridagi yozuvchilar Podanliy Dioskorid, Diogen Laertskiy asarlarida bu so‘zning ma’nosini shunday keltirilgan. Biroq antik madaniyatning yemrilishi bilan bu so‘z qo‘llanilmay qolgan.

Qadimgi Gretsiya va Rimning eramizdan avvalgi IX – VIII asrlardagi va eramizning IV – V asrlardagi jamiyati antik dunyo deb atalgan. Grek jamiyatida savodxonlik keng tarqalgan edi. Qadimgi grek alifbosi asosida lotin alifbosi yaratilgan, eramizning 863 yilida esa slavyan alifbosi - kirillitsa yaratilgan. SHunday qilib, hozirgi YEvropa, Amerika, Avstraliya, Osiyoning katta qismi va Afrikaning bir qismida yozuv qadimgi grek yozuv asosida paydo bo‘lgan.

Greklar tomonidan fanning ko‘pgina muhim sohalariga asos solingan. Astronomiya, zoologiya, tarix, matematika fanlarining nomlari grekchadan kelib chiqqan. SHuningdek, eramizdan avvalgi V asrda paydo bo‘lgan bibliografiya so‘zi ham kitob ko‘chirib yozuvchi, hattotni anglatgan, biroq bu so‘zning paydo bo‘lishi mumtoz Gretsiyada hozirgi bibliografiya tushunchasini anglatadigan bibliografiyaning mavjudligiga asos bo‘la olmaydi.

Bu davrda kitobga munosabat o‘zgargan. Agarda Platon davrida Afinada savodxon, fanni, san’atni sevuvchilar, kitobxon va tinglovchilar ko‘p bo‘lgan bo‘lsada, bilim olishning asosiy shakli og’zaki muloqot bo‘lgan, eramizgacha bo‘lgan ellistik III, II asrda (qadimgi yunon va Misr madaniyatlarining qo‘silib rivojlangan davri) esa greklarning SHarqqa kirib borgan davri, kitob kengayib borayotgan dunyo to‘g’risida ma’lumot olishning zarur manbai bo‘lgan davr edi. Kitobga bo‘lgan bu tarixiy ehtiyoj ko‘plab kitoblarni (va oqibatda bibliografiyaning) paydo bo‘lishiga olib keldi.

Bu davrda Aleksandriya va Pergam kutubxonalari - fan va madaniyatning ajoyib markazlari paydo bo‘ldi. Aleksandriya kitobni tadqiq qilgan, o‘rganilgan

ilmiy va nashriyotchilik markazi bo‘lib qoldi. Aleksandriya kutubxonasida 700 ming o‘rog’lik qog’ozdan grek, Rim, Misr, Suriya, hind, yahudiy kolleksiyasi bo‘lgan, bu kolleksiyaga alifbo va sistemali katalogi bor edi. U yerdan ko‘chirib yozilgan kitoblar butun tsivilizatsiyalashgan dunyo bo‘ylab tarqala boshlagan.

Qadimgi grek bibliografiyasi dunyoga asosan an'anaviy bibliografik qo‘llanmalar turlari: milliy bibliografik ko‘rsatkichlar (Kallimaxning “Tablitsy...” ko‘rsatkichi), tarmoq va mavzuli ko‘rsatkichlar (dramatik asarlar ro‘yxatlari), shaxs bibliografik qo‘llanmalar (Aristotel asarlarining ro‘yxati), yordamchi ko‘rsatkichlar (Pobedy na Dionisiyax) kabilarni yaratib berdi.

Qadimgi Gretsiyada bibliografiya milliy adabiyotni o‘rganishning ilmiy uslublaridan biri sifatida vujudga keldi. Birinchi bibliograflar duch kelgan asosiy qiyinchiliklar qo‘lyozma asarlarda ko‘pincha mualliflar, asar sarlavhasi, yaratilgan vaqt va joyi ko‘rsatilmaganligi edi. Sarlavha o‘rniga odatda asarning boshlanish so‘zi keltirilgan edi.

Sarlavhadagi chalkashliklar ilmiy ishslash va ko‘chirib yozishda asar turlicha nomlanishi bilan yanada ko‘payardi. SHuning uchun bibliografiyalar paydo bo‘lgandan keyin uning asosiy vazifasi mualliflar va ularning asarlarini identifikatsiyalash (ya’ni tenglashtirish) bo‘lgan.

Qadimgi Gretsianing birinchi bibliografiya yodgorligi bibliografiyaga yaqin bo‘lgan asar Aristotelning “Didaskali” asaridir. Bu Afinada dramatik asarlar bellashuvida ko‘rsatilgan asarlarning ro‘yxati edi. Nomi “did askein” (o‘qitmoq) yoki didashalas (o‘qituvchi) so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, odatga muvofiq muallif aktyor va xorni o‘rgatishi, ya’ni o‘z asarining namoyishini qo‘yishi lozim edi. Bellashuv tugagach, ishtirokchi – shoirlar o‘z pesasining nomi, ularga berilgan mukofot va asosiy aktyorlarning nomlari ko‘rsatilgan rasmiy bayonnomma shahar arxiviga topshirilar edi. SHunday qilib, bayonnomani davlat ro‘yxati akti deb hisoblash mumkin.

“Didaskali” larni Aristotel eramizgacha bo‘lgan 335 va 323 yillarda shu arxiv ma’lumotlari asosida yaratgan. U asar taxminan 1580 fojiaviy va 970 komediya asarlari haqida ma’lumotni o‘z ichiga olgan, bu dramatik bellashuvar natijalari eramizgacha bo‘lgan 500 yil atrofida davlat ro‘yxatiga olingan.

“Didaskali” larda materiallar bellashuvar o‘tkazilgan yillarning xronologiyasi bo‘yicha joylashtirilgan. “Didaskali” ning tuzilishi Aristotel matabining boshlanishidagi ilmiy harakatning bir qismi deb qaralishi zarur. Bu asar faqat ro‘yxat bo‘libgina qolmay, arxiv materiallarini adabiy-tarixiy tadqiqotlar maqsadida sistemalashtirish va ishlov berishning natijasidir.

Aristotelning “Didaskali” sidan boshlab bibliografiya sof ko‘rinishga ega bo‘ldi: hujjatlar haqida axborot (matnda) hujjatning o‘zisiz ham foydalanish maqsadida tuzilgan.

Aristotelning dramatik bellashuvlarga bag’ishlangan va bibliografik xarakterga ega bo‘lgan yana bir asari bor. “Dionisiyalardagi g’alabalar” (“Pobedy na Dionisiyax”) bo‘lib, uning ayrim bo‘laklari bizning davrimizgacha yetib kelgan. Bu “Didaskali” larga tuzilgan o‘ziga xos ismlar yordamchi ko‘rsatkichlaridir. U

faqat “Didaskali” larda mavjud bo‘lgan ismlar g’alaba qilgan vaqtiga qarab xronologik tartibda joylashtirilgan.

“Didaskali” lar keyingi bibliografik va adabiy-tarixiy asarlar uchun grek mualliflarining hayoti va asarlari to‘g’risida faktografik axborotning ishonchli manbalari bo‘lib qoldi. Ular yordamida asarlarning xususiyatlari hal qilingan, mualliflarning kamol topgan vaqt, p’esa qo‘yilgan aniq vaqlar aniqlangan.

Keyinchalik grek dunyosi bibliografiyasini kitob san’atining rivojlanishi, mualliflar va kitobxonalar sonining oshishi va yirik kutubxonalar, ayniqsa, hech bir kutubxona teng kela olmagan Aleksandriya kutubxonasidek yirik kutubxonalarining paydo bo‘lishi bilan bog’liq. Aleksandriyada filolog olimlar maktabi vujudga keldi, ular grek adabiy asarlarini o‘rganish va u asarlar mualliflarning bibliografiyasini tuzish bilan mashg’ul bo‘lganlar.

Aleksandriya kutubxonasining birinchi kutubxonachisi shoir Zenedot Kolxidalik shoirlar Aleksandr Etomeyskiy va Likofronlar birgalikda Aleksandriya kutubxonasida yig’ilgan hamma grek poetik asarlarini tartibga keltirdilar.

Likofronga komediylar to‘plamini kataloglashtirish topshirilgan bo‘lib, u “Komediyalar to‘g’risida” (“O komedii”) ilmiy asarini yozgan. Bu asarda ko‘p tushunarsiz so‘zlarga izohlari bilan “Didaskali” belgilari (p’esalar mualliflari, nomi va qo‘yilishi to‘g’risida ma’lumotlar) mavjud edi.

Likofron asarining “Didaskali” qismi Aristotel an’analarini davom ettirgan, ular o‘z navbatida antik dunyodagi bibliografiyaga yaqin birinchi asarlar edi.

Har ikki janr KALLIMAX ijodida rivojlantirildi (u eramizdan avvalgi 310-240-yillarda yashagan). Olim va shoir, grek poetika makatabining boshlig’i Kallimaxni ko‘p tadqiqotchilar “bibliografiyaning otasi” deb ataydilar. 260-240-yillar davomida Kallimax Aleksandriya kutubxonasida ishladi. U “Fanning barcha sohalarida mashhur bo‘lganlar jadvali” (“Tablitsy tex, kto proslavilsya vo vset oblastyax znaniy”) “Ma’lum davrlarda mashhur bo‘lgan dramatik asarlar mualliflarning ro‘yxati va ko‘rsatkichi” va boshqa ko‘p bibliografik asarlar muallifi sanaladi. Ularning eng mashhuri “Tablitsy” asari bo‘lib, u eramizdan avvalgi 250-yilda yaratilgan.

Kallimax 400.000 kitob fondidan 90.000 mazmunan eng yaxshi va tashqi bezatilishiga ko‘ra noyob bo‘lgan, kutubxonalar uchun qiziqarli nusxalarni tanlab oldi. “Tablitsy” da har bir muallifning ismi, otasining ismi, tug’ilgan joyi va muhim bibliografik ma’lumotlar berilgan. Har bir asarning sarlavhasi tekshirib ko‘rildi. Klassifikatsiya jadvali qo’llanildi. “Tablitsy” da materiallar 3 sinf bo‘yicha joylashtirildi: poeziya, proza va turli mualliflar. Xusan, badiiy adabiyot 6 bo‘limga

(elegiya, fofija, komediya va h.k.), ilmiy adabiyot 5 ga (tarix, falsafa, tibbiyat,...) bo‘lib berilgan va h.k.

Kallimaxning “Tablitsy” si grek milliy bibliografik ko‘rsatkichi hisoblanadi.

Kallimaxning 2-chi asari “Dramatik asarlar mualliflarning ko‘rsatkichi” (“Ukazatel avtorov dramaticheskix proizvedeniy”) Aristotelning “Didaskali” si

bilan bog'liq. Mualliflar to‘g’risida maqolalar uning birinchi asarining sahnada qo‘yilishi bilan bog’liq holda xronologik tartibda joylashtirilgan.

Kallimaxning yana bir asari “Demokrit asarlarining ko‘rsatkichi” (“Ukazatel proizvedeniy Demokrita”) bizgacha yetib kelmagan. U bibliografik ro‘yxat bilan yozilgan monografiya edi.

Aleksandriya kutubxonasining xodimi Vizantiyalik Aristofan (eramizdan avvalgi 280-257 yillarda yashagan) “Kallimax jadvaliga qarshi” (“Protiv tablits Kallimaxa”) asarini yozadi. Asarning nomi unga qarshi deyilgan bo‘lsa-da, unga qo‘sishimcha edi. Kallimaxdan keyingi yillarda Aleksandriya kutubxonasiga yangi materiallar olingan va qator tarixiy – adabiy tadqiqotlar o’tkazilgan. Aristofan “Jadvallar” ni yangi bibliografik axborot bilan to‘ldirdi.

Kallimaxdan keyin bibliografiya rivojlana bordi. Bibliografik materialda muallifning biografiyasи yoki uning asarlar to‘plamiga kirish ma’lumotlari ham berilar edi. Bizgacha faylasuflar asarlarining ro‘yxatlari yetib kelgan. Masalan, Diogen Laertskiy tuzgan Aristotel asarlarining 2 ta ro‘yxati asosan arab tiliga tarjima qilingan holda yetib kelgan. Diogen Laertskiy Aristotelning asarlari ro‘yxatini sistemali joylashtirib berdi. Laertskiyning keyinchalik yaratgan bibliografiyasи “Mashhur faylasuflar hayoti, ta’limoti va fikrlari to‘g’risida” (“O jizni, ucheniyax i izrecheniyax znamenitix filosofov”) asaridir. Uni tuzishda o‘zidan avvalgi 5 asrda yaratilgan manbalardan foydalangan. Maqolalarda biografik ma’lumotlar, asarlar ro‘yxatlari, ta’limotning bayoni, hujjatlar matnlari, shu nomdagi boshqa mualliflar ro‘yxati berilgan.

Bizgacha Esxil, Evripid, Aristofanlarning dramatik asarlari ro‘yxatlari yetib kelgan.

Qadimgi bibliografiya tarixida antologiyalardagi yoki epigrammalardagi bibliografik materiallar (ro‘yxatlar va yo‘naltirishlar) muhim rol o‘ynagan.

Bibliografiya tarixida “Gulchambar” (“Venok”) deb nomlangan antologiya qiziqarlidir, uni Meleagr va Filipp Fessalonikskiyar tuzganlar. Meleagr jami 47 shoirni tilga olgan.

Ellistik bibliografiyada Demetriy Magnesiyskiyning (eramizdan avvalgi I asrdagi) “Ismdosh shoirlar va yozuvchilar to‘g’risida” yoki “Ismdoshlar” asari alohida o‘rin tutadi. Bu qo‘llanma hozirgi milliy mualliflarning obro‘li kartotekasini eslatadi va ular bir xil ismga ega bo‘lgan ko‘p sonli grek mualliflarini ajratish qiyinligidan paydo bo‘ldi. Asarda mualliflarni bir-biridan ajratib olishga yordam beruvchi qisqacha ma’lumot bilan shu mualliflar ro‘yxati berilgan.

Ma’lumki, birinchi yirik kitob to‘plami eramizgacha bo‘lgan 168-yilda paydo bo‘lgan. Bu Makedoniyaning eng so‘ngi shohi Perseyning kutubxonasi edi, u Rimga tashib olib kelingan edi. Bu kutubxonanining Rimda paydo bo‘lishi katta madaniy ahamiyatga ega bo‘lgan.

Eramizdan avvalgi 86 yilda Rimga yana Aristotel va uning shogirdi Teofrastning kutubxonasi keltirildi. Bu o’sha davrdagi Rim sarkardalarining mag’lub bo‘lgan xalqlar kitob boyliklarini olib kelishi bilan Rim kitoblar bilan boyitilgan.

Aleksandriyada bo‘lgan va Aleksandriya kutubxonasining bir qismining yo‘qotilishi sababchisi bo‘lgan TSezar o‘z hayotining so‘ngida Rimda ommaviy kutubxona tashkil etish rejasini tuzdi. Bu rejani TSezar halokatidan 5 yil keyin sarkarda, notiq va tarixchi Aziniy Pollion amalga oshirdi. Keyinchalik TSezarning asrandi o‘g‘li Oktavian Avgust opasi Avgusta Oktaviy sharafiga ommaviy kutubxona tashkil etdi.

Avgust davrida Italiyada ommaviy kutubxonalar bilan bir qatorda deyarli har bir senator yoki chinovnik, chavandozning uyida xususiy kitob saqlash joylari paydo bo‘ldi.

U bibliofillarning falsafa, qishloq xo‘jaligi, tibbiyatga qiziqishlari ko‘zga tashlanardi. Kitoblarga ishlov berish, kataloglarni tuzish odatda qullarga topshirilar edi. Ularni kutubxonachilar yoki kitobchilar deb atashardi.

Adabiyotlarning sistemalashtirilishi to‘g‘risida ma’lumotlar kam.

Qadimgi Gretsiya va Rimda bibliografik an’analarning davomiyligiga saqlangan bibliografik materiallar, chunonchi Pergamda eramizdan avvalgi 129 yillarda tug‘ilgan va 199 yilga yaqin Rimda vafot etgan, imperatorlar Mark Avreliy, Lyutsiy Var, Kommodlarning saroy shifokori bo‘lgan mashhur medik GALENning 2 asari guvohlik beradi.

Galen antik meditsinaning butun yutuqlarini yagona tizimga sola oldi. 400 ga yaqin turli asarlar yaratdi.

Bibliografik ishlarning maqsadi asarning haqiqiyligini aniqlash, biroq muallif o‘zi tuzuvchi sifatida kelyapti, shu sababli ularni avtobiografik asar deb aytish mumkin. Galenning birinchi asari “O‘z kitoblarim tartibi to‘g‘risida” (“O poryadke sobstvennykh knig”) Galenning tanlangan asarlariga uning asarlarini qaysi ketma-ketlikda o‘qish zarurligini ko‘rsatib beruvchi tavsiya bilan yozilgan o‘ziga xos kirish hisoblanadi. Ikkinchi asari “O‘z kitoblarim to‘g‘risida” (“O sobstvennykh knig”) esa kitobxonga Galenning haqiqiy asarlarini uning asari deb taxmin qilayotgan boshqa asarlardan ajratib olishga yordam beradigan ishdir.

1.2. Qadimgi Misrda bibliografik axborot mavjudligining shakllari

Uzoq vaqt davomida olimlar bibliografiyaning ob’ekti bosma kitob, bibliografiya kitob bosish kashf qilingandan keyin paydo bo‘lgan degan fikrni ilgari suradilar. Biroq bibliografik faoliyatning xususiyatlari, uning alohida belgilarini olimlar tomonidan tadqiq qilish shuni ko‘rsatdiki, bibliografiya adabiyot paydo bo‘lgan va ularni bir-biridan ajratish hamda o‘ziga xos tomonlarini ochib berish, jamiyatda ular haqida yodgorlik qolishini ta’minlash zarurati kelib chiqqanda bibliografik faoliyat paydo bo‘lgan.

Qadimga bibliografik qo‘llanmalarining bir turi kutubxona kataloglari bo‘lganligi ma’lum. Qadimgi boy kutubxonalarda yordamchi apparatlarsiz foydalanish mumkin bo‘lmagan. Bu kutubxonalar kataloglari bo‘lgan. Arxeologlar

quldorlik tuzumi davridagi Mesopatamiyada kutubxonalar to‘g’risidagi ma’lumotlarni aniqlaganlar.

Eramizdan avvalgi III asr o‘rtalarida ellistik Misrda bibliografiya mavjud bo‘lgan, deb aytish mumkin.

Qadimgi Misr tarixi 30 dinastiyaga bo‘linadi. Ular eramizdan avvalgi 3100 yildan Ptolomeylar grek dinastiyasi barpo qilingunga qadar bo‘lgan eramizdan avvalgi 322 yillar davrini o‘z ichiga oladi. Bibliografiya tarixi uchun Misr tarixi davri III dinastiyasidan boshlangan davr (2686-2613 yillar) eramizdan avvalgi va rim davri muhimdir.

Hozirgi davr Rossiya olimi, tarix fanlari doktori B.A Semenovker manbalarni o‘rganish davomida bibliografik xarakterga ega bo‘lgan quyidagi Qadimgi Misr matnlarini aniqlagan:

- bibliografik kirish maqolalari, ya’ni asar matnining boshlanishi bilan asar haqidagi ma’lumot (muallifning ismi, sarlavha, kitobxonlik doirasi va h.k);
- avtobiografik xususiyatga ega asar boshida muallif to‘g’risida ma’lumot;
- asarning sarlavhasi asar matnida va matndan tashqarida;
- matnning yakuniy qismi haqida ma’lumot;
- matnlararo (ichi) yo‘naltirishlar;
- memorial ro‘yxatlar va bibliografik ro‘yxatlar.

Bibliografik kirish-bu o‘ziga xos titul varag‘i bo‘lib, unda asar matni bilan tanishib chiqqunga qadar u haqida tasavvur (ma’lumot) beruvchi axborot bo‘ladi.

Avtobiografik xususiyatga ega asar boshida muallif to‘g’risida ma’lumot

- faqat muallif to‘g’risidagi ma’lumotlarni beruvchi kirish so‘zdir. Bunday materiallar XII asrda paydo bo‘lgan.

Matnda va matndan tashqarida sarlavha anonim kitoblar va to‘plamlarni ko‘rsatish uchun qo‘llanilgan.

Matnning yakuniy qismi haqida ma’lumotlar asosan qo‘lyozmalarni ko‘chirib yozish bilan bog‘liq yoki to‘liq qo‘lyozma bilan bog‘liq ma’lumotlardir. Unda quyidagi ma’lumotlar berilar edi: ko‘chirib yozishning tugaganligi, ko‘chirilgan nusxaning oldingi qo‘lyozma bilan mosligi, ko‘chirib yozgan shaxs, buyurtmachi, asl nusxa egasi, ko‘chiril yozilgan vaqt va yana kimda kim kitobga zarar yetkazish niyati bo‘lsa-unga qarg’ishlar kabi ma’lumotlar.

Qadimgi Misrdagi bibliografik faoliyatning yana bir muhim belgisi-matnlar ichi yo‘naltirishlar edi. Qadimda dastlab asarlardan tsitata keltirilar edi-yu, biroq u fikr kimga tegishli ekanini ko‘rsatmaslik mumkin edi, ya’ni tsitata muallifi ko‘rsatilmasa ham bu hol kechirilar edi. Keyinchalik matnlar Qonunlashtiriladigan bo‘lganidan keyin yo‘naltirishlar majburiy bo‘lib qoldi. Bunday yo‘naltirishlarning paydo bo‘lishi yangi axborot madaniyatining paydo bo‘lishi edi.

Mualliflarning memorial ro‘yxatlari ma’lum bibliografik ahamiyat kasb etadi. SHunday ikki ro‘yxat ma’lum: shox Antef sag’anasidagi qo‘schiqlardagi mualliflarni ko‘rsatuvchi va CHester – Bitti IV papirusida qadimgi 8 donishmand ro‘yxati.

Kutubxona kataloglari ancha keyingi davr, asosan grek davriga taalluqli. Jdfe exromidan 2 katalog juda mashhur: I – sida 22 nomdagi kitob, 2- sida 14 nomdagi kitob ro‘yxati berilgan. Bu asosan diniy mavzudagi kitoblar edi.

K i t o b l a r n i n g m a v z u l i r o‘y x a t l a r i ham Qadimgi Misrda keng tarqalgan. Ular ham ma’lum maqsadga ega bo‘lib, aniq bir masalaga bag’ishlanar, avvalo bibliografik ro‘yxatlar deb atalishi lozim edi.

Qadimgi Misr matnlarini o‘rganish shuni ko‘rsatdiki, bibliografik faoliyat kitob paydo bo‘lgan davrda yuzaga keldi va adabiyotlarni identifikatsiyalash (asliga mos ma’lumotlar bilan tenglashtirish) zarur bo‘lgan, jamiyatda u kitoblar haqida yodgorliklar qolishini ta’minlash maqsadida zarur edi.

1.3. «Bibliografiya» atamasining keyingi qo‘llanila boshlanishi va tarqalishi

Antik dunyo yemrilgach bibliografiya atamasi qo‘llanilmay qoldi, deb aytgan edik.

Bibliografiya so‘zining ikkinchi marta paydo bo‘lishi deyarli 1,5 ming yil keyin, ya’ni XVII asrda frantsuz bilimdonlari doirasida yuz berdi. Ular unga butunlay o‘zgacha ma’no berdilar. Bu antik mualliflar qo‘llagan va ikkinchi tarkibiy «grafiya» qismi tasvirlash ma’nosini anglatgan «geografiya», «orografiya» so‘zlariga asoslanib olingan deb xulosa qilishga imkon beradi.

Marvliklarning 1618 yil tasdiqlagan monax kongregatsiyasi Ustavida «fanlar va bibliografiyada tajribali» bo‘lgan monaxlardan biri kutubxona boshlig‘i bo‘lish talab qilingan.

«Bibliografiya» so‘zi kitob sarlavhasida 1 – marta 1633 yilda mashhur frantsuz kutubxonachisi, kitobshunos va kutubxonashunos Gabriel Nodening «Harbiy bibliografiya» («Voyennaya bibliografiya») maqolasida takrorlanadi.

Node hayotligida «bibliografiya» so‘zi Karmelit monaxi, asosiy kasbi kutubxonachi bo‘lgan Lui Jakobning asarlarida «kitoblar ro‘yxati» ma’nosida qo‘llanilgan. 1645-1654 yillarda Jakob frantsuz kundalik (yillik) bibliografiyasining dastlabki namunalarini umumiy «Parij bibliografiysi» («Parijskaya bibliografiya») va «Umumiy Gall bibliografiysi» («ObЩaya Galskaya bibliografiya») nomi bilan bosib chiqardi.

Bir necha o‘n yilliklardan keyin golland kitob savdogari va bibliografi Korneliy Van Byogxem o‘zining huquq, meditsina, tarix va matematika buyicha bibliografiyalarida shu bibliografiya so‘zidan foydalandi (1680-1688 yillar).

SHunday qilib, XVII asr oxiriga kelib «bibliografiya» so‘zi yordamchi maqsaddagi ilmiy adabiyotlarning janrini, «ro‘yxat», «kitoblar ro‘yxati» so‘zini ifodalay boshladi, shu davrgacha «bibliografiya» so‘zi «kutubxona», «katalog» so‘zleri ko‘p qo‘llanilganligi sababli aniq o‘z ma’nosida qo‘llanilmagan edi.

XVIII asrda «bibliografiya» so‘zi turli tillarda keng qo‘llanila boshladi, biroq ularning ma’nosи bir – biriga to‘g’ri kelmas edi. D. Fenninngning «Ingliz qirollik lug’ati» («Korolevskiy anglayskiy slovar») (1741) ida «bibliografiya» so‘zi «kitoblarni ko‘chirib yozish» deb talqin qilinadi, demak, unga qadimgi, dastlab paydo bo‘lgan davrdagi ma’nosи qaytib berilgan ekan.

Didroning «Entsiklopediya» sida «bibliografiya» so‘zi umuman keltirilmagan, «bibliograf» so‘zi esa «Qadimiy qo‘lyozmalarini o‘rganish bo‘yicha mutaxassis» ma’nosida talqin qilinadi. «Frantsuz akademiyasi lug’ati» («Slovar Frantsuzskoy akademii») (1762) ning 4-nashrida «bibliografiya» so‘zi «bibliografiya ilmi» sifatida, «bibliograf» so‘zining o‘zi esa «Entsiklopediya» dagidek talqin qilinadi.

SHunday qilib, bu davrda «bibliografiya» so‘ziga kitobshunoslik tadqiqotchiligi ma’nosi berilgan.

Bibliografiyaning birinchi nazariyotchilaridan - inkunabulshunos, imperator Mariya – Terezaning kutubxonachisi M. Denis va kitob savdogari va bibliograf A.F.Ne de lya Roshelning asarlarida ham yuqoridagi ma’no bibliografiyaga mustaxkam talqin sifatida berilgan. Denis Venada «Kitobshunoslikka kirish» («Vvedeniye v knigovedeniye») asarini nashr qildirdi (1777 – 1778). Unda bibliografiya filologiya fanlaridan biri sifatida talqin qilingan. U diplomatika, tipografika (ya’ni litografiya san’ati asoslari va uning tarixi fani), kutubxonashunoslik va «kitoblar katalogi» ga bo‘linadi. Denisning fikricha, bibliograf uchun eski va nodir kitoblar bilimga ega bo‘lishi uchun muhimdir.

Ne de lya Roshel «Bibliografiya fani to‘g’risida mulohazalar» asarida Debyurning «Namunali bibliografiya» («Pouchitelnaya bibliografiya») sida tasvirlangan anonim kitoblarning alifbo ko‘rsatkichida bibliografiyani «yozuv olami» bilan bog’liq bilimlarni jamlab beruvchi fan sifatida, barcha fanlar ichida eng keng fan ekanini aniqladi.

XIX asrda bu tushuncha keyingi tavsiflangan asarlar yuzaga keldi. Kitobshunos va kutubxonachi G. Penyu 1802 – 1804 yillarda «Kitobshunoslik bo‘yicha izohli lug’at» («Tolkoviy slovar po knigovedeniyu») ni nashr ettirdi, unda bibliografiya va bibliologiya (kitobshunoslik) o‘rtasidagi farqni ajratib berdi. Penoning fikricha, bibliografiyaning vazifasi «kitoblarni texnik tasvirlash va ularni klassifikatsiyalash» bilan cheklanadi, bibliologiya esa «Bibliografiya nazariyasi» - inson aqli idroki bilan yaratilgan turli asarlar va inson bilimining bo‘linishi hamda ketma – ketligi, aloqasini o‘rganuvchi fandir». Boshqacha qilib aytganda, bibliologiya kitoblarni tasvirlash, ularni klassifikatsiyalash jadvaliga qo‘yilish lozim bo‘lgan talablarni aniqlaydi, bibliografiya esa shu talablarga muvofiq kitoblarni tasvirlaydi va bibliologiya tomonidan ishlab berilgan jadval bo‘yicha kitoblarni klassifikatsiyalaydi.

Penoning qarashlari rus bibliografi V. G. Anastasevich tomonidan o‘zlashtirildi va rivojlantirildi. U «Bibliografiya to‘g’risida» nomli maqolasida bibliografiyani «kitobni bilish va ularni umumiylashtirish» mazmunini yoki qabul qilingan jadval bo‘yicha ajratish fani deb, bibliologiya esa bibliografiyaning falsafiy, haqiqiy qomusiy fani, oliy bibliografiya» sifatida ta’riflaydi.

Mashhur rus bibliografi V.S.Sopikova bibliografiyaga o‘z qarashlarini «Rossiya bibliografiyasi tajribasi» («Opyt Rossiyskoy bibliografii») asarining I – qismida bayon qilgan. U bibliografiya va bibliologiya o‘rtasidagi farqni ajratmaydi. Bibliografiyaga qisqacha shunday ta’rif beradi: «Xalq maorifi tarixiing muxim qismini tashkil etuvchi kitob haqidagi asosli bilimdir». Bibliografiya uning

fikricha, umuman fanning holati va uning asta sekin rivojlanib borishini ko'rsatadi. Bu bilan V.S.Sopikov bibliografiyaning pedagogik ahamiyatini ta'kidlaydi. Bu «kitobxonning yaxshi asarga qiziqishini uyg'otadi» deydi.

Tarixiy yordamchi fan sifatida bibliografiya qarashlar mashhur nemis bibliografiya nazariyotchisi Saksoniya Qiroli kutubxonasining kotibi Fridrix Ebertning asarlarida tugallangan ifodasini topadi. U o'zining «Umumiyligi bibliografik lug'at» («Vseobshiy bibliograficheskiy slovar») (1821 – 1830) asarining I-tomida bergen so'z boshida «Bibliografiya», «bibliognoziya», «bibliologiya» tushnchalarini turli mazmunga ega deb hisoblaydi. Bibliografiyan u «yozuv tarixi bo'yicha hujjatlar to'plami, yozuv madaniyati va adabiy faoliyatning darajasi va o'sishining eng ishonchli o'lchovi» deb ta'riflaydi.

XIX asrning 2-yarmi va XX asr boshlarida bibliografiya sohasidagi erishilgan katta yutuqlarga qaramay, nazariya amaliyotga mos emas edi va faqat 2-yarmidagina muhim ilmiy ishlar qilindi, bibliografiya atamashunosligi bo'yicha muhim ishlar o'tkazildi. Hozirgacha bibliografiya tushunchasi ko'p ma'noligi bilan ajralib turadi.

Xulosa qilib aytganda, antik bibliografiya yodgorliklarini o'rganish shuni ko'rsatadiki, Aristotelning «Didaskali» asarlaridan tortib to keyingi davrlardagi bibliografik spravka qo'llanmalari turli-tumanligi va bibliografik axborotning turli shakllarining rivojlanishdagi meros bo'lib qolganligi muhimdir.

Bibliografik faoliyat inson madaniyatining bir qismi sifatida kelgusi avlod bibliograflari tomonidan o'tmish tajribasini ijodiy o'zlashtirish va yangi uslublarni taklif qilish yo'li bilan rivojlanadi.

T a k r o r l a sh u ch u n s a v o l l a r:

1. Bibliografiya dastlab qachon va qayerda paydo bo'lgan?
2. Qadimgi Gretsiya va Rimning asosiy bibliografiya yodgorliklarini gapirib bering.
3. Bibliografiyaning dastlabki namunalari kim tomonidan yaratilgan?
4. Qadimgi Misrda bibliografiya qachon paydo bo'lgan?
5. «Bibliografiya» so'zi qachon, kim tomonidan asar nomlarida qo'llanila boshlangan?
6. Keyinchalik mashhur shaxslar «bibliografiya» so'zini qanday izohlagan?

2 – BOB. KEYINGI ANTIK DUNYO VA O’RTA ASRLAR DAVRIDA BIBLIOGRAFIYA: PAYDO BO‘LISHI VA RIVOJLANISHINING ASOSIY YO‘NALISHHLARI

2.1. Biobibliografik lug’atlar O‘rta asrlar bibliografiyasining alohida janri

Qulدورлик тузуми tilchilik dini yemirila boshlagan davrda cherkov bilan hokimiyat birlashadi, yangi xristian dini eskisining ustidan g’olibligini ko‘rsata bordi. Adabiy oqim shu yangi dinni avvalgi va hozirgi boshqa yangi oqimlardan himoya qilishi, buning uchun shu din haqidagi adabiyotlarni keng targ’ib qilishi kerak edi. Bu vazifani mashhur Ieronim Stridonskiy o‘z zimmasiga oldi (340?-420 yillarda yashagan).

U grek va juhud tilini yaxshi bilgan, tilchi, antik falsafani, faylasuflar, yozuvchi va notiqlarni yaxshi bilgan.

«Mashhur kishilar haqida kitob» («Kniga o znamenatnyx mujax») asari bilan mashhur bo‘lgan Ieronim, keyinroq «CHerkov yozuvchilari haqida kitob» («Kniga o tserkovnyx pisatelyax») asarini yaratadi. Bu asar o‘sha davrda undan keyinroq tarqalgan yozuvchilarning biobibliografik lug’atini birinchi tugallangan namunasi edi. Bibliografiyaning bu turining keng tarqalishiga sabab, uni tuzish maxsus bibliografik uslubiyot va ko‘nikmani talab qilmas edi. Uni tuzish uchun adabiyot tarixini, ya’ni yozuvchi, shoirning yashagan davri, uning hayoti va ijodini, asarlarni yaxshi bilish kifoya edi. Unda materiallarni joylashtirish ham soddagina: yo alifbo yoki xronologik tartibda joylashtirib qo‘ya qolish mumkin edi. Bundan tashqari biobibliografik lug’atlar tuzuvchiga u yoki bu yozuvchiga, adabiy oqimga shaxsiy qarashlarini ifodalashga imkon berardi. Biobibliografik lug’at tanqidiy bibliografiya vazifasini bajara borgan.

Keyinchalik Ieronimning bu asari ko‘pgina yozuvchilar uchun namuna sifatida foydalanylган. V asrning 2 – yarmida yashagan Gennadiy Marselskiy ham shu nomda asar yaratgan.

VII asr o‘rtalariga kelib G’arbiy YEvropada antik madaniyat an’analari butunlay yo‘qoldi. Antik yozuvchilar asarlari kutubxonalarda targ’ib qilinmay saqlanardi.

Faqat YEvropaning 2 ta davlati - Ispaniya hamda Irlandiya va Angliyada madaniy hayot bu davrdagi boshqa davlatlarga nisbatan yaxshi edi.

Lekin Ispaniyada ham mavjud diniy oqimlar bir – biri bilan qattiq kurash olib borardi. Xristian dini kuchlilik qilar, uni davlat ham qo‘llar edi. Din davlatni qo‘llab quvvatlashi kerak edi. Bu ishni yepiskop Isidor Sevilskiy hal etdi. Xudojo‘y, faylasuf, filolog, huquqchi, tarixchi Isidor o‘z zamondoshlariga katta ta’sir qila olardi. O‘qimishli targ’ibotchi bo‘lgan **Isidor** o‘zining «**Etimologiya ili nachala**» asari orqali diniy adabiyotlarni antik mualliflarsiz o‘qishni ko‘rsatib berdi. Xristianlar uchun ularning hammasini shu bir spravka qo‘llanmasi, keng entsiklopediya o‘rnini bosa olar edi. «Etimologiya...» o‘z kitobxoniga dinshunoslik, huquq, tibbiyot, botanika, zoologiya, agrikultura (qishloq xo‘jaligi), kosmografiya, geografiya va boshqa fanlarni o‘rgatadi.

«Etimologiya» undai antik yozuvchilar asarlaridan keltirilgan ko‘plab tsitatalar bilan bizning davrimizda ham o‘z ahamiyatini bir mucha saqlab qolgan (chunki ko‘pgina antik yozuvchilarni biz shu asarlarda keltirilgan tsitatalar orqali bilamiz).

Lekin bu asarni sof bibliografiya deb bo‘lmaydi.

Isidorning boshqa bir asari «Mashhur kishilar haqida kitob» («Kniga o znamenitix mujax») hajmi jihatdan kichik bo‘lsa – da, yuqoridagi asaridan qimmatliroqdir.

Bu asar Ieronim va Gennadiylarning shu nomdagi asarlaridan hajmining kichikligi bilan farq qiladi. Isidor bor-yo‘g’i 47 yozuvchi haqida ma’lumot bergen 48 – chisi o‘zi bo‘lgan. Isidorning bu asari, birinchidan, mahalliy yozuvchilarga ko‘p e’tibor berganligi, ikkinchidan, tuzuvchi tomonidan ongli ravishda asarga tavsiyaviy xarakter berilganligi bilan biz uchun qimmatlidir.

So‘z boshida Isidor asariga alohida diqqatga sazovor bo‘lgan yozuvchilarnigina olganligini yozadi.

Isidorning kichik zamondoshi arxiyepiskop Toledskiy (607-667) ham «Mashhur kishilar haqida kitob»ni tuzgan. Hajmi jihatdan u juda kichik asar, jami 14 nomni o‘z ichiga olgan, xolos. U ham Isidor singari faqat mahalliy yozuvchilarni hisobga olgan. Uning asarida diniy yozuvchilar haqida ma’lumot berilgan, ko‘p hollarda ularning asarlari to‘g’risida umuman hech qanday so‘z bormaydi.

Yangi bibliografik asarlarning paydo bo‘lishi G’arbiy YEvropada XI asr oxiriga, ya’ni rivojlangan feodalizm davriga to‘g’ri keladi. Hukmron feodalizm mafkurasi ichida alohida oqimlarning o‘zaro kurashi tinimsiz boradi. SHunday diniy vaziyatda cherkov yozuvchilarining yangi biobibliografik lug’atlari paydo bo‘ldi: monax Sigebertrning “CHerkov yozuvchilari haqida kitob” asari; Monte-kasino monastirining kutubxonachisi Petr Diakonning monax yozuvchilar haqida kitobi va h.k.

XII asr boshida yashagan yozuvchi Gonorey Otenskiyning «CHetyre knigi o svetochnyx ili o tserkovnyx pisatelyax» asari katta ahamiyatga egadir. 4 kitobdan iborat bu asarga so‘z boshida u shunday beradi (materialni): 1 – kitob «Ieronimdan parcha», va 2-kitob «Gennadiydan ko‘chirma», 3- kitob «Isidordan ko‘chirma» va 4-kitob «Turli avtorlardan to‘plam» deb ataydi. 4-kitobda jami 17 ta muallifning nomi berilgan, 17-si Gonoreyning o‘zi.

XIII asrda yashagan Genrix Gentskiyning «CHerkov yozuvchilari haqida kitob»i ham ma’lum ahamiyatga ega.

Bu davrda biobibliografik lug’atlar ko‘plab tuzildi, lekin ularning tuzilish uslubida hech qanday o‘zgarish, uslubiy mukammallik ko‘zga tashlanmadı.

XIII asr o‘rtalarida yashagan magistr Rishar de Furnival (1200-1250 yillar)ning «Knigozakoniye» («Bibliononomia») asari bosildi. Furnival falsafaga qiziqqan, algebra, astronomiya, alximiyyaga oid asarlari bo‘lgan. CHerkov iyerarxiyasida ko‘zga ko‘ringan Rishar de Furnivalning bu asari XIII asrda yozilgan

va u bizgacha juda yomon saqlangan bo‘lsada yetib kelgan. 3 tomdan iborat bu qo‘llanma ertakka o‘xhash kirish so‘zi bilan boshlanadi.

3 bo‘limda joylashtirilgan adabiyotlarni u bog’dagi 3 egatga o‘xshatadi, qo‘lyozmalarni shu egatdagi o‘simliklar deydi.

1 – egat – falsafa, grammatika, filologiya, ritorika, geometriya va arifmetika, musiqa va astronomiya, fizika-matematika, she’riyat haqidagi adabiyotlar, badiiy adabiyotlarni qamrab olgan.

2 - egatni foydali o‘simliklar deb ataydi. Unga tibbiyotga oid, bir necha shaxs huquqi va diniy huquq bo‘yicha kitoblar kiritilgan.

3 - egatga esa xudojo‘ylik adabiyotlari yig’ilgan.

Rishar de Furnival bu asariga shaxsiy kutubxonasiga yig’ilgan asarlarini kiritgan, lekin hammasini emas. Uning bu asarida Aristotel, lotin shoirlari Vergiliy, Goratsiy, Lukan, Ovidiy, TSitseron, mediklar Gippograt, Galen, Pikerlar bilan bir qatorda sharq olimlari Abu Ali Ibn Sino, Al-Forobi, Ibn Vatfiq va boshqalarning asarlari ko‘plab kiritilgan. Ular asarlarining ko‘pligidan XI asrda YEvropada tarqalgan SHarq fani bilan Furnival juda qiziqqanligini bilish mumkin.

«Biblionomiya» dagi klassifikatsiya o‘rta asrlar universtetlar tashkil etilishiga mos, ya’ni «fakultetlar klassifikatsiyasi» deyish mumkin.

XIII asr oxiridan bizning davrimizgacha o‘rta maktab dasturi va pedagogik maqsadga mo‘ljallangan bibliografiyaga o‘xhash bir asar yetib kelgan. U Trimberglik Gugoning «Ko‘pgina mualliflar ro‘yxati» («Perechen mnogix avtorov») asaridir. 1280 yilda tuzilgan bu asarning XU asrda ko‘chirilgan yagona nusxasi bizgacha yetib kelgan. Hugo Bavariyada maktab o‘qituvchisi bo‘lgan, yozuvchi sifatida 4 ta lotinchha va 8 ta nemischa kitobi bo‘lgan.

Gugo o‘z «ro‘yxati»ni 3 bo‘limga bo‘ladi:

1-bo‘limda antik avtorlarni,

2-bo‘limida tarixchi shoirlarni,

3-bo‘limda esa uncha ko‘p tanilmagan mualliflarni joylashtirgan, har bo‘lim ichida xronologik tartibni qo‘llagan. U o‘z asariga 65 qator so‘z boshi yozgan. Oxirida qisqacha tarjimai holini va o‘zining asarlari ro‘yxatini beradi. Har bir shoirga qisqacha tavsifnomasi bergan, buni u muallif va uning asari bilan tanishib chiqqach yozgan.

Bu asar bilan Hugo o‘z davrida tavsiya bibliografiyasining pedagogik turiga asos solgan va bibliografiya tarixida ma’lum o‘rin egallagan.

SHu davrgacha tuzilgan hamma bibliografik lug’atlar materiallar mualliflarning xronologiyasi tartibida joylashtirilgan edi. XU asr boshida Jon Boston «CHerkov yozuvchilar katalogi» («Katalog tserkovnykh pisateley») asarida materiallarni shaxslarning alifbosi tartibda joylashtirgan. U 195 inglez monastir kutubxonalari kitob fondining yig’ma katalogi hisoblanadi. Unda 673 muallif berilgan, lekin u nashr etilmagan, hozirda uning qo‘lyozmasi Kembrij kutubxonasida saqlanadi.

CHerkov yozuvchilarining biobibliografik lug'atlarini tuzishni 1494 yili Bazelda nashr qilingan Ioann Trittengemskiy (1462-1516 yillarda yashagan) «CHerkov yozuvchilari haqida kitob» («Kniga o tserkovnyx pisateley») i bilan davom ettirgan. Bunday bibliografik lug'atlarni Ieronim Stridonskiy va Gennadiy Marselskiylar tuzishgan edi. Bu shunday lug'atlarning oxirgi va shu bilan birga 1-bosma bibliografik asar edi. Uning bu asari ungacha tuzilgan shunday bibliografik lug'atlardan eng mukammal, puxta ishlangani edi. U 963 yozuvchining 9000 asarini ro'yxatga olgan. Materiallarni yozuvchilar yashagan davri xronologiyasi bo'yicha joylashtirgan, qisqacha biografik ma'lumot va asarlariga ham qisqacha izohlar berilgan.

Uning bu asarining o'zigacha tuzilgan shunday biobibliografik lug'atlardan farqi - u mualliflarning ismlari alifbosi ko'rsatkichini bergan. Bu bilan asarning ahamiyati yanada oshgan. Uning bu asari spravka xarakterida, targ'ibotchilik, tarixiy, adabiy maqsadda tuzilgan. Uning bu asari XVI asrning 1-yarmidayoq uch marta qayta nashr qilingan. Oxirgi marta esa 1718 yilda Hamburgda qayta nashr qilingan. Bu asar kitob bosish ancha tarqalgan paytda yuzaga keldi, ammo unda o'rta asrlar qo'lyozma kitoblari asosiy o'rinni egallagan.

2.2. Bibliografiyaning boshqa turlarini paydo bo'lishi

Kitob bosish kashf qilingunga qadar va undan keyingi o'n yilda bibliografiya juda sekinlik bilan rivojlanib borgan. Bir bibliografik asar ikkinchisidan o'n yil oraliqda yaratilar edi. Bu davrga qadar shu biobibliografik lug'atlarga bibliografiyaning bir turi sifatida ko'zga ko'rinarli darajada tuzilgan.

Aslida rivojlangan feodalizm davrida fan va adabiyot ko'pyoqlama rivojlandi. Ko'p sonli diniy adabiyotlar bilan bir qatorda faylasuflar baxslarini aks ettirgan falsafiy adabiyotlar soni ham ancha ortdi. Meditsinaga oid adabiyotlar soni ortdi. Huquqiy adabiyotlar, astrologiya va alximiyyaga oid adabiyotlar kengaydi. XIII asr olimlari buyuk Albert, Foma va boshqalarning asarlarida tirik tabiat haqida adabiyotlar paydo bo'ldi.

XI asr oxiridan boshlab arabcha va grek tillaridan tarjima qilingan asarlar ko'paya bordi. XII asrda Toledoda arabchadan tarjimonlarining butun bir maktabi paydo bo'ldi, endi Aristotel, Galen, Ptolemey, Ibn Sino, Averroeslar asarlari lotin tilini biladigan har qanday kitobxon o'qishi mumkin bo'lgan asarlar bo'lib qoldi.

Lotin adabiyoti bilan bir qatorda xalq tilidagi adabiyot ham taraqqiy eta boshladidi. Feodal jamiyati oliy tabaqalari uchun ritsar romanlari, lirik adabiyotlar yaratildi. SHaharliklar o'z adabiyotlarini – satirik eposlar, novellalarni yaratdilar.

Xalqning milliy tilidagi adabiyotlar faqat badiiy adabiyotdan iborat bo'lmay, yana ilmiy va soxta fanlar – tarjimalar, bestiarlar, lapidarlar ham paydo bo'ldi.

Kitob bosish texnikasi o'sib borgan kitobga bo'lgan talabga javob bera olmas edi. Kitob bosish texnikasi yuz yillar o'zgarishsiz qoldi. Bu esa avvalgi

qo‘lyozma kitobning noyobligini yanada oshirdi va u yanada qimmatligicha qoldi. Kitobni tayyorlash sekinlik bilan borardi va u ham juda qimmatga tushardi.

XI - XII asrda universitetlarda kitobni biroz arzonlashtirishga qadam qo‘yildi. Parijdagi universitetlarda kitob ko‘chirila boshladi va har bir ko‘chirib yozilgan qo‘lyozma uchun alohida narx belgilanadigan bo‘ldi. Kitobni ko‘chirib yozuvchilar qattiq nazoratga olinib, ular ko‘chirib yozgan kitobni sota olmas edilar.

SHunday og’ir sharoitda malakali kitob ko‘chiruvchilar paydo bo‘ldilar, ular universitet bilan bog’liq emas edilar.

XV asrning bиринчи choragida Parijda bir necha ming shunday yozuvchilar bor edilar.

SHu bilan birga kitob sotish keng suratda o‘sа boshladi. Qo‘lyozmalar buyurtmaga ko‘chirib yozib berilardi, ammo ayrim kitoblar bozor uchun ham tayyorlanardi. Lekin bu kitoblar diniy kitoblar edi. Xullas, kitob tayyorlash ishida o‘zgarish juda kam edi, talab va takliflar nomutanosib edi. Kitob tayyorlashda yog’och qoliplardan foydalanila boshlandi. Lekin u ham bu boradagi muammoni hal qila olmadi.

Fanning rivojlanishi, kitobga o‘sib borgan talab, kitobni tayyorlash texnikasining takomillashtirilishi bibliografiyani rivojlanishini ta’minlay olmadi. Bunga ko‘p omillar halal berardi. Qo‘lyozma kitoblarnig noyobligi, turli «kitoblar haqida kitob»lar bibliografiya rivojlanishidagi to‘siqlar edi. Bu to‘siqlarni Gutenberg tomonidan kitobni tayyorlashda erishgan – kiritgan o‘zgarishi bilan olib tashladi.

Kashf qilingan kitob bosish va tarqatish turli davlatlarda turlicha edi. 1500 yilda Italiya kitob bosishni ixtiro qilgan Germaniyani ortda qoldirgan edi. Kitob bosish ishi katta raqobat bilan borar edi. Kitob bosishning kashf etilishi turli -tuman adabiyotlarni tarqatish uchun foydalanildi. XV-XVI asrlarda kitob bosishning aniq hisobini olib bo‘lmay qolgan edi.

Bu davrda bibliografiya oldida yangi vazifa – ko‘p sonli kitoblarni bozorda sotilishiga yordam berish edi, ularning hammasi turlicha narxga ega edi. Kitob bosish bibliografiyaning butunlay yangi turini paydo bo‘lishiga olib keldi.

Evropada ikki bir - biriga qarama-qarshi lagerning paydo bo‘lishi va ular o‘rtasidagi kurash, birining ikkinchisi ustidan ustunligi...

O‘rta asrlarda bibliografiya kitob bosish ishiga mos emas edi O‘rta asrlar oxiriga kelib ular o‘rtasidagi nomunanosiblik ortdi. Ko‘p sonli xudojo‘lik (diniy) asarlar bilan birga realistlar, faylasuflar va boshqa oqimlar o‘rtasidagi munozaralar aks ettirilgan adabiyotlar ko‘paydi.

XI asr oxirida tarjima asarlar ko‘paydi.

Kitob bosish kashf etilgunga qadar bo‘lgan davrda va kitob bosish kashf etilgandan keyingi dastlabki o‘n yillikda bibliografiya juda sust rivojlangan. Feodalizm bosqichida diniy, dunyoviy asarlar, arab va grek tillaridan tarjima asarlar ko‘paydi. Ritsarlar asarlari va romanlari, lirik asarlar ko‘plab yaratildi.

XV asrda kitob bosishning kashf etilishi qo‘lyozma kitob qiyinchiliklarini bartaraf etdi.

Kitob bosish G’arbiy YEvropa va Markaziy YEvropa mamlakatlaridan O‘rtalari YEr dengizi atrofidagi davlatlarga tarqaldi. Diniy adabiyotlar bilan birga ommabop meditsina adabiyotlari, o‘rta asrlardagi mashhur adiblar asarlari ham keng bosila bordi. Kitoblar sonining ko‘payishi va savdoda aniq narxga ega bo‘lgan kitoblarni sotish zarur edi. Bunga bibliografiya yordam berdi.

2.2.1. Kitob savdosi bibliografiyasining paydo bo‘lishi

Bibliografiyaning vazifasi savdoga chiqarilgan ko‘p sonli kitoblarni sotishga yordam berish edi. Bibliografiyaning mutlaqo yangi turi – «kitob savdosi bibliografiyasi» paydo bo‘lib, haridorlarga turli davlatlarda shakllangan kitob savdosi tarmoqlari orqali xizmat qilish edi.

Kitob bosish YEvropada birinchi milliy davlatlarning paydo bo‘lishi bilan bog’liq bo‘ldi va rivojiana bordi.

K i t o b s a v d o s i b i b l i o g r a f i y a s i n i g dastlabki ko‘rinishi kezib yuradigan kitob savdogarlarining e’lonlari hisoblanadi.

Bu kitob savdogarlari – bosma kitobning birinchi yuz yilligidagi muhim shaxslar edi. Kitoblarni bozorga tayyorlayotgan bosmaxona egasi – noshirlar ularning yordamisiz ish qila olmas edilar. Bu sotuvchilar yo noshirlarning yoki kitob omborlari bo‘lgan yoki kitobning ulgurji savdosi bilan shug’ulanuvchi yirik savdogarlarning bevosita vakillari edilar. SHu sababli ularning e’lonlari birinchi navbatda ularni kitob bilan ta’milagan firmalarning e’lonlaridan iborat edi. Bu kitob sotuvchilar biror aholi turar joylariga borgach, o‘zining kelganligi haqida va kelishi to‘g’risida, shuningdek, ularning e’tiboriga qanday kitoblar havola etilayotani to‘g’risida xabar berish kerak edi.

Afisha yoki plakat ko‘rinishdagi bunday e’lonlar u kelgan qishloq yoki shaharlarda eng ko‘zga ko‘rinarli joyga: universitet, cherkov, monastrlarning devorlariga yopishtirib qo‘yilar edi.

Bu e’lonlarga tadqiqotchilar keyinroq e’tibor berdilar. Ularning ko‘pi bizgacha yetib kelmagan. Bu e’lonlar juda sodda yozilgan bo‘lar edi. Ularda 20-20 dan ortiqroq adabiyotlarning ro‘yxati bo‘lar edi. Ko‘p hollarda e’lon bittagina kitobga bag’ishlanardi, e’lonning oxirida – pastda esa kitob sotuvchi to‘xtagan mehmonxona manzili ko‘rsatilar edi. Plakat matni, sotiladigan kitoblar ro‘yxati odatda bosma, sotuvchining manzili qo‘lyozma bo‘lar edi. Matn lotincha yoki kamdan – kam hollarda xalq tilida tuzilar edi. Biroq ularda adabiyotlar sistemalashtirilmas edi. Faqat 1484 yilda bosilgan Erx Ratdolning ro‘yxati boshqacharoq: teologiya, mantiq, gumanitar fanlar va poeziya, kanonik va grajdani huquqi, meditsina kabi sohalarga ajratib berilgan.

1498 yilda bosmaxona egasi Ald Manutsiy ham o‘z katalogini chiqardi. Uning bu plakati o‘zidan oldingi chiqarilgan shunday plakatlardan bir belgisi bilan farq qiladi: unda Manutsiy har bir kitob qarshisiga uning narxini ko‘rsatgan, buni u

kitob sotib oluvchilarning ko‘p sonli so‘roqlariga javob berish qiyinligi sababli bir yo‘la hamma savollariga javob berish uchun qilganini aytadi.

Manutsiy katalogining 2-nashri 1503 yilda chiqarildi, unda u faqat o‘z kitoblarini emas, balki unda komissiyada bo‘lgan kitoblarni ham ko‘rsatadi, shu sababli uning bu nashri ham nashriyotchilik, ham kitob savdosi bibliografiyasi hisoblanadi.

Ald Manutsiyning 3-chi katalogi 1513 yilda nashr qilinib, u haqiqiy nashriyot katalogi edi. Unda o‘z stanogidan chiqqan adabiyotlarni besh saxifada tasvirlagan katalog edi. Kitob nashr qilish kashf etilgandan yuz yil keyin o‘z davrining yirik bibliografi o‘zining «Pandekty» asarida so‘z boshida ko‘p kitob savdogarlarining o‘z omborlarida bor bo‘lgan kitoblarning bosma katalogini bosib chiqarganlari muhim hodisa bo‘lganligini ta’kidlaydi, bu kataloglarning ko‘pidan Gesner o‘zi foydalangan, ularning ayrimlarini asariga kiritgan.

XVI asrda kitob savdosi bibliografiyasi yana bir qadam olg‘a siljidi. Bu davrda chiqish davriyligi belgilangan yarmarka kataloglari paydo bo‘ldi. Bunday kataloglarning birinchisi Frankfurt yarmarkasida paydo bo‘lgan. Bu yarmarka allaqachon juda muhim rol o‘ynaydigan, shimoliy va janubiy Germaniya o‘rtasidagi, Germaniya va Italiya, Frantsiya va Niderlandiya o‘rtasida savdo aloqalarini o‘rnatishda muhim rol o‘ynagan.

Bu yarmarkalar kataloglari XVI asr boshlaridayoq tuzila boshlagan, biroq chiqish davriyligi muntazam belgilab chiqarila boshlangani 1564 yilgi yarmarkaga to‘g‘ri keladi. Augsburglik yirik kitob savdogari Georg Viller «Frankfurtdagi 1564 yilgi kuzgi yarmarkaga sotish uchun qo‘ylgan yangi kitoblarning katalogi» nomli birinchi katalogni bosib chiqardi. Unda Viller bu «katalogini boshqa shaharlik kitob savdogarlari va kitob ishiga sodiq shaxslar foydalanadigan holda tuzganini» aytadi.

1565 – 1567 yillarda Viller bitta katalog tuzdi va chiqardi. Keyinchalik har bir (bahorgi va kuzgi) yarmarka uchun aloxida katalog chiqara boshladi.

Katalogdagi kitoblar tillari bo‘yicha – avval lotin tilidagi, keyin nemis tilidagi kitoblar berilgan. 1568 yildan esa boshqa chet tillardagi kitoblar bo‘limi ham ajratildi. Bir tilni ichida fan sohalari ajratilgan, bo‘limlar ichida esa tartib yo‘q edi. Tasvirlar mukammal emas edi. Asosan sarlavhaga e’tibor bergen, chiqish joyi, noshirlar ham ko‘pincha ko‘rsatilmagan. Sarlavhalar ko‘p hollarda qisqartirilgan, aniq bir belgilangan narx bo‘lmaganligi sababli kitobning narxi ko‘rsatilmas edi.

Viller kataloglari hajmi jihatdan ham har xil edi. 1564 yilgi 1-katalogda 256 kitobning, 1593 yilgisida 898 kitobning ro‘yxati berilgan.

1598 yildan rasmiy kitob savdosi katalogi chiqarila boshladi. Lekin Viller katalogi Villerning shogirdlari tomonidan yana 30 yil davomida chiqarildi. Rasmiy kataloglar Viller kataloglaridan tasvirlarining to‘liqroqligi bilan afzal edi. Klassifikatsiyasida ham o‘zgarishlar katta edi (Viller o‘sha paytda universitetlarda mavjud bo‘lgan 4 ta fakultetlar sohalari - tarix, huquq, matematika, meditsina

bo‘yicha bergen edi). Viller avval nashr tili bo‘yicha bergen edi, rasmiy katalogda avval fan sohalari bo‘yicha ajratildi.

Frankfurt yarmarka kataloglari 1749 yilgacha chiqarildi. U kataloglar hozirgi kundalik bibliografiyalar namunalari edi. Lekin kamchiliklari ko‘p edi. Ma’lumotlar aniq emas edi, ularda faqat yarmarkaga qo‘yilgan kitoblar hisobga olingan.

Villerning har yilgi kataloglari asosida 1592 yili yig’ma yarmarka kataloglari 3 tomda chiqarildi. Uni chiqarishni Viller o‘z hayotligida boshlab bergen edi (u 1593 yilda vafot etgan). U «Frankfurt yarmarkasida 1564 yildan 1592 yilgacha kuzgi yaarmarkagacha sotilgan yahudiy, grek, lotin, shuningdek, nemis, italyan, frantsuz va ispan tillarida yozilgan kitoblarning 3 tomlik to‘plami» deb nomlangan.

Tomlar ichida materiallar sistemali, har bir bo‘lim ichida esa ismlarning alifbosi bo‘yicha joylashtirilgan.

Villerdan keyin bunday kataloglarni Ioann Klemm, Georg Draudlar ham tuzganlar.

2.2.2. Taqiqlangan adabiyotlar bibliografiyasining yuzaga kelishi

XV – XVI asrlarda kitob bosish juda rivojlandi. XV asrda bosilgan kitoblardan bizgacha 40 minggi yetib kelgan. XVI asrda, ayniqsa reformatsiya davrida kitob bosish o‘sdi.

XVII asrning I – choragiga kelganda Germaniya dunyoda shunday to‘liq ma’lumotni beruvchi kitob savdosi bibliografiyasini asosiy chiqaruvchi davlat bo‘lib qoldi. XVI – XVII asrlarda bibliografiyaning eng rivojlangan turi ham shu kitob savdosi bibliografiysi bo‘ldi.

Evropaning ikki qarama – qarshi lagerga bo‘linishi va ular o‘rtasida kurashning kuchayishi har ikkala lager tomonidan bibliografiyani o‘z maqsadlarida foydalanishga olib keldi.

Hokimiyat, asosan cherkov dunyoviy adabiyotlarni tarqalishiga qarshi maqsadda foydalandi. Natijada yana bir bibliografiya turi – «t a q i q l a n g a n adabiyotlar bibliografiyası» paydo bo‘ldi va rivojlandi. Birinchi taqiqlangan adabiyotlar ko‘rsatkichari 1544 yilda Parij universiteti ilohiyot fakulteti tomonidan nashr etilgan. Keyinchalik ularning soni ko‘paya bordi. Bunday taqiqlangan adabiyotlar ko‘rsatkichlari katoliklarga qanday adabiyotlarni o‘qish ta’qiqlanganini ko‘rsatib berar edi.

1559 yilda Rimda papasi tomonidan tasdiqlangan «Taqiqlangan kitoblar indeksi» ko‘rsatkichi chiqdi. Keyinchalik bunday indekslar to‘liq va XX asrning boshigacha maxsus tashkil etilgan kongregatsiya tomonidan tayyorlanib, chiqarilib borildi. Bosma mahsulot mavzusining turli – tumanlasha borishi bibliografiya oldiga xaridorning maxsus va ixtisosli qiziqishini hisobga olib kitoblarni tanlab berish masalasini qo‘ydi. Natijada tarmoq bibliografiyasining paydo bo‘lishiga imkon yaratildi.

2.2.3. Tarmoq bibliografiyasining shakllanishi

Dastlabki, tarmoq qo'llanmasi **tibbiyotga** oid bo'lib, Frantsiya qiroli Karl VIII ning, keyinchalik Lyudovik XII va gertsog Lotoringskiyning shifokori Simforian SHampe tuzgan «Tibbiyot bo'yicha mashhur yozuvchilar to'g'risida, besh traktatga bo'lingan» nomli ko'rsatkichidir. U Lionda 1506 yilda bosilgan.

Lekin bu asar u qadar mustaqil tuzilmay, oldingi tuzilgan bibliografik materiallardan ko'p ma'lumotlar ko'chirib olingan edi. Bu asar mavzusi va eng birinchi tarmoq ko'rsatkichi bo'lishi bilan bibliografiya tarixida muhimdir.

Undan keyin 1530 yilda Otto Brunfelsning «Mashhur mediklar katalogi yoki meditsina bo'yicha birinchi yozuvchilar to'g'risida» («Katalog o znamenitix medikax ili o pervykh meditsinskix pisatelyax po meditsine») ko'rsatkichi; Paschal Gallning «Meditrina kutubxonasi» («Meditinskaya biblioteka») ko'rsatkichi (1590 yilda); Izrael SHpaxning «Meditrina yozuvchilarining ismlari ko'rsatkichi» («Imennoy ukazatel meditsinskix pisateley») kabilar ham yaratildi.

Huquqqa oid birinchi bibliografik qo'llanma Ioann Nevitstsano tuzgan «Har ikki (ilohiy va grajdan) huquq bo'yicha kitoblar ro'yxati» («Spisok knig po oboix (grajdanskix i kanonicheskix) pravax») 1552 yilda bosilgan.

1559 yilda Venetsiyada Dj. Bat. Dzilettining «Hozirgi kungacha nashr qilingan har ikki (papa, imperator) huquq bo'yicha barcha kitoblar ko'rsatkichi» bosildi. Bu Nevitstsanoning yuqoridagi ko'rsatkichini to'ldiribgina qolmay, unda yangi sistemalashtirish qo'llanilgan.

Bu bibliografiya qayta ishlangan va to'ldirilgan holda bir necha marta qayta nashr qilingan.

1598 yilda Izrael SHpax yana «Faylasuf va filolog yozuvchilarining ismlari ko'rsatkichi» («Imennoy ukazatel pisateley filosofov i filologov») ni chiqardi. Unda 400 ga yaqin predmet ruknlari ostida SHpax 4000 dan ortiq avtorlar ismlarining alifbo yordamchi ko'rsatkichini ilova qildi.

SHunday qilib, XVI asrga kelib bibliografiyaning yana bir turi – tarmoq bibliografiysi mustaqil nashr etilgan bibliografik ko'rsatkichlar bilan paydo bo'ldi. YAna qator kitob ichi bibliografik ro'yxatlari ham ko'p bosildi.

Bu davrga kelib YEvropa davlatlarida bibliografiyaning yana bir turi milliy bibliografiya namunalari ham paydo bo'la boshladi (4-bobga qaralsin).

T a k r o r l a sh u c h u n s a v o l l a r

1. Biobibliografik lug'atlarning yaratilish zarurati haqida gapirib bering.
2. Biobibliografik lug'atlarni kimlar tuzganlar?
3. O'rta asrlar boshlaridagi tarixiy sharoit qanday edi?
4. Kitob savdosi bibliografiyasining paydo bo'lishiga nimalar turtki bo'ldi?
5. Dastlabki tarmoq bibliografiyalari qachon paydo bo'ldi va ularni kimlar tuzgan?

3 – BOB. TIKLANISH DAVRI UNIVERSAL BIBLIOGRAFIYASI

3.1. Konrad Gesner – Yevropa bibliografiyasining asoschisi

Kongard Gesnerning «Umumiy kutubxona» («Vseobъaya biblioteka») asarini oldingi dastlabki ko‘zga ko‘rinarli 1- bibliografik asar yaratilgan davrdan oradan o‘tgan yuz yil ajratib turadi. Bu yuz yil YEvropa madaniyatida katta ahamiyatga ega. Albatta, Konrad Gesner shu o‘tgan yuz yil ichida yetishgan, o‘tgan titanlar Leonardo da Vinchi, Albert Dyurer, Makyavelli, Lyuterlarga o‘xshamas edi. Unda ularga o‘xshagan kuchli xarakter yo‘q bo‘lsa ajab emas.

Lekin aqliy qiziqishi turli tuman bo‘lgan. Ellinist – filolog, faylasuf, shifokor, zoolog, botanik va nihoyat bibliograf Konrad Gesner yuqoridagi nomlardan keyin aytildigan va shu boshlangan tiklanish davrining ko‘zga yaqqol namoyon bo‘lgan shaxsi bo‘lib qoldi.

Gesnerning rang-barang ilmiy faoliyatining to‘liq tavsifnomasi ushbu nomi aytilayotgan «Umumiy kutubxona» («Vseobъaya biblioteka») asari mavzusidan chetga chiqadi.

U TSyurixda 1515 yilda tug’ilgan. Meditsina doktori bo‘lgan. Hayotining so‘ngi yillarida o‘z ona shahri TSyurixda shahar shifokori bo‘lib ishladi. 1565 yil shu yerda vafot etgan. Konrad Gesner bizga qoldirgan «Vseobъaya biblioteka» asari 4 qismdan iborat bo‘lib, bu bibliografik asar Konrad Gesnerni bu davr YEvropa bibliografiyasining «otasi» deb atashga sabab bo‘ldi.

Bibliografiyaning birinchi qismi «Kutubxonalarda hozirgi kungacha saqlangan va yashiringan yoki ochiq bo‘lgan yangi va eski 3 tildagi: lotin, grek va yahudiy tillardagi hamma asarlarning umumiy kutubxonasi yoki to‘liq katalogi» yangi asar jamoat va shaxsiy kutubxonalarini tuzish uchungina emas, balki har qanday san’at yoki fanni yaxshi o‘rganishni istagan hamma uchun o‘ta foydali. TSyurixlik meditsina doktori Konrad Gesner tuzgan. TSyurixda 1545 yil sentyabr oyida noshir Xristofor Froshover bosib chiqargan» deb nomlangan.

Ikkinci qismi «TSyurixlik shifokor va falsafa doktori Gesner 21 ta doktori Konrad Pandekt (Svod-to‘plam) i yoki umumiy bo‘linmalari. Kitobxonlarga. Bu tom 2 chi kutubxonamiz, falsafa va butun san’at hamda umumiy masalalar va fanlar sohasi va shu bilan birga xususiy bo‘linmalar. 1548 yilda TSyurixda Xristofor Froshover bosib chiqardi” deb nomlangan.

Bu 21 degani fanlar klassifikatsiyasi nazarda tutilgan, shundan falsafa, san’at, universal va umumiy fanlar, xususiy bo‘linmalar bo‘yicha kitoblar kiritilgan. 20-chi bo‘limda meditsina berilishi kerak edi. Lekin uni alohida tayyorlashga ulgurmadi.

21-chi razryadga teologiya kirishi kerak edi. U ko‘rsatkichning Z- chi qismida berildi.

Uchinchi qismi “Konrad Gesner” umumiy Pandektining oxirgi teologiya bo‘linmasi. SHu kitobga va oldingi 19 tasiga alifbo ko‘rsatkichi ilova qilinmoqda, u oldingi va’da qilingan 3 tomini to‘ldiradi. TSyurixda 1549 yilda Xristofor Froshover bosib chiqardi” deb nomlangan.

To‘rtinchi qismi “Konrad Gesner kutubxonasiga qo‘sishimcha TSyurixda 1555 yil martda Xristofor Froshover bosmaxona-sida bosildi” deb nomlangan.

O‘zi so‘z boshi yozadi, unda kitobxonga murojaat qiladi. Bu murojaatini “O‘zim uchun emas, umumiy foydalanish uchun tuzdim buni men, Asalarilar, axir Sizlar ham asalni o‘zingiz uchun tayyorlamaysiz- ku!” degan 2 qatorlik she’r bilan yakunlaydi.

Kitobxonga keyingi murojaatida imperiya bosh maslahatchisiga bu asarni yaratishga nima majbur qilganini tushuntiradi: bu hayotda xamma narsa halok bo‘lishi mumkin. Boy Aleksandriya kutubxonasing vayron bo‘lgani, uning davrida esa venger qiroli Matvey Korvinnning ajoyib kutubxonasi yo‘q bo‘lib ketganini ko‘rsatib, o‘zi yig’a olgan kitoblar ham izsiz yo‘q bo‘lib ketsa, insoniyat, uning zamondoshlari, yangi kashf etilgan davlatlarda rivojlanish o‘rniga yovvoyilashadi, deb izohlaydi.

Kitob bosish bilimlarni saqlashni osonlashtirdi, lekin ko‘p ortiqcha narsalar bosilib, ko‘p qadimgi qimmatbaho asarlar bosilmay qolmoqda.

Gesnerning gapi bo‘yicha, oldin u faqat qadimiy asarlar bilan cheklanmoqchi bo‘ldi, keyin rejasini kengaytirib, “Kutubxona” sida qadimgi va yangi asarlarni, ilmiy va ilmiy bo‘lmagan, bosma va, qo‘lyozma, noshud monax tomonidan yozilgan yovvoyi kitoblargacha kiritishga qapop qildi. Ulardan ham foydali narsalarni olish mumkin. Enniyning nopok ishlaridan Vergiliy oltin topgan-ku. Har bir kitob nimasi bilandir foydali deb Pliniy ham aytganku.

Bunda Turk - osmonlar tomonidan venger poytaxti Budaning ishg’ol qilinishi natijasida 1527 yilda Kirol Matvey Korvin kutubxonasing yonib ketishi ham bunga turtki bo‘lgani ma’lum.

Gesner materialni avtorlar ismlarining alifbosi bo‘yicha beradi. Keyin “Kutubxona” sini tuzishda foydalangan manbalar kutubxonalar va kataloglarni keltiradi. har bir muallifning bosma asari to‘lik tasvirlangan, hatto narxi ham ko‘rsatilgan. Annotatsiyalangan.

Gesner Ieronim, Gennadiy ko‘rsatkichlardan to‘liq foydalangan. Qo‘lyozma adabiyotlarning nomi ko‘rsatilgan xolos. Oldingi bibliografiyalardan farqi - qo‘lyozma asarlar bilan bosma asarning farqini tasvirda ko‘rsatib ketgan.

O‘zidan oldingi tuzuvchilardan farq qilgani holda Gesner har bir yozuvchining hayoti va ijodiy faoliyati haqida ma’lumot beradi. Mashhur avtorlar haqida biografik ma’lumot o‘ta to‘liq (masalan, Aristotelga 40 betdan iborat to‘liq matn berilgan, avvalgi tuzuvchilar tug‘ilgan, yashagan yillarini berar edilar, xolos). YAngi asarlarning tasvirlari bilan birga unga keng baholar ham berilgan

Dunyoviy ilm asoschilari haqidagi ma’lumotlar birinchi, diniy yozuvchilar 2-darajali o‘rin tutib, keyin berilgan.

Tasvirning to‘liqligi, bu asarni oldingilardan ustun ekanligini ko‘rsatadi.

“Kutubxona” so‘zini bibliografik asarni nomlashda qo‘llanilishi ham bu asarning oldingilaridan afzalligini ko‘rsatadi.

Birinchi toming o‘zida 3 mingdan ortiq muallifning 12 mingdan ziyod asari ro‘yxatga olinganligi Gesner ko‘rsatkichining yutuqlaridan biridir. Oldingi tuzuvchilardan yana bir farqi: Gesner o‘zi yozgan ocherklarida hap bir yozuvchi hayoti va faoliyatining muhim faktlarini beradi. Asarlarini tahlil qilib, unga baho beradi.

Gesner asarining hap bir qismini biror bir noshirga bag’ishlagan, masalan, Froshoverga ham, bundan uning noshirlar bilan yaqin aloqada bo‘lganini ko‘rish mumkin.

Jami u “Kutubxona” sida 4-5 ming muallifning 15 mingdan ortiq asarlarini yiqqan. Zamondoshlari uning asari bilan asar bosilguncha qiziqqanlar. 1544 yil noyabrda falkneyburglik knyaz Otto Genrix turli o‘rtamchilar orqali “Kutubxonaning varaqlari bosilishi bilan yuborishni talab qiladi...”. Karl V unga gerb topshirdi.

Hajmi katta bu asar qimmatbaho nashr edi. Konrad Gesnerning zamondoshi Konrad Likosfen tomonidan Bazelda 1551 yilda Oporin nashrida chiqdi. Likosfen Gesnerning asarini qisqartiribgina qolmay, balki yana bir necha yuz yangi nom bilan to‘ldirdi, lekin mualliflar to‘g’risidagi Gesner bergen ma’lumotlardan to‘liq voz kechdi, XUI asr o‘rtalarida kitobxonga avtor haqidagi emas, kitob haqidagi ma’lumot muhimroq edi, buni Likosfen bildi.

Likosfening bu ishiga - javoban Gesnerning o‘zi va do‘sti Iospey Simler tuzgan “Konrad Gesnerning Kutubxona” sidan avval Konrad Likosfen tuzgan, endi boshqatdan tekshirilgan va ikki mingdan ortiq avtorga ko‘paytirilgan “Ko‘chirma” 1555 yilda Froshover nashri bilan bosildi. Unga Gesnerning o‘zi so‘z boshi yozgan.

Lekin Simler ham Likosfen kabi biografik ma’lumotlardan voz kechib, sof bibliografik ma’lumotni berdi. SHu 1555 yilda Simler tuzgan asar bosilgan vaqtida Parijda Gesner asarining 18 qismi kichik kitobcha shaklida R. Konstantin tomonidan tuzilgan va “Angliya va Galliya kutubxonalarida yoki bosma nashr sifatida kitoblari mavjud bo‘lgan mashhur yozuvchilarning ismlar ro‘yxati. Bu olim va iste’dod egasi K. Gesnerning “Kutubxona va pandektlarining hammasiga ko‘rsatkich” («Ukazatel biblioteki i vsem pandektam»)deb nomlangan 180 varaqli kichik nashri chiqdi.

1574 yilda Gesner vafotidan 20 yil keyin Simler “Ko‘chirma”sining yangi to‘ldirilgan nashri chiqdi.

1583 yilda, 1585 yilda yana “Umumiy” (universal) kutubxona” bilan bog’liq holda asarlar chiqqan, lekin bu bilan bunday nashrlar to‘xtamadi.

XUII-XUIII asrda bilimdon kishilar Gesner asarini eslamay qolmaganlar.

Bu asar bibliografiya tarixini o‘rganishda bizning davr uchun ham katta qimmatga ega.

3.2. Yangi sharoitda bibliografik asarlarning an'anaviy xillarini vujudga kelishi

XVIII asrga kelib bibliografiyaning qadimgi turlari – biobibliografik lug’atlar yana yaratila boshlandi. Ulardan nemis universiteti professorlari va o‘qimishli jurnalistlar spravka maqsadida foydalanishadi. Bunday lug’atlardan biri «Olimlarning umumiy ko‘rsatkichi» («Общіу ukazatel uchenых»)ni Xristian Gotlib Yoxer tuzgan.

Xristian Gotlib Yoxer (1694 – 1758) Leyptsig universitetini tugatgan va butun umri davomida u bilan bog’langandek, shu yerda ishlagan. 1730 yil falsafa fanini, 1732 yil tarix fanini o‘qitdi., 1735 yil doktorlik dissertatsiyasini himoya qildi. 1742 yil Universitet kutubxonasining rahbari edi. U «Olimlarning umumiy lug’ati» («Всеобщій словарь ученых») ga eng qadimgi davrdan 1750 yil (lug’at chiqqungacha) gacha bo‘lgan davrdagi 76000 olimlarni ro‘yxatga olgan (7 ming yillik davrdagi), lekin 17 mingga yaqini yo‘naltirishlar, demak unda 60000 ta hamma millat olimlarning asarlari haqida malumot berilgan.

Tasvir bir xil emas. CHet tillardagi kitoblarning nomi ba’zan asl holicha, ba’zan nemis tiliga tarjimasi bilan berilgan. Ishning hajmi katta bo‘lganligi sababli Yoxer hamma nashrlar to‘g’risida ma’lumotni to‘liq bermagan. O’rta asrlar va o‘z zamondoshlari, o‘zidan sal oldingi avtorlar haqida batafsilroq ma’lumot bergen. Nemis tilida tuzilgan bu lug’at Germaniyada katta qiziqish uyg’otgan. Bosib chiqarilishi bilanoq u yer bu yerda unga qo‘srimchalar chiqaboshladи.

1784 – 1787 yillarda mashhur pedagog, grammatik va leksikograf Adelung Yoxerning asari chiqqan Gredichning mashhur nashriyotida «Xristian Gotlib Yoxer»ning «Olimlarning umumiy lug’ati»ning davomi va qo‘srimcha»ni chiqardi.

O‘zining so‘z boshida Adelung «Yoxerning «Lug’ati» ko‘p kamchiliklarga ega va u jiddiy qayta ishlashni talab qiladi» deb izohlaydi. U Yoxerga nisbatan bibliografik ma’lumotlarni aniq va ishonarli qilib bergen. Uning bu asarini 2 tomi chiqdi, xolos (uni davom ettirsa ham bo‘lar edi, chunki u 2 tomdan keyin yana 19 yil yashadi).

Yoxerning “Lug’ati” 1,5 asr o‘z qiziqishini yo‘qotmadi.

XVII asrning 2 chi yarmiga kelib bosilgan kitoblar soni ular haqidagi ma’lumotdan bir necha marta oshib ketdi.

Leyptsiglik kitob savdogari Teofil Georgi “Kitoblarning Umumevropa umumiy leksikoni” nomli 4 qismidan iborat asarni yaratdi. Ularga yana 3 ta qo‘srimcha tomini yaratdi. XUI asrдан 1757 yilgacha chiqqan nemis va lotin tillaridagi kitoblarni hisobga olgan bu leksikon alohida bezalgan holda chiqarilgan. Kitoblar 6 grafadan iborat jadvalda tasvirlangan. Asar 1753 yilda chiqdi. Leksikonning 5 qismi va 3 ta qo‘srimcha qismlarda jami 150000 dan ortiq tasvir keltirilgan. Spravka ahamiyatga ega bu asarda tasvirlar mukammalroq edi. Faqat oldingi avtorlar haqida to‘liqroq ma’lumot bergen. Masalan, XUI asr avtorlari

haqida.

Leksikon kitob bozorida ham katta ahamiyatga ega bo‘lgan. Lekin xatolari ko‘p bo‘lgan bu asarni keyinchalik ayrim bibliograflar qattiq tanqid qilganlar. Masalan, XIX asr o‘rtalarida mashhur bo‘lgan bibliograf Pettsxoldt bu asar haqida “aniqlik va ishonch bo‘lmagan asar, lekin uning o‘rnini bosadigan boshqa to‘liqroq bibliografik asar bo‘lmagani uchun, undan butunlay voz kechib bo‘lmaydi”, deb yozadi.

XIX asr oxiri XX asrning 1- yarmida Anri Steyn esa Georgining “Leksikon” ini “Keng va e’tiborga loyiq repertuar” deb baholaydi.

Bibliografik tasvirlari standartlashtirilgani bilan Georgi o‘zidan oldingi bibliograf Drauddan o‘tib ketgan. Tasvirda u narxi va betlar sonini ham ko‘rsatgan, shu vaqtgacha hech bir bibliografik asarda u ma’lumotlar yo‘q edi: (aniqrog’i to‘liq berilmas edi).

Kitob savdosi, nashriyotchilik tarixi bilan shug’ulangan mutaxassisiga Georgi boshqa birorta bibliografik asarda yig’ilmagan boy materialni bergen. Bu XV va XVI asr kitob nashriyotchiligini o‘rganishda muhim qo‘llanmadir.

T a k r o r l a s h u c h u n s a v o l l a r :

1. Kongard Gesnerning «Umumiyl kutubxonasi» («Vesobщaya biblioteka») asari haqida gaprib bering.
2. Yangi sharoitda bibliografiyaning oldin an’anaviy bo‘lgan qanday turlari tuzila boshlandi?
3. Bu tuzilgan bibliografiyalarning dastlabki bibliografiyalardan qanday farqi va ustunligi bor edi?
4. Keyinchalik T. Georgining «...Leksikoni» ga mutaxassislar qanday baho bergenlar?

4-BOB. MILLIY BIBLIOGRAFIYANING PAYDO BO‘LISHI

4.1. “Milliy bibliografiya” tushunchasining izohlanishi

“Milliy bibliografiya” deb, biror bir davlatning bosma matbuotini universal (to‘liq) hisobga olish vazifasini bajaruvchi bibliografiyaga aytildi.

Uning paydo bo‘lishiga qator sabablar bo‘lgan, ularning eng muhim – millatning paydo bo‘lishi, milliy o‘zlikni anglashning shakllanishi va bundan milliy madaniyat yutuqlarini aniqlash va umumlashtirishga ehtiyojning kelib chiqishi edi.

Xalq tili (nemis, frantsuz, ingliz va boshq.)dagi kitoblarning keng tarqala borishi va ilgari o‘rta asrda xukmron bo‘lgan til – lotin tilining asta sekin siqib chiqarilishi ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Kitob nashr qilishning tez sur’atlar bilan o‘sishi (agarda 1500 yilda YEvropada 30 ming nomda kitob nashr qilingan bo‘lsa, 1600 yilda esa 285 mingdan ortiq kitob bosilgan) ham muhim rol o‘ynadi.

Milliy adabiyotlarning retrospektiv yig’ma ro‘yxatlari XU1 asr boshlaridan yuritildi.Ularning 1-si ingliz Jon Beylning 1548 yilda bosilgan biobibliografik asari hisoblanadi.

1550 yilda Venetsiyada publisist va noshir Antonio Franchesko Donining **«Florentsiyalik Donining kutubxonasi»** (“Biblioteka Florentiytsa Doni”) asari bosildi. Unda Italiya yozuvchilari asarlarining ro‘yxati berilgan bo‘lib, u mahalliy (italyan) tilidagi adabiyotlarni hisobga olishdagi birinchi tajriba edi. 2 qismdan iborat bu ko‘rsatkich keyinchalik bir necha marta qayta nashr qilingan.

CHorak asrdan so‘ng 1584 va 1585 yilda Frantsiyada frantsuz tilida 2 ta kitoblar ko‘rsatkichi chiqdi, ularning biri F.Dyu Men, ikkinchisi A.Dyu Verde tomonidan tuzilgan.

XU1 asrning bu va boshqa ishlari YEvropada, so‘ngra butun jahonda retrospektiv milliy bibliografik nashrlarning keng tarqalishiga zamin tayyorladi.

XU1-XUSH asrlar retrospektiv bibliografik nashrlari faqat kitoblarni hisobga olardi, lekin to‘liq bibliografiyanigan ro‘yxatlar edi, chunki adabiyotlarning kundalik hisobi olib borilmas edi, shu sababli tuzuvchilar chiqayotgan asarlar to‘g’risida ma’lumotlarni to‘plardilar, bunda o‘zidan oldingi tuzuvchilarning ishlaridan, kutubxonalar va nashriyotlar kataloglaridan foydalanganlar.

Bu davrda retrospektiv to‘plamlar alohida shaxslar va bibliograflarning shaxsiy tashabbusi bilan tuzilardi.

Kundalik milliy bibliografiya XIX asrdagina paydo bo‘lgan, shunga qaramay, milliy bibliografiya tushunchasini nazariy izohlash qiyinchilik bilan kechdi va uning atrofida munozaralar hozirga qadar ham davom etmoqda.

«Milliy bibliografiya» tushunchasi XUSH asrning oxirida Frantsiyada paydo bo‘ldi, XIX asrdagi Xalqaro bibliografik Kongresslarda keng tarqaldi, biroq tushuncha izohanmadı. Birinchilardan bo‘lib frantsuz tarixchisi va bibliografi

SH.V.LANGLUA «Tarixiy bibliografiya bo‘yicha qo‘llanma» (“Posobiye po istoricheskoy bibliografii”) (1901 y.) asarida uni izohlashga harakat qilgan.

«Universal bibliografiyalarga doirasi tor bo‘lgan milliy bibliografiyalar qarshi turadi: bu nashr hozirda u yoki bu millat – Germaniya, Frantsiya, Italiya va boshqa davlatlar hududida nashr qilinganlik belgisi bilan birlashtirilgan kitoblar repertuaridir», deb yozadi SH.V.Langlua. Lekin bu ta’rif milliy adabiyot tarixi repertuariga ham mos keladi, ular ham **davlat vakillari** yoki shu **davlat tilida** yozilganlik belgisi bilan birlashtirilgan (bosma yoki qo‘lyozma) asarlar repertuaridir. Bunga qo‘srimcha qilib, bir davlat to‘g’risida (Germaniya, Frantsiya va boshqalar) gi asarlarni hisobga oluvchi repertuarlar «milliy bibliografiya» deb atalishi mumkin, deb ayta olamiz.

XX asrning 1-yarmi davomila «**milliy bibliografiya**» tushunchasini aniqlash ustidagi ish ilgari siljimadi. Ko‘pgina bibliograflar milliy bibliografiyaning ko‘pyoqlama xususiyatini tan olgan holda uning bosh, yetakchi shakli – biron-bir davlat doirasida nashr etilgan adabiyotlarni hisobga olish belgisini ajratdilar.

Bibliograflarning bir qismi milliy bibliografiyaning asosiy vazifasini bir millat bilan u yoki bu tomonlama bog’liq bo‘lgan va shu hududda bosilgan adabiyotlarning butun kompleksini keng aks ettirishda deb qaradilar va

- a) shu xalq tilida;
- b) uning vakili tomonidan har qanday tilda yozilgan va hatto
- v) muallifi yoki tilidan qat’iy nazar shu xalqqa yoki davlatga bag’ishlangan adabiyotlarni hisobga olishi kerak, deb hisobladilar.

Milliy bibliografiya shakllarining farqi aniq tarixiy vaziyat (sharoit) tafovutlari bilan bog’liq bo‘ladi. Ko‘pgina davlatlarda kundalik va retrospektiv milliy bibliografiya nashrlari o‘z davlat adabiy maxsulotlarini aks ettirib, hududiy tamoyillar asosida shakllandı. Rossiyada ham, AQSHda va qator boshqa davlatlarda ham shunday bo‘ldi. Ammo ba’zi davlatlarda, xususan Germaniyada hududiy tamoyilni qo‘llash mumkin bo‘lmadi. Ma’lumki, 1871 yilgi frantsuz-pruss urushidan keyin nemis davlatlari Prussiya nomi ostida birlashtirilib, Germaniya imperiyasi yaratildi. Biroq milliy birlik tushunchasi nemislarni, K.R.Simonning fikricha, davlatning bo‘linishini «engish zarur bo‘lgan umuminsoniy kulfat» deb qarashga majbur etdi. Nashriyotchilik va kitob savdosini nemis tilidagi kitoblarni nashr etib va tarqatib, mavjud chegarani hisobga olmay, umumnemis madaniy markazlari va kitob savdosini tashkilotlarini tashkil etish orqali bu bilan kurashdilar. Bunday sharoitda milliy bibliografiya kitob savdosining kechiktirib bo‘lmaydigan ehtiyojlari uchun zarur bo‘lgan birgina tamoyil – yil belgisi bo‘yicha tulishi zarur edi.

Boshqa davlat tili va madaniyati bilan bog’langan milliy guruhlar yig’indisini bildiruvchi davlatlar (ingliz-frantsuz Kanada, frantsuz-nemis, italyan SHveytsariyasi va h.k.) yoki bosma mahsuloti kam bo‘lgan davlatlar yoki sun’iy ravishda tuzilgan davlatlar (Isroil) alohida toifani tashkil etadilar. Bu hollarda, shuningdek majburiy bo‘lib yuborilgan va o‘tmishda milliy ezilgan, hudud jihatidangina emas, balki til chegarasi ham tor bo‘lgan davlatlar to‘g’risida gap

ketganda mamlakat vakillari yozgan yoki unga bag'ishlangan chet el asarlari to'g'risida qo'shimcha axborotga ehtiyoj paydo bo'ladi. Masalan, ko'p yillar mobaynida parchalanib kelgan Polshada milliy bibliografiyaning vazifasi davlat tarqoqligiga, aholisining eminratsiyasiga qaramay polyak madaniyati yutuqlarini aniqlash va aks ettirish bo'lgan

SHunday qilib, «**Milliy bibliografiya**» tushunchasi adabiyotni hisobga olishning turli mavjud shakllarini birlashtiradi, deb ta'kidlash mumkin:

1. Hududiy belgilari bo'yicha hisobga olish (shu davlat hududida barcha tillarda nashr qilingan hujjatlar hisobga olinadi).

2. Til belgisi bo'yicha hisobga olish (nashr joyidan qat'iy nazar, aniq bir tilda bosilgan asarlar hisobga olinadi).

3. Ushbu davlat bilan hududiy, til, mualliflik va mazmun belgisi bilan bog'liq bo'lgan – kompleks tamoyiliga ko'ra barcha materiallarni hisobga olish (bu guruh «patriotika» yoki «eksteriorika» deb ataladi). Milliy bibliografiyaning ham kundalik milliy bibliografiya, retrospektiv milliy bibliografiya turlari ajratiladi.

Kundalik milliy bibliografiyaga hududiy tamoyil maqsadga muvofiq deb topilgan, bu til yoki kompleks belgilar bo'yicha hisobga olishning ahamiyatini kamaytirmaydi, lekin ular hozirgi davrda mamlakatshunoslik bibliografiyasining ob'ekti hisoblanadi va kundalik milliy bibliografiya nashrlariga qo'shilmasligi kerak.

4.2. Birinchi retrospektiv bibliografik to'plamlarning yaratilishi

Milliy bibliografiyaning paydo bo'lishiga Renesans (Uyg'onish) davriga xos bo'lgan milliy o'z-o'zini anglashning shakllanishi sabab bo'ldi. «**Milliy bibliografiya**» deganda unga kiritilgan yozuvchilarning millati belgisi bo'yicha material tanlangan bibliografik asarlar tushunilgan.

Milliy bibliografiyalar shunday ketma-ketlikda: Germaniya, Angliya, Italiya, Frantsiya, Ispaniya, Polshada paydo bo'ldi. Ularning birinchi shakllari retrospektiv ko'rsatkichlar bo'lgan. Biroq bu davrda ham ayrim kichik bibliografik material deb aytish mumkin bo'lgan nashrlar paydo bo'ldi. Masalan, Korneliy Loss «**Germanyaning mashxur yozuvchilari katalogi, qaysiki hayoti ham, bir vaqtning o'zida o'z ta'limoti va taqvodorligi bilan mashxur bo'lgan shaxslar va (ularning) asarlari**» ni tuzgan. Unda 1500 yildan 1581 yilgacha bo'lgan adabiyotlar, ya'ni katoliklar o'qishi mumkin bo'lgan (ta'qilangan adabiyotlar ko'rsatkichlari bilan bir vaqtda yaratilgan) adabiyotlar (tanlab) olingan (Milliy bibliografiyada hujjatlar to'liq olinishi kerak, lekin bu bibliografiya tuzuvchisi aynan katoliklar o'qishi mumkin bo'lgan adabiyotlarni ularga ko'rsatib berishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yganligi uchun shunday olgan). SHaxslarni yashagan davri xronologiyasi bo'yicha bergen.

GERMANIYA birinchi milliy bibliografiyaning namunasi Ioann Trittengemskiyning 1495 yilda Bazelda bosilgan «**O'zining iqtidorlari va mashg'ulotlari bilan Germaniyani mashxur qilgan mashxur kishilar katalogi**»

(«Katalog tex, kto proslavil Germaniyu svoim zanyatiyem i talantom») qo'llanmasidir. Ioann Trittengemskiy o'zining «CHerkov yozuvchilar haqida kitob» asari bilan ma'lumdir. Unda 300 ga yaqin (millati buyicha) nemis yozuvchilarining 2000 ga yaqin asarlari hisobga olingan. Bibliografiya amaliyotida yangi xodisa – katalogning milliy xususiyati, ayniqsa qiziqarli. Germaniyada 16 asr boshlarigacha milliy davlat yo'q edi.

Bir necha yuz yillar davomida to'liq hisobga oluvchi milliy retrospektiv bibliografiyasini bo'lmagan. Bosma kitob maxsulotlari kamligiga qaramay Frantsmya va Angliyada milliy bibliografiya paydo bo'lgan.

ANGLIYADA (shuningdek, butun YEvropada) o'rta asrlarda asosiy kitob boyliklari yig'iladigan joylar monastirlar edi. Angliyada retrospektiv ko'rsatkichlar Genrix U111 xukmronligi davrida u ingliz monastirlari ko'chmas mulklari va boshqa mulkni davlat mulkiga aylantirish bo'yicha tadbirini o'tkazgan davriga to'g'ri keladi.

Bu davrda, ya'ni 1536-1539 yillarda 800 ga yaqin monastirlar tugatilgan, ular bilan birga 800 ga yaqin kutubxonalar ham tugatilgan. Ularning katta qismini kitob fondi yo yondirib yuborilgan yoki yirtib yuborilgan. 1540 yilda Genrix UIII ning odamlari shubhali kutubxonalarini tozalash bo'yicha o'z ishlarini juda faol olib bordilarki, natijada faqat Oksford, Kembrij va boshqa bir necha eski soborlar kutubxonalarigina saqlanib qoldi. 1549 yilda Eduard davrida universitet kutubxonalari «tozalandi». Oksford kutubxonasi batamom yo'q qilindi. Birinchi ingliz kitoblari, ko'pchiligi qo'lyozmalari ro'yxatini tuzish ishini antikvar Jon Lelend (1506-1552 yy.) bajardi. U «**Britan yozuvchilar to'g'risida sharxlar**» ("Kommentarii britanskix pisateley") asari bo'lib, 1545 yilda yaratilgan, biroq 1,5 asrdan keyin (1709 yilda) nashr qilingan. Bu ish ham materiallari xronologik tartibda joylashtirilgan biobibliografik lug'atdir. Unda materiallar avtorlarning millati bo'yicha (milliy tamoyil asosida) tanlangan bo'lib, Lelend eramizdan oldingi UI asrlarda yaratilgan asarlarni ham olgan. Asarlarning yozilish tarixini keng bergen, 593 bobdan iborat bu bibliografiyada har bir bob bir yozuvchiga bag'ishlangan: 80 bobi fantastik materiallarga bag'ishlangan (chunki ingliz adabiyotining boshlanishini Lelend bardlar-qasidanavis shoirlar, druidlar, sehrgarlar yozgan kitoblardan deb hisobladi).

Undan keyin uning do'sti Jon Beyl (1495-1563) ko'p vaqt davomida (darbadarlikda surgunda yurgan kezlarda) ingliz adabiyoti haqidagi ma'lumotlarni yig'ib, 1-ingлиз milliy retrospektiv bibliografiyasini tuzgan. U «**Buyuk Britaniya, ya'ni Angliya, Uels va SHotlandiyaning mashxur yozuvchilar ro'yxati**» ("Spisok znamenitix pisateley Velikobritanii, t.e. Anglia, Uelsa i SHotlandii") deb nomlanadi. Unda Beyl 3000 yilgi ingliz adabiyoti tarixini berishga uringan, 600 ga yaqin yozuvchilar to'g'risidagi biografik ma'lumotlarni keng bergen, materiallarni xronologik tartibda joylashtirgan, oxirida ismlar ko'rsatkichini bergen. 1548 yilda bosilgan bu bibliografiya 1557 yilda qayta ishlanib, «Hozirgi Angliya va SHotlandiya deb nomlanuvchi Buyuk Britaniyaning mashhur yozuvchilar katalogi»

nomi bilan nashr qildirdi. 1559 yilda uning davomini chiqardi. Ularning hammasida 1400 ga yaqin yozuvchilar nomlari berilgan.

Lelend ham, Beyl ham qo'lyozma kitoblarni olganlar.

XUI asrda va XUII asrning boshida Angliya kitob maxsuloti juda kam edi. Asosan yiliga 70-75 kitob chiqarilar, ular ingliz tilidagi kitoblar bo'lardi.

1556 yilda Londonda kitob savdogarlarini va nashriyot egalarining birlashmasi tashkil topdi. Bu birlashma hamma nashriyotlarning mahsulotlaridan London yepiskopi tasdiqlashi uchun olardi va unga (majburiy nusxa sifatida) ro'yxat tuzar edilar. Bu ish milliy kitob savdosi bibliografiyasining paydo bo'lishi va tez rivojlanishiga imkon berdi. Lekin kitoblar sonining kamligi bu bibliografiyanı kundalik nashr sifatida emas, faqat retrospektiv shaklda chiqishini ta'minladi. Masalan, Endryu Maunsel 1595 yilda 2 qismdan iborat «**Ilohiyotga tegishli fanlar yoki bizning o'z tilimizda yozilgan yoki boshqa har qanday tildan unga tarjima qilingan ingliz bosma kitoblarining katalogi**» deb nomlangan milliy retrospektiv bibliografiyanı chiqardi.

Maunsel har bir adabiyot bilan yaxshi tanishib chiqqach olgan. U kitob savdosi talablariga mos keladigan holda tasvir qoidasi bo'yicha ma'lum standartni 1-bo'lib ishlab chiqdi, kitob tasvirlash texnikasini ilgari surdi. Materialni joylashtirishda ham boshqacha yo'l tutib, sistemali tartibni qo'lladi, yirik bo'lim ichida kichik ruknlar yoki janrlar bo'yicha berdi. U faqat bosma kitoblarni olgan, 1-qismida 2639 tasvir, 2-qismida esa 321 tasvir berilgan. Uning vafoti tufayli 3-qismi tugallanmagan. Uning rejasiga ko'ra bu qismga guumanitar fanlar bo'yicha kitoblar va badiiy asarlar kiritilishi kerak edi.

Maunselning bu bibliografiyasi XX asrning 1-yarmiga qadar yaratilgan bibliografiyalarning boshida bo'lgan.

Frantsiyaning 1-milliy bibliografiyasi yuqorida tavsiflangan Lelend, Beyl, Donilarning ko'rsatkichlaridan tuzilish uslubi va texnikasi tomonidan bir pog'ona yuqori bo'lgan, bunga sabab, frantsuz milliy bibliografiyasi ingliz va italyan milliy bibliografiyasidan bir necha o'n yilliklar keyin paydo bo'lganligi tufayli frantsuz milliy bibliografiyasi tuzuvchilarini avvalgi bibliografiya tuzish tajribalaridan foydalanganligi, XUI asrda Frantsiyada umummadaniy yuksalish davri bo'lganligidir.

Delakrua dyu Menning 1584 yilda Parijda chiqqan «**Frantsuz kutubxonasi**» ("Frantsuzskaya biblioteka") ko'rsatkichi va dyu Verdening 1585 yilda Lionda chiqqan «**Frantsuz kutubxonasi**» ko'rsatkichi bir-birini to'ldiruvchi, XUI asr frantsuz adabiyoti va undan oldingi davr qadimiy frantsuz adabiyoti haqida ma'lumot beruvchi muxim manba hisoblanadi. Delakrua asarida 2000 dan ko'proq mualliflar, dyu Verde asarida unga ikki baravar ko'p asarlar to'g'risida ma'lumot berilgan. Ular bibliografik lug'atlardir. Tuzuvchilar hozirgacha tiklanish davri frantsuz adabiyoti tadqiqotchilarini foydalananib kelayotgan foydali va muxim asarlarni yaratdilar. Keyinchalik XUSH asrda bu ikki bibliografik qo'llanma birlashtirilib, qayta nashr qilingan.

ROSSIYA. XUII asrgacha rus bosma kitoblari bibliografiyalash ob'ekti bo'lмаган. Rus kitoblarini bibliografik hisobga olishga XUII asrning 2-yarmida Silvestr Medvedev (1641-1691) «**Kitoblarning tuzuvchilari bilan mundarijasi**» (“Soderjaniye knig s sostaviteyami”) ko'rsatkichini tuzish bilan harakat qilgan (uni 1846 yili Undalskiy nashr etgan). U monax, Moskva bosma saroyining kitob saqlovchisi bo'lgan.

1665 yilda o'zining katta shaxsiy kutubxonasi materiallari bo'yicha ko'rsatkich tuzdi, uning maqsadi – «kim qaysi kitoblarni yiqqan va yozganligini bilish mumkin bo'lgan spravka qo'llanmasini tuzish» bo'lgan. 1800 nomni o'z ichiga olgan bu ishda avtorlar to'g'risida qisqacha biografik ma'lumotlar beriladi, kitoblarning mazmuni ochib beriladi. Avtor ishni ko'rmagan bo'lsa, buni aloxida belgi bilan ko'rsatib ketgan.

Rus kitoblarining 1-repertuari A.M.Bogdanovning «**Umuman barcha umumiyo so'zlar, asarlar va ularning boshlanishi to'g'risida qisqacha kirish va tarixiy izlanish**» ko'rsatkichidir (1755 yilda tuzilgan, qo'lyozma, hozirgacha nashr qilinmagan). Uning birinchi bo'limi «Rossiyadagi barcha bosmaxonalar bosma kitoblarning qisqacha to'plami» deb nomlanib, bosmaxonalar bo'yicha guruhlarga bo'lingan va kitoblarning nomlari va chiqish yili ko'rsatilgan xronologik tartibda joylashgan ro'yxati berilgan.

XUIII asr oxirida Rossiyada rus tarixi va rus kitoblariga qiziqish ortadi, katta miqdorda yangi kitoblar paydo bo'ladi. Jamiyatda rus kitoblarining to'liq repertuarini tuzish g'oyasi muxokama qilina boshlaydi.

Repertuar tuzish ustida bir vaqtida va bir – biriga bog'liq bo'lмаган holda Bantish Kamenskiy va yepiskop Damaskin (Semenov-Rudnev) ishladilar.

Bantish Kamenskiyning rus kitoblari repertuarini tuzish bo'yicha ishi tugallanmagan, keng, o'ziga xos tasvirlangan kitoblar formatiga mos turli hajmdagi 4000 kartochkadan tashkil topgan kartoteka holida saqlangan. Kartochkalarda matnning to'liq nusxasi va grafik ma'lumotlar bilan titul varaqlari ishlandi. Kartoteka XUII asr oxiridan 1805 yilgacha bosilga rus tilidagi kitoblarni o'z ichiga olgan. Kartochkalar nomlarning birinchi so'zları alifbosi bo'yicha ajratilgan va harflar bo'yicha tikilgan.

Rus kitoblari repertuarini tuzishga ikkinchi urinish yepiskop Damaskin tomonidan «**Rossiya kutubxonasi yoki Rossiyadagi bosmaxonalar paydo bo'lgandan buyon bosilgan hamma kitoblar to'g'risida ma'lumot**» («Rossiyskaya biblioteka ili svedeniya o vset knig, izdannix s poyavleniya vset tipografiy v Rossii») nomli ishi bilan bo'lgan. Unda kitoblarning tasviri xronologik tartibda joylashtirilgan. Bu Rossiyada xronologik tartibni birinchi bo'lib qo'llash holati edi. Damaskin «Kutubxona» asarida yozuv va matbuot tarixini asos qilib olib, rus madaniyati tarixini birinchi davrashtirib berdi.

4.3. Kundalik milliy bibliografiya tuzishga urinishlar

XUII asrning 2-yarmi va XUIII asrda kundalik milliy bibliografiyanı, ya'ni ma'lum davrda chiqqan nashrlarni hisobga oluvchi va vaqtli nashr sifatida

chiqariluvchi bibliografiyani tashkil etishga urinishlar bo‘ldi. Bunday urinishlar 3 davlatda- Angliya, Frantsiya, Gollandiyada bo‘lgan.

ANGLIYA. Maunsel tomonidan asos solingan «Katalog» bilan milliy bibliografiyaning kitob savdosi xususiyati ingliz bibliografiyasida XUII-XUIII asrlar davomida saqlanib qoldi. U.Japerd tomonidan «**Keyingi yillarda nashr qilingan va hozirda sotuvda bo‘lgan ingliz kitoblari katalogi**» («Katalog angliyskix knig, izdannix v posledniye gody i v nastoyaщee vremya naxodyaщixsyu v prodaje») (1618 yil oktyabr-1619 yil) hamda «Angliyada bosilgan (va hukumat ruxsati bilan nashr qilingan) ayrim lotin va shuningdek ingliz kitoblari» (1621 yildan 1631 yil noyabrigacha) qo‘llanmalarini tayyorladi. Bu kataloglarning davomi ham bo‘lgan.

Kundalik bibliografik axborotning keyingi rivojlanishi kitob savdogari Uilyam London nomi bilan bog’liq. U «**Angliyada sotuvda bo‘lgan ilohiyot (teologiya), tarix, tabiblik va xirurgiya, huquq bo‘limchalari ostida alifbo bo‘yicha tartibga keltirilgan maktablar va olimlar uchun yaxudiy, grek va lotin kitoblarining katta qismi katalogi**» ning 3 nashrini (1657, 1658, 1660 yillarda) chiqardi.

1666 yilda Londonda yong’in yuz berdi, shaharda qurg’oqchilik edi. Bibliograflar oldida yangi vazifa – yong’indan keyin chiqqan kitoblarni hisobga olish vazifasi turardi. Kitob savdogari Robert Kivel 40 yildan ortiq, ya’ni 1668 yildan 1711 yilgacha ommabopligi bilan shuxrat qozongan «... davrga kataloglar»ning 160 ta sonini chiqardi. Bu nashr yiliga to‘rt marta chiqarildi (yarmarkalar ham har kvartalda o‘tkazilar edi).

1776 yildan «**Bentlar kataloglari**» (“Katalog Bentov”) nomli kataloglar turkumi nashr qilina boshladi, ular London kitob savdogarlari Bentlar (oldin Uilyam, 1824 yildan esa uning o‘g’li Robert) tomonidan bosilgan. Har bir katalog ma’lum vaqt oraligidagi materiallarni aks ettirar, bir-birini xronologik davom ettirar edi. Kataloglarning nomi tez-tez o‘zgartirilar edi, lekin unda «London» so‘zi doimo saqlanib keldi, bu Angliyada kitob bosish ishlari asosan poytaxtda asoslanganligini ko‘rsatar edi.

FRANTSİYA. Frantsiyada XUII asr oxirida kundalik milliy bibliografiya (Kermelit monaxi) kutubxonachi Lui Jakob tomonidan tuzilib nashr qilindi. «Jahonda mavjud bo‘lgan va hozirda bor ajoyib ommaviy va shaxsiy kutubxonalar to‘g’risida traktat» asarining muallifi Lui Jakob «**Pop kutubxonasi**» (“Papskaya biblioteka”) (Lion, 1643, Rim papalari bibliografiysi), «**Lalonning mashxur yozuvchilari to‘g’risida uch kitob**» («Tri knigi o znamenitых pisateley Lalona»), shuningdek, Frantsiyada chiqqan kitoblarning 1-vaqtli bibliografiysi «**Parij bibliografiyasi**» (“Parijskaya bibliografiya”) va «**Gall bibliografiyasi**» (“Gallskaya bibliografiya”) kabi bibliografik asarlarni tuzgan. Ularning 9 nashri chiqqan, ular ham yarmarka kataloglariga o‘xshab ketar edi.

Lui Jakob o‘z asarlarini «bibliografiya» deb atab, «bibliografiya» so‘zini qo‘llay boshladi. Bibliografiya so‘zini birinchi bo‘lib Jakobning zamondoshi

Node o‘zining «Harbiy bibliografiya», «Siyosat bibliografiyasi» asarlarida qo‘llagan edi.

4.4. Vaqtli nashrlar milliy bibliografiyasining paydo bo‘lishi va rivojlanishi

Vaqtli nashrlar milliy bibliografiyasi YEvropada XYIII asr –XIX asrning boshida noyob, retrospektiv xususiyatga ega tasodify ko‘rsatkichlar shaklida paydo bo‘lgan. Hajm jihatdan katta bo‘lmagan va mukammal ishlanmagan bu ko‘rsatkichlar o‘zlarining spravka qiymatini tez yo‘qotgan, ularning eng birinchilari bizgacha yetib kelmagan.

Frantsiyada XUSH asr davomida, shuningdek, Italiya, Buyuk Britaniya, Germaniyada paydo bo‘lgan bibliografik ishlardan o‘z ahamiyatini saqlab qolgani 1 ta, nemis pedagoglari I Boytler va Y. Guts-Mutelar tuzgan Germaniyada XUIII asrda chiqqan eng muxim vaqtli nashrlarni to‘liq ro‘yxati analitik tasvirlangan 3 qismli «**Muhim nemis jurnallarining predmet ko‘rsatkichi**» («Predmetnyu ukazatel onovnix nemetskix jurnalov»)dir. U Leyptsigda 1790 yilda chiqqan.

XX asrda vaqtli matbuot ijtimoiy hayotning barcha sohalarida muxim o‘rin egallagan davrda mamlakat rivoji o‘tmishda va hozirda mavjud o‘z jurnal maxsulotlarini bibliografik qamrab olish zaruratiga duch keldi. XIX asr davomida vaqtli nashrlarni hisobga olish YEvropaning 16 davlatida, AQSHda, Kanadada va Lotin Amerikasining bir necha respublikalarida paydo bo‘ldi. Milliy vaqtli matbuotni katta yoki kichik davr uchun qamrab oluvchi retrospektiv ko‘rsatkichlar bilan bir qatorda vaqtli nashrlarning kundalik ro‘yxatlari ham yuzaga kela boshladи. Ular turli jurnallar sahifalarida unchalik muntazam bo‘lmagan davriylik bilan yoki aloxida kitob (kichik risola) shaklida bosiladi. Gazeta va jurnallarning muntazam bosilgan ro‘yxatlari dastlab Rossiyada (XIX asrning 1 choragi), sal keyinroq (asr o‘rtalariga yaqin) Germaniya va Buyuk Britaniyada, Frantsiya, AQSH, CHilida va h.k. davlatlarda paydo bo‘ldi.

XX asrda vaqtli nashrlar milliy bibliografiyasining tarqalish doirasi ancha kengayib, YEvropa davlatlaridan tashqari yana Amerika qit’asining katta qismini qamrab oldi. XX asr o‘rtalarida Osiyo va Afrika davlatlarida hamvaqtli nashrlarni hisobga olish boshlangan.

Vaqtli matbuotni hisobga oluvchi nashrlarning tuzilish tamoyillari bir-biridan sifat jihatdan farq qiladi. Ayrim davlatlarda vaqtli nashrlarni kundalik hisobga olish milliy bibliografiyaning bir bo‘g’ini hisoblanib, bu ishni davlat qo‘lga olgan. Bunda u odatda majburiy nusxa to‘g’risidagi qonunga asoslanadi va markazlashgan holda amalga oshiriladi (Belgiya, Daniya, Portugaliya, SHvetsiya va boshqa davlatlar).

Boshqa davlatlarda kitob savdosi va reklama manfaatlari, bibliografiyaning davlat miqyosida mustaxkam tashkiliy negiz bilan ta’milanmaganligi xususiy tadbirkorlar, nashriyotlar va kitob savdosi firmalari, axborot va reklama byurolari, pochta idoralari va boshqalarni tashabbus bilan chiqishiga turki bo‘lmoqda. Vaqtli matbuotning shunday ko‘rinishdagi hisobi

AQSH da, Buyuk Britaniya, Norvegiya, Finlandiya va boshqa qator davlatlarda mavjud.

Bundan tashqari, hamma joyda yangi, nomi o'zgartirilgan, chiqishi to'xtatilgannashrlar to'g'risidagi axborot yo'lga qo'yilgan va u kitob maxsulotlarini hisobga oluvchi organlarda ba'zi kundalik vaqtli nashrlar ko'rsatkichlarida bo'lim sifatida yoki mustaqil nashr qilinmoqda.

Kundalik hisobning tez suratlar bilan rivojlanishi bibliografiyalarning vaqtli matbuotni retrospektiv to'plamlariga bo'lgan e'tiborini pasaytirmadi. Retrospektiv to'plamlarning mamlakat iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy, ilmiy va madaniy hayotini yoritish aniqligi o'tmish vaqtli nashrlarini aniqlash zaruratini keltirib chiqaradi. SHuning uchun XIX va XX asrda retrospektiv milliy bibliografiya muvaffaqiyat bilan rivojlanib bordi.

XIX asr **Rossiya** vaqtli matbuotini hisobga oluvchi muxim bibliografik asarlardan A.A.Neustroyev va N.M.Lisovskiyning ishlaridir.

N.M.Lisovskiyning **«Rossiya vaqtli matbuoti bibliografiyası»** ("Bibliografiya periodicheskoy pechat Rossii") asari rus tilida chiqqan eng yaxshi bibliografiyalardan biri bo'lib, 1901-1916 yillardagi materiallar hisobga olingan. Uning davomi ham **«SSSR vaqtli matbuoti»** nomi bilan chiqqan, u 1917-1949 yillardagi vaqtli matbuot nashrlarini hisobga olgan.

Evropa davlatlaridan faqat **Frantsiyagina** vaqtli matbuotning to'liq repertuariga ega. 1866 yilda E.Aten tuzgan **«Frantsuz vaqtli matbuotining tarixiy va tanqidiy bibliografiyası»** ("Istoricheskaya i kriticheskaya bibliografiya frantsuzskoy periodicheskoy pechat") ko'rsatkichi nashr qilingan. Bu yerda vaqtli nashrlarni bibliografiyalash davom etmoqda, u **«Atenga qo'shimcha»** ("Dopolneniye Atenu") nomi bilan uning ko'rsatkichini xronologik davom ettiradi. U Parij Milliy kutubxonasining tashabbusi bilan boshlangan. 1964 yildan ko'rsatkich aloxida nashrlar sifatida chiqariladi, har biri aloxida departamentning vaqtli nashrlarini qamrab oladi. Keyinchalik hamma nashrlarga 4-5 tomda yordamchi umumiy alifbo ko'rsatkichi chiqarish ko'zda tutilgan.

Milliy bibliografiyaning tadqiqot va kutubxonachilik ishida ahamiyati katta. Milliy bibliografiya manbalari kutubxonalar fondini to'ldirish va qayta to'ldirishning asosiy manbai bo'lib xizmat qiladi va sprawka bibliografik ishlarda keng foydalaniladi. Tadqiqotchi vaqtli matbuotni boshlang'ich ro'yxatga olish organlarida boshqa manbalardan topish qiyin bo'lgan ma'lumotlarni, unutilgan, nodir, kam nuxzali nashrlar, shuningdek yangi nashrlar to'g'risida ma'lumotlarni topadi.

Takrorlash uchun savollar

1. Milliy bibliografiyaning ta'rifini keltiring.
2. Milliy bibliografiyada qaysi belgilar asos qilib olinadi?
3. Milliy bibliografiyaning dastlabki ko'rinishlari avval qaysi davlatda paydo bo'ldi?
4. Dastlab milliy bibliografiyaning qaysi turlari paydo bo'ldi?

5. Qachon va qaysi davlatlarda kundalik milliy bibliografik materiallarni tuzishga birinchi bo‘lib harakatlar boshlangan?
6. Dastlabki tuzilgan milliy bibliografik materiallar keyinchalik tuzilganlaridan nimasi bilan farqlanar edi?
7. Milliy retrospektiv to‘plamlar haqida ma’lumot bering.
8. Vaqtli nashrlarning milliy bibliografiyasi haqida gapirib bering.
9. Milliy bibliografik nashrlarning hozirgi kundagi ahamiyati nimada?

5-BOB. JAHONNING YIRIK DAVLATLARIDA BIBLIOGRAFIYANING RIVOJLANISHI (XYIII-XX asrlar)

5.1. Matbuotning davlat bibliografik hisobi

XIX-XX asrlarda YEvrupa va Amerika davlatlarida kitob mahsulotlari soni ulkan darajada o'sdiki, hatto uni ikki jahon urushi ham to'xtatib qololmadi. Bu davrdagi kitob mahsuloti soni urushdan oldingi barcha kitob mahsulotlari sonidan ortib ketdi.

Gazeta va jurnallarning chiqishi ham shunday o'sdi.

Bu o'sish yirik-ulkan kutubxonalarining paydo bshlishiga olib keldi. U nashriyotchilik va kitob savdosi ishlarini tashkil etishga va noshirlar va kitob savdogarlari birlashmalarining yuzaga kelishiga turki bo'ldi. Hammadan ham bu XIX-XX asrlarda bibliografiyaning rivojlanishiga ta'sir ko'rsatdi. YEvropada frantsuz inqilobi ham bunga bir turki bo'ldi.

XIX asrning birinchi yarmida dastlab FRANTSİYA da frantsuz inqilobi yillarda kitob bozorini to'ldirgan siyosiy mazmundagi adabiyotlar oqimining ko'payishi chiqishi tezkor vaqtli bibliografik nashrga ehtiyojni kuchaytirdi. Lekin mutnazam chiqib turadigan jurnalga ehtiyojning yo'qligi tufayli bunday jurnallar bir yoqdan paydo bo'lib, darhol chiqmay qola bordi.

1810 yilda Napoleonning Dekreti bilan matbuot va kitob savdosi ishlari bo'yicha bosh boshqarma ta'sis etildi.

Davlat manfaatlariga, talablariga javob bermaydigan biror kitob yoki kichik risola ommaga chiqib ketmasligi kerak edi.

Kundalik bibliografiya shunday vazifani bajarar edi. 1810 yilda 1797 yilda Per Ru tomonidan asos solingenan "Bosmaxona va bibliografiya jurnali" ("Tipografskiy i bibliograficheskiy jurnal") o'rniga "Matbuot ishi va kitob savdosi umumiy jurnali" nomli nashr chiqarila boshladи. Biroq, bir yil o'tgach yuqoridagi jurnal ham qayta tashkil etilib, "Frantsuz imperiyasining bibliografiyasi" ("Bibliografiya Frantsuzskoy imperii") nomini oldi. U haftalik tsenzura nazorati jurnaldi bo'lib qoldi. Unda Frantsiyada tarqatilishga tsenzura ruxsat bergen kitoblar tasviri berilar edi. "Frantsuz imperiyasi bibliografiyasi"da materiallar nashr tillari bo'yicha, ya'ni avval frantsuz tilidagi, so'ngra breton, bask tilidagi; keyin qadimgi yaxudiy tilidagi, lotin tilidagi; grek va italyan tilidagi; ispan, portugal, ingliz, nemis, polyak, golland tillaridagi adabiyotlar joylashtirilgan.

1814 yildan uning nomi "Frantsiya bibliografiyasi" ("Bibliografiya Frantsii") deb o'zgartirilib, til chegarasi hudud bilan cheklandi. 1815 yilda uch oy u yana "Frantsuz imperiyasi bibliografiyasi" nomi bilan chiqdi.

1856 yilgacha "Frantsiya bibliografiyasi" ning mazmuni Ichki ishlar vazirligining "rasmiy zahira" siga kelib tushadigan kitoblar tasviridan iborat edi.

Demak, dastlabki 45 yil mobaynida "Frantsiya bibliografiyasi" o'zining bevosita vazifasiga ko'ra bosma mahsulotning davlat hisobini olib boruvchi milliy bibliografik organ bo'lib qoldi.

1827-1839 yillarda Jozef Kerarning "Adabiy Frantsiya" ("Literaturnaya Frantsiya") retrospektiv milliy bibliografik qo'llanmasi chiqarilib turildi. Unda

Kerar XUSH-XIX asr boshlaridagi badiiy adabiyotni, ijtimoiy-siyosiy tematikadagi adabiyotlarni ro‘yxatga olgan. Tabiatshunoslik, matematika, texnika fanlari bo‘yicha adabiyotlar to‘liq hisobga olinmagan. Lekin badiiy adabiyot qismida yozuvchilarga, ayniqsa Volter va Russolarga juda to‘liq biografik ma’lumotlar bergen. Bu asar XUSH asr va XIX asrning 1-choragida yaratilgan badiiy adabiyotlarga tuzilgan adabiy bibliografiyaning namunasi bo‘la oladi.

1827-1849 yillardagi barcha adabiyotni hisobga olgan “Hozirgi frantsuz adabiyoti” (“Sovremennaya frantsuzskaya literatura”) nomli 6 tomlik bibliografiya chiqarildi. Uning 1-tomi Kerar tomonidan tuzilgan. Unda material mualliflarning alifbosi bo‘yicha, har bir muallifning asarlari esa xronologik tartibda joylashtirilgan.

1856 yilgacha “Frantsiya bibliografiyasi” bosma matbuotning davlat hisobini olib boruvchi organ edi. 1857 yildan uning bu vazifasiga nashriyotchilik va kitob savdosi xronikasi, kitob savdosi bibliografiyasi vazifasi ham qo‘sildi. Uni nashr etish noshirlar va kitob savdogarlari birlashmasiga topshirildi. 1811-1856 yillarda chiqqan oldingi “Frantsiya bibliografiyasi” “birinchi seriya” bo‘lib qoldi, 1857 yildan chiqa boshlagan haftalik “ikkinchi seriya” hozirgacha chiqariladi.

1858 yildan kitob savdogari va noshir SHarl Reynvald “Frantsuz kitob savdosining oylik byulleteni” (“Ejemesyachnyy byulleten frantsuzskoy knijnoy torgovli”) ni chiqara boshladi. Uni chiqarishda unga Otto Lorents yordam berdi. 1959 yildan unga “Frantsuz kitob savdosining yillik katalogi” qo‘sildi, birinchi ko‘rsatkich 1869 yilgacha, ikkinchisi esa 1873 yilgacha chiqib turdi.

Otto Lorents (nemis, 1866 yilda frantsuz fuqaroligiga o‘tgan) “Frantsuz kitob savdosining umumiy katalogi” (“Овощи каталог frantsuzskoy knijnoy torgovli”) ni chiqara boshladi. Bu katalogning dastlabki 4 tomi retrospektiv xususiyatga ega edi. 11 tomgacha Lorents o‘zi chiqardi. Ko‘rsatkich 32 tomdan iborat edi, 32-tomi 1938 yilda chiqqan. Unda 1840-1925 yillardagi materiallar ro‘yxatga olingan. Bu katalog “Lorents katalogi” deb nom chiqardi va frantsuz kitoblarining o’sha davr uchun yagona kundalik yig’mal bibliografiyasi bo‘lib qoldi.

1933 yildan Ashett noshirlik va kitob savdosi jamiyati tomonidan “Biblio. Jahon bo‘yicha frantsuz tilida chiqqan nashrlarning oylik bibliografik byulleteni” chiqarila boshladi. Uning yillik sonlarini yig’ib tomlarga birlashtirib bordi. 1948 yildan unga adabiy xususiyat ham berilib, har bir sonida XIX yoki XX asrning biror mashxur yozuvchisi haqida (ilgari bosilmagan) hujjat, adabiy ocherk va asarlarining bibliografiyasi berila bordi.

Bu nashr shu davrgacha tuzilgan bibliografik materiallardan o‘zining to‘liqligi, materiallarni qamrab olish kengligi, foydalanishda qulayligi, poligrafik bezatilishi jihatdan Frantsiyadagina emas, balki jahon bo‘yicha keng tarqaldi.

Bu davrda Frantsiya milliy bibliografiyasini Jozef Kerarning “Adabiy bibliografiya” (“Literaturnaya bibliografiya”) nomli retrospektiv bibliografiyasi bilan mashxur bo‘ldi, xolos. Davlat tomonidan tuzilgan qo’llanmalar ham, alohida tuzuvchilar tmonidan tuzilgan qo’llanmalar ham hech bir kelishuvsız, uziq, tarqoq, bir-birini to‘ldirmagan holda tuzilgan. Ular bibliografiya yodgorliklari bo‘lib qoladi, xolos, XUSH-XIX asrning to‘liq milliy bibliografiyasini bera olmaydi.

GERMANIYA da bu davrda tsenzura kuchaygan, davlat bir nechta bo‘laklarga bo‘lib yuborilgan edi. Bu davrda majburiy nusxa oladigan birorta kutubxona yo‘q edi. XIX asrda yiliga 4 ming bosma maxsulot chiqqan bo‘lsa, 1848 yilda yiliga 10-11 ming asar chiqayotgan davr edi. SHunga qaramay, milliy bibliografiya rivojlandi. Birinchi milliy bibliografik qo‘llanma Vilgelm Xeynziusning «Umumiylitob lug’ati» («Vseobshchiy knijnuy slovar») bo‘lib, u 1700-1892 yillardagi kitob mahsulotlarini aks ettirgan 19 tomlik qo‘llanmadir (4 tomni Xeynzius o‘zi tuzgan, 1817 yilda u vafot etgach, boshqa tuzuvchilar uning ishini davom ettirganlar). Oxirgi 19-tomi 1894 yilda chiqqan.

1798 yildan “Nemis kitob savdosida yuzaga kelgan kitoblar, geografik xaritalar va boshqalarning yarim yillik katalogi” (“Polugodovoy katalog knig, kart i t.d., poyavivshixsyu v nemetskoy knijnoy torgovle”) nomli nashr Xinrixs kitob savdosi firmasi tomonidan chiqarila boshladi. U 1915 yilgacha muntazam chiqib turdi. Undan keyin u nemis Kitob savdogarlari birjasining rasmiy nashri sifatida “ko‘rsatkich” nomi bilan chiqarildi.

Mahalliy kitob savdogarlari birlashmalari tomonidan ham ko‘rsatkichlar chiqarilib turildi. Leyptsig kitob savdogarlari uyushmasining “Nemis kitob savdosining birja varaqasi” (“Birjevoy listok nemetskoy knigotorgovli”) bosma organi 1834 yildan chiqsa boshladi. Haftalik bu nashr 1837 yildan haftada 2 marta, 1852 yildan haftasiga 3 marta, 1866 yildan kundalik nashr bo‘lib qoldi.

Demak, 1835 yildan nemis milliy bibliografiyasi tez chiqadigan nashrlar bilan boyidi. 1856 yildan Albrext Kirxxoffning Leyptsig nashriyoti “Kitob katalogi” (“Knijnuy katalog”) ni chiqara boshladi. 1851-1860 yillar uchun 2 ta “katalog” chiqarildi. Keyin u Xinrixsga o‘tdi va Xinrixs uni besh yillik nashr sifatida chiqara boshladi. “Xinrixsnинг besh yillik katalogi”, “Besh yil uchun Xinrixs katalogi” va nihoyat, “Xinrixs katalogi” nomlari bilan 1913 yilgacha chiqarildi.

XUSH asrning 80-yillarida K.Georgning nemis tilida gaplashadigan davlatlar bir necha yillik adabiyotlarining retrospektiv ko‘rsatkichi «Urg’uli so‘zlar bo‘yicha katalog» (“Katalog po udarnym slovam”) paydo bo‘ldi. Uning nomi uni o‘zidan oldin tuzilgan boshqa ko‘rsatkichlardan farqini ko‘rsatadi. Unda 36000 kitoblarining ro‘yxati predmet ruknlari bo‘yicha joylashtirilgan.

1900 yildan chiqsa boshlagan “Haftalik ko‘rsatkich” nomi bilan chiqqan birinchi milliy bibliografik ko‘rsatkichi 1931 yilga kelib kitob savdosi mahsulotlarini hisobga olish bilan birga, odatdagisi kitob bozoriga tushmaydigan kitoblar, alohida shaxslarning nashrlari, kam nusxali nashrlar, notalar va gravyuralar, yana muximi rasmiy nashrlar, dissertatsiyalar, olimlar jamiyatları va oliy o‘quv yurtlarining nashrlari ham hisobga olina boshlandi.

Keyinchalik bu bibliografiyaning nomi “Nemis milliy bibliografiyasi” deb o‘zgartirildi va “A” va “V” qismlarda chiqarildi. Bu nashrlarning chiqishi 1944-1945 yillarda to‘xtab qoldi.

II jahon urushidan keyin 1946 yilda Germaniya Demokratik Respublikasida “Birja varaqasi” (“Birjevoy listok”) tiklandi va u oldiniga har o‘n kunlikda, keyinchalik haftalik nashr sifatida chiqdi. “Nemis kitoblari ko‘rsatkichi” (“Ukazatel

nemetskix knig") oldingidek besh yillik emas, o'n yillik (1941-1950 yillar uchun) nashr sifatida tiklandi, keyin yana oldingi davriyiligi (1951-1956 yillar uchun) tiklanib chiqdi.

ANGLIYA da 1815 yildan kitob mahsulotining uzluksiz o'sish davri boshlandi. XIX asr o'rtalariga kelib yiliga 5000 dan, 1897 yilda 7516 kitob, 1914 yilga kelib esa bu ko'rsatkich 11537 kitobga yetdi. 1938 yilda 16091 kitob, 1951 yilda 18066 ta kitob bosildi.

XIX asrning birinchi o'n yilligida Angliyada milliy bibliografiya kundalik bibliografiya shaklida mavjud edi. Bu kitob mahsulotining o'sishi va u haqidagi axborotga ehtiyoj kuchayishi tufayli bo'ldi. Bu ehtiyojni kitob savdogari va noshiri Sempson Lou hisobga olib, 1837 yildan ikki haftalik (keyinchalik 1891 yildan haftalik) "Noshirlar tsirkulyari" ("TSirkulyar izdateley") jurnalini chiqara boshladi. Unda kitob, nashriyotchilik xronikasi berilar edi. Uning 1-bo'limi "Haftalik kitoblar" bo'lib, unda yangi ingliz adabiyotlari keltirilar edi. U 1959 ylgacha shu nomda chiqarildi.

1835 yildan Lou tsirkulyari asosida "1835 yil yanvaridan 1863 yil yanvarigacha ... ingliz kitoblari katalogi" 3-5 yillik to'plamlar holida chiqarildi. 1906 yildan u 5 yillik tshplamlarda chiqdi.

1857 ylgacha bu "TSirkulyar" tez chiqadigan yagona davriy ingliz milliy bibliografik nashri edi.

1858 yildan Uiteker kitob savdosi firmasining "Kitob savdogari" ("Knigotorgovets") nashri yuqoridagi "tsirkulyar" ga raqobatchi sifatida paydo bo'ldi. U 1858-1908 yillarda oylik, 1909-1915 yillarda haftalik, 1916-1921 yillarda (1-jahon urushi davrida kitob mahsulotining kamayishi sababli) oylik nashr bo'lib, keyinroq yana haftalik nashr sifatida chiqarildi.

1950 yildan milliy bibliografiyani yaratish maqsadida maxsus tuzilgan Britan milliy bibliografiyasi kengashi tomonidan haftalik "Britan milliy bibliografiyasi" ("Britanskaya natsionalnaya bibliografiya") chiqarila boshladi. U majburiy nusxa asosida tuzilar edi. Unda tasvirlar to'liq berilar, O'nli klassifikatsiya jadvali asosida sistemalashtirilgan, bu - kitoblar, kichik risolalar, jurnallar, rasmiy nashrlar edi. Uning har bir soni mualliflarning alifbo ko'rsatkichi bilan ta'minlangan. Oylik oxirgi sonida avtorlar, sarlavhalar va predmet ruknlarining lug'atiy yordamchi ko'rsatkichi berilgan.

Bu bibliografiyaning chiqishi Bilan boshqa nashrlar to'xtab qolmadi, ular hozirda ham chiqib kelmoqda, faqat "Noshirlar tsirkulyari" oldingidek haftalik emas, 1959 yil dekabridan oylik nashr bo'lib "Britan kitoblari" nomi bilan chiqmoqda.

ITALIYA da XYP-XYSH asrlarda milliy (umuman davlat) bibliografik ko'rsatkichlari tuzishga urinish bo'lmadi ham. Urush tufayli mamlakat mayda bo'laklarga bo'lib yuborilgan edi.

Napoleon hokimligi ostidagi qisqa birlashish davri (1807-1811 yillar) da umumitaliya kundalik bibliografiyasini urinish bo'lib, Milanda "Umumiyl

bibliografik jurnal” nomli yangi adabiyotlarning kvartallik ko‘rsatkichi chiqdi. Unda materiallar mualliflarning alifbosi bo‘yicha joylashtirilgan.

Noshir Jakomo Stella Milanda o‘zining “Italian kutubxonasi” jurnalida 1916 yildan Italiyada yangi chiqqan kitoblar ro‘yxatini berib bordi. Keyinchalik “Italiya bibliografiyasi” (“Italyanskaya bibliografiya”) oylik ko‘rsatkichini chiqara boshladi. Unda Italiyada chiqqan barcha bosma mahsulot bilan birga, mamlakat tashqarisida italyan tilida chiqqan hamma bosma mahsulotni to‘liq hisobga olishga urindi. Materiallar mualliflarning alifbosi bo‘yicha joylashtirilgan. Yil oxirida yig’ma avtorlar va predmet ko‘rsatkichi berilgan. Bu ko‘rsatkichni 1835-1844 yillar uchun Jakomo Stellaning o‘zi tuzib nashr etgan. 1845 yil Stellaning o‘limidan so‘ng uning bevasi va o‘g’li ko‘rsatkichini davom ettirishga harakat qildilar. XI va XII tomini yillik yig’ma ko‘rsatkichisiz chiqardilar. Lekin oldingi sifati pasaygan edi. Uning muassasasi ham yopilgandan so‘ng 15 yil ichida italyan milliy bibliografik nashri chiqarilmadi.

Molinining xususiy bosmaxonasi tashabbusi bilan “Italiya umumiy bibliografik jurnali” paydo bo‘ldi. Jurnal 5 yil chiqib turdi.

Bir yildan keyin davlat tashabbusi bilan Florentsiya milliy markaziy kutubxonasiga kutubxona fondiga yangi olingan adabiyotlarning kundaliy bibliografiyasini tuzish topshirildi. Dastlabki 3 yil (1867-1869 yillar) ichida u “Italiya bibliografiyasi” (“Bibliografiya Italii”) deb nomlandi. 1870 yildan ko‘rsatkichni Italiya kitob savdosi assotsiatsiyasi chiqara boshladi. 1886 yildan u “Matbuot to‘g’risida qonunga muvofiq (Florentsiyadagi milliy markaziy kutubxonada) olingan italyan nashrlari byulleteni” (“Byulleten italyanskix izdaniy, poluchennyykh (natsionalnoy tsentralnoy bibliotekoy vo Florentsiy) soglasno zakonodatelstvu o pechatni”) nomi bilan bir qismda chiqarila boshladi, materiallar sistemali tartibda joylashtirilgan. Har bir soni mualliflarning alifbo ko‘rsatkichi bilan ta’milnab, yil oxirida ular yillik ko‘rsatkich qilib birlashtirilgan. 1925 yildan esa oylik va yilliy predmet ko‘rsatkichi chiqarila boshladi.

1911 yildan muqovaning ichki tomonida notalar va shu oyda chiqqan vaqtli nashrlarning 1-soni ham hisobga olina boshladi.

Bu ko‘rsatkichning kamchiligi – materiallar to‘liq hisobga olinmas va chiqishi kechikar edi.

Bu davrda kitob savdosi bibliografiyasiga talab katta edi. Buni yirik italyan bibliografi, professor Attilio Plinio Palyayni hisobga olib, 1847 yildan “Italian kitob savdosining umumiy katalogi” (“Vseobchiy katalog italyanskoy knijnoy torgovli”) ni tuzib chiqara boshladi.

ROSSIYA da dastlabki bibliografik materiallar vaqtli nashrlar sahifalarida bosingan. XUIII asrning 2-choragida bibliografiyada jonlanish bo‘ldi, biroq u kitob savdosi va kutubxonachilik ishi doirasida cheklangan edi, ular ham vaqtli nashrlar sahifalaridagi ro‘yxatlar edi.

Birinchi bosma katalogning chiqishi 1725 yilda tashkil etilgan Rossiya Fanlar akademiyasi (FA) faoliyati bilan bog’liq. 1742 yilda FA tomonidan 15 ming

nomdagi rus va chet tillardagi kitoblarni o‘z ichiga olgan sistemali “Kamer katalogi” (“Kamerniy katalog”) nashr qilindi.

XUIII asrning 60-80 yillarida kitob bosishning nihoyatda o‘sishiga xususiy bosmaxonalarning paydo bo‘lishi ham ta’sir etdi, kitob savdosi kataloglari soni ham ko‘paya bordi, YAngi chiqqan kitoblar ro‘yxatlari gazeta va jurnallarda, kitoblarning muqovalarida ham bosilar edi.

Jurnallar sahifalaridagi bunday bibliografiyalarning paydo bo‘lishi vaqtli nashrlar sahifalarida maxsus bibliografiyani yuzaga keltirdi, ular taqrizlar bilan berilar edi.

Qator maxsus bibliografik jurnallar ham paydo bo‘ldi.

XUIII asrda biobibliografik lug’atlar tuzishga urinishlar ham bo‘ldi. 1772 yilda ma’rifatparvar N.I.Novikovning 300 fan va adabiyot vakillari nomlarini o‘zida aks ettirgan «Rossiya yozuvchilari to‘g’risida tarixiy lug’at tajribasi» (“Опыт исторического словаря о российских писателях”) nomli mashxur nashri chiqarildi. Uni sof bibliografiya deb bo‘lmasada (unda qator mashxur yozuvchi va olimlar asarlarining ro‘yxati to‘liq berilmagan), lekin u bibliografiyaning rivojlanishi uchun turtki bo‘ldi.

Bu asrda yana rus kitoblarining to‘liq repertuarini mashxur bibliograf V.S.Sopikov tuzdi. U “Rossiya bibliografiysi tajribasi” (“Опыт российской библиографии”) deb atalib, 5 jilddan iborat bu qo‘llanma kitob bosish kashf qilingandan boshlab, to 1813 yilgacha rus va cherkov-slavyan tillarida bositgan 13 mingdan ortiq kitob va jurnallar tasvirini o‘z ichiga olgan. Uning 1 jildi cherkov kitoblariga, qolgan 4 jildi fuqaro matbuoti kitoblariga bag’ishlangan, unda hamma materiallar sarlavhalarning alifbosi bo‘yicha joylashtirilgan.

Bu bibliografik repertuar tavsiya ko‘rsatkichi, spravka qo‘llanmasi, o‘ziga xos xrestomatiya asari edi. Bu asar bibliografiyada klassik asar, uning tuzuvchisi esa rus bibliografiyasining asoschisi bo‘lib qoldi.

1825 yilda P.I.Keppenning yangi chiqqan kitoblarni ro‘yxatga olib, baholashga bag’ishlangan maxsus vaqtli bibliografik nashri – «Bibliografik varaqalar» (“Библиографические списки”) chiqdi.

XIX asrning 2-yarmida vaqtli nashrlar sahifalaridagi bibliografik axborot tanqidiy bibliografik axborot, kundalik axborot ro‘yxatlari, obzorlar, tarmoq bibliografik asarlar janrlari bilan boyidi.

Jurnallar sahifalaridagi bibliografiyalar fan va madaniyatni rivojlantirishga ta’sir etish va Rossiyada xalq ta’limining yutuqlarini hukumat va jamoatchilik oldida namoyish etish vazifalarini bajarishga qaratilgan edi. Bu davrda jurnallarda tanqidiy-bibliografik materiallar keng tarqaldi.

XIX asrning 2-choragida tarmoq bibliografiyasi rivojlandi.

O‘lkashunoslik bibliografiyasi mahalliy arboblarning lug’atlari ko‘rinishidagi materiallar bilan o‘zining dastlabki qadamlarini boshladi.

XIX asrning 50-60 yillarida tavsiya bibliografiyasi paydo bo‘lib, keng tarqaldi. 80-yillarga borib ijtimoiy-siyosiy mavzularni qamrab olgan tavsiya ko‘rsatkichlari ko‘paydi. 80-90 yillarga kelib esa mustaqil bilim olishga

mo‘ljallangan tavsiya bibliografiyasi rivojlandi. Ularning eng yaxshisi «Kitoblar haqida kitob» (“Kniga o knigax”) ko‘rsatkichi (1892 y.) edi.

Bu davrda fan va kitob savdosining o‘sib borayotgan ehtiyojlari, keng jamoatchilikning adabiyotga qiziqishi to‘liq bibliografik hisobga zarurtni keltirib chiqardi. Bu ishni faqat davlat muassasalari bajara olardi. Bunday ro‘yxatga oluvchi bibliografik materiallar 1896 yildan 1902 yilgacha rasmiy “Hukumat axboroti” (“Pravitelstvennyi vestnik”) nashrida bosilib boradi.

Tarmoq bibliografiyasi tarixiy adabiyotlarga tuzilgan aka-uka P.P. va B.P. Lambinlarning “Rus tarixiy bibliografiyasi” (“Russkaya istoricheskaya bibliografiya”) (1855-1884 yillar adabiyotlarini qamrab olgan) ko‘rsatkichi va V.I.Mejovning ”1865-1876 yillar uchun rus tarixiy bibliografiyasi” (“Russkaya istoricheskaya bibliografiya za 1865-1876 gg.”) ko‘rsatkichi bilan boyidi. Keyingi ko‘rsatkich yuqoridagisining davomi bo‘lib, u 60 ming nomdagi adabiyotni qamrab olgan.

O‘lkashunoslik bibliografiyasi Rossiyaning turli tumanlarida turlicha rivojlandi. Bosh shtab mayori M.M.Miansarov «Kavkaz va Zakavkaze bibliografiyasi” (“Bibliografiya Kavkaza i Zakavkazya”) nomli ko‘rsatkichni; V.I.Mejov “Turkiston to‘plami” (“Turkestanskiy sbornik”) ga 3 tomlik yordamchi alifbo-sistemali ko‘rsatkichini tuzdi.

Davlat bibliografiyasini isloq qilish natijasida 1907 yildan “Kitob solnomasi” (“Knijnaya letopis”) chiqarila boshladi va u hozirda ham chiqadi. U matbuot nashrlarining hamma turlarini hisobga olar edi. Keyinchalik jurnal va gazeta maqolalari alohida hisobga olinadigan bo‘ldi va bu solnomalar hozirda ham chiqariladi.

V.S.Sopikov tuzgan rus kitoblari repertuarini S.A.Vengerov davom ettirdi. 1708 yildan 1892 yilgacha u “Rus kitoblari” (“Russkiye knigi”) ko‘rsatkichini tuzdi, unda 250 mingga yaqin materialni yiqqan.

Rus vaqtli nashrlarining repertuari ham tuzilgan. Uni N.M.Lisovskiy tuzgan. 1-varianti “Rus vaqtli matbuoti. 1702-1900 yillar” (“Russkaya periodicheskaya pechat 1703-1900 gg.”) 4 qismda chiqarilgan. 2-varianti “Rus vaqtli matbuoti bibliografiyasi 1703-1900 yillar” (“Bibliografiya russkoy periodicheskoy pechati 1703-1900 gg.”) ... tomda chiqdi.

AMERIKA QO‘SHMA SHTATLARI (AQSH) da XIX asr boshlarida nashriyotchilik ishi endigina paydo bo‘layotgan edi. Kam sonli Amerika kitobxonи Angliyadan keltirilgan kitoblardan foydalanar edi. Amerikada yiliga bir necha o‘nlab kitoblar bosilar edi, xolos.

1820 yil F.Kuper va Vashington Irvinglarning kitoblari chiqdi. Bu asarlar Amerika adabiyotining shakllanishiga asos bo‘ladi. 1823 yilda 120 ta kitob chiqqan bo‘lsa, 1853 yil (30 yil ichida) bu ko‘rsatkich 733 taga yetdi, 1880 yilda 2000 kitob bosildi, 1890 yil esa bu raqam 5000 ga yaqinni, 1910 yilda 13470 tani tashkil etdi.

Amerika bibliografiyasi XIX asrning 1-o‘n yilliklarida o‘zining dastlabki qadamini qo‘ygan edi.

Birinchi bibliografik ko‘rsatkich CCharstonlik (Janubiy Karolina shtati) kitob savdogari Orvin Rurbaxning “Amerika kutubxonasi” (“Amerikanskaya biblioteka”) ko‘rsatkichi bo‘lib, uning 1-tomi 1820 yildan 1852 yil sentyabrigacha chiqqan Amerika kitob mahsulotlarini hisobga olgan. 5 jilddan iborat bu ko‘rsatkichda 1820-1861 yillardagi kitoblar hisobga olinib, har bir jildda materiallar alifbo tartibida joylashtirilgan. Uning kamchiligi – bibliografik tasvirlar to‘liq emas edi.

Dj.Kellining “Amerika kitoblarining katalogi” (“Amerikanskiy katalog knig”) qo‘llanmasi yuqoridaq bibliografiyaning davomidir. U 1861-1870 yillar kitoblarini aks ettirgan.

XIX asrning 50-yillaridan Amerikada tezkor bibliografik qo‘llanmalar ham paydo bo‘lgan. Biroq tuzuvchilarining tajribasizligi tufayli bu ko‘rsatkichlar uzoq chiqarilmay qolgan.

Filadelfiyalik kitob savdogari CHaylds “Amerika noshirlari tsirkulyari” (“TSirkulyar Amerikanskix izdateley”) nomli oylik nashrni 1863 yildan chiqaradi, u o‘n yillar mobaynida chiqib turdi.

XIX asr oxirida AQSH ijtimoiy hayotida kutubxonalar ochilishi muxim ahamiyat kasb eta boshladi. Bu kutubxonalar kitobxonlarining bibliografik axborotga bo‘lgan ehtiyojlarini qondirish uchun bibliografik qo‘llanmalar zarur edi. Buni tushungan kitob savdogari Hasli Uilson 1898-1907 yillarda «Kitoblarga yig’ma ko‘rsatkich» (“Kumuliruyuňčı ukazatel k knigam”) milliy ko‘rsatkichini tuzib chiqargan.

Uilson yana “Qo‘shma SHtatlar katalogi.Sotuvdagি kitoblar” (“Katalog Soyledinennых SHtatov. Knigi, naxodyaňşıyesya v prodaje”) ko‘rsatkichining 1-2-nashrini 1900 va 1903 yillarda chiqardi. Bular kundalik ko‘rsatkichlar edi. 3, 4-nashrlari retrospektiv bo‘lib, 1912 va 1928 yilda bosilgan. 3-4-nashrlarida AQSH da XYII va XYIII asrlarda bosilgan kitoblar to‘g’risida ma’lumot olish mumkin. 1927 yilgacha bu “Katalog”da faqat AQSH va Kanadada nashr qilingan kitoblar tasvirlanar edi. 1928 yildan esa “Ingliz tilidagi jahon kitoblari ko‘rsatkichi” (“Mirovoy ukazatel knig na angliyskom yazыke”) nomi bilan chiqaboshladi. Ammo unda bu adabiyotlar to‘liq hisobga olinmas edi, tasvirlarda ham kamchiliklar ko‘p edi.

XYII-XIX asrlarda Amerika kitob mahsulotlari soni juda kam edi. SHu sababli 1820 yilgacha bo‘lgan davr kitoblari ko‘p saqlanib qolmagan, ular «Amerika inkunabullari” hisoblanadi. XYII asrdan 1820 yilgacha chiqqan kitoblar ko‘rsatkichini tuzishni CCharlz Evans o‘zining “Amerika bibliografiyası” (“Amerikanskaya bibliografiya”) qo‘llanmasi bilan boshladi. Uning 12 jildini chiqardi, xolos (1935 yilda u vafot etdi). Ularda 1799 yilgacha bo‘lgan kitoblarni hisobga oldi. 1955 yilda Amerikadagi ikki yirik jamoat tashkiloti “Amerika bibliografiyası”ning 1800 yilgi kitoblarni hisobga olgan 13 jildini chiqardi. 1959 yilda shu 13 jild uchun yig’ma yordamchi ko‘rsatkich nashr etdilar.

SHunday qilib, XYIII- XIX asrlarda jahonning ko‘pgina davlatlarida bibliografiya ko‘p turlarni o‘z ichiga olgan holda rivojlandi. Ayniqsa YEvropadagi Germaniya, Angliya, Frantsiya, Italiya kabi davlatlarida kundalik, retrospektiv,

tarmoq, tavsiya, o'lkashunoslik bibliografiyalari, vaqtli nashrlar bibliografiyalari (ayrimlari juda yaxshi, ayrim turlar endigina paydo bo'lsada, ayrimlari esa) ko'zga ko'rinarli darajada rivojlandi.

5.2. Tarmoq qo'llanmalari tizimining yaratilishi

XYIII asr oxirlarida tarmoq bibliografiyasi ijtimoiy-gumanitar fanlar: filologiya, tarix, huquq bo'yicha rivojlandi. Yana tibbiyat fanining qadimiyligi va u bo'yicha adabiyotlar ko'p bo'lganligi sababli bu soha bibliografiyasi ham juda rivojlangan edi.

XYIII asrda matematika fani bo'yicha bibliografiya juda kam edi. XYIII asr oxiri va XIX asr boshida matematikaga oid qator ko'rsatkichlar chiqarildi. Masalan, Yox.Efr.SHeybelning «Matematika kitoblarini o'rganishga kirish» ("Vvedeniye v poznaniye matematicheskix knig") nomli 20 ta qismda 3 ta jildda (1-12 qismlari matematikaga, 13-20 –astronomiyaga oid) chiqqan retrospektiv ko'rsatkichni olish mumkin. Unda kitob bosish ixtiro qilingandan tortib to XYII asrning birinchi yarmigacha bo'lgan adabiyotlar hisobga olingan.

Fr.V.Avg.Murxardning "Matematika fanlari adabiyoti" ("Literatura matematicheskix nauk") nomli 5 jildlik ko'rsatkichi; 1871 yildan 1944 yilgacha chiqqan "Matematika yutuqlari to'g'risida yilnoma" ("Ejegodnik ob uspexax matematiki") qo'llanmasi; 1803 yilda frantsuz astronomi Laland chiqargan «Astronomiya bibliografiyasi» ("Astronomicheskaya bibliografiya") nomli XY-XYII asrlarda nashr qilingan adabiyotlarni o'zida aks ettirgan ko'rsatkichi kabilar bu sohalar bo'yicha dastlabki bibliografiyalar edi.

Astronomiya bo'yicha kundalik bibliografiya XIX asr oxirlarida paydo bo'ldi. 1891 yilda Leyptsigda astronom Kleyn rahbarligida "Astronomiya va geofizika bo'yicha yilnoma" ("Ejegodnik po astronomii i geofizike") nomli obzor tipidagi nashr paydo bo'ldi. Uning vafotidan so'ng unga "Astronomiya va geofizika bo'yicha Kleyn yilnomasi" degan nom berildi. 1-jahon urushi tufayli u to'xtab qoldi.

FIZIKA va XIMIYA fanlari XIX asrda rivojlandi, bu shu sohalar bo'yicha bibliografiyada o'z aksini topdi. Fanning rivojlanishi soha bo'yicha kundalik bibliografiyaga ehtiyojni keltirib chiqardi. Lekin bunday bibliografiya keyinroq yaratildi.

Yen universiteti professori G.F.Xr.Fuke 1806-1812 yillarda «494 yildan to Xristos Rojdestvosigacha – 1806 yilgacha ximiya adabiyotlarining repertoriysi» ("Repertoriy ximicheskoy literatury ot 494 g. Do Rojdestva Xristova do 1806 g. ...") nomli ko'rsatkichni chiqardi (u bu ko'rsatkichning muharriri edi), lekin bu ish 1806 yilgacha emas, 1800 yilgacha bo'lgan 5000 adabiyotni hisobga oldi. Fuke vafot etgach, bu ish to'xtab qoldi. Bu ko'rsatkich bir necha o'n yilliklar davomida ximiya bo'yicha haqiqiy retrospektiv bibliografiya bo'lib qolgan.

XIX asr oxirida Amerikada ham ximiya adabiyotlariga ko'rsatkichlar paydo bo'ldi. G.K.Bolton Kolumb Amerika qit'asini kashf qilgan davr 1492 yildan to XIX asr oxirida (1892 yil) bu sananing 400 yillik yubileyi nishonlangan davrgacha

bo‘lgan adabiyotlarni ro‘yxatga olgan “Ximiya bo‘yicha tanlangan bibliografiya” (“Vybороchnaya bibliografiya po ximii”) ko‘rsatkichini tuzib chiqardi.

Ximiya sohasida amaliy ish bilan shug’ullanuvchi xodimlarga 1907 yildan ikki xaftalik “Ximiya bo‘yicha referatlar” jurnalni chiqarla boshladi. Unda yiliga 60000 tasvir berilgan.

1830 yildan chiqarla boshlagan “Markaziy ximiya varaqasi” (“TSentralnyy ximicheskiy listok”) (1897 yildan uni nemis ximiya jamiyatni chiqaradi) yuqoridagi referativ jurnalga nisbatan ko‘p material beruvchi referativ nashr hisoblanadi. Bu jurnalga 31 tilda chiqadigan 4300 Amerika jurnallaridan materiallar olingan.

1-jahon urushidan keyin ANGLIYAda ham “Ximiya bo‘yicha Britaniya referatlari” nomli oylik jurnal chiqarila boshladi.

YUqoridagi referativ jurnallarda ximiya sohasidagi ko‘plab ixtiolar patentlarini ham referatlashga e’tibor berilgan.

FIZIKA bo‘yicha adabiyotlar ximiyaga nisbatan kam rivojlanganligi sababli bibliografiyasi ham keyin paydo bo‘lgan. Berlin fizika jamiyatni (keyinchalik nemis fizika jamiyatiga aylantirilgan) ning obzor nashri “... yilda fizika yutuqlari” (“Uspexi fiziki v ... godu”) yilnomasi paydo bo‘ldi. U 1847-1919 yillarda chiqdi. Bu jamiyat uning o‘rniga “Fizika bo‘yicha hisobotlar” referativ ikki xaftalik nashrini chiqara boshladi.

GEOLOGIYA-GEOGRAFIYA fanlari XX asrning boshlarida paydo bo‘ldi. Leyptsigda 1901 yili geologiya bo‘yicha ”Markaziy geologiya varaqasi” (“TSentralnyy geologicheskiy listok”) nomli sistemali referativ nashri chiqarla boshladi. Unda yiliga 5-6 ming materail berilgan. II-jahon urushi tufayli u to‘xtatildi.

1923 yilda Frantsuz geologiya jamiyatining “Geologiya fanlari bibliografiyasi” (“Bibliografiya geologicheskix nauk”) kvartallik referativ jurnalini chiqara boshladi. 1948 yildan u sohaning ichki bo‘limlari bo‘yicha turli qismlarda chiqarila boshladi.

1866 yildan Germaniyada Pertes nashriyotida obzor tipidagi “Geografik yilnama” (“Geograficheskiy yejegodnik”) chiqarila boshladi.

Bu ko‘rsatkichlar hududiy jihatdan keng davlatlar bo‘yicha adabiyotlarni aks ettirgan.

BIOLOGIYA boshqa fanlarga nisbatan kech rivojlandi. 1859 yilda CH.Darvinniing buyuk asari yaratilgandan keyin bu fanga munosabat o‘zgardi.

XIX asrning 60-80 yillarida bu sohadagi yutuqlar natijasida maxsus kundalik bibliografik nashrlar paydo bo‘ldi.

XIX asrning oxirida Parijda “Biologik yilnama” (Biologicheskiy yejegodnik) nomli ikki oylik nashri chiqarla boshladi va u hozirda ham chiqariladi.

Bu davrda TIBBIYOT bo‘yicha Billings va Fletcherlar «Tibbiyot ko‘rsatkichi» (“Ukazatel meditsinny”) oylik bibliografik jurnalini chiqardilar. U 1879-1899 yillarda 22 jilddagi chiqarilgan. 1903 yilgacha to‘xtab qoldi, 1903-1920 yilgacha YAna 18 jildi, keyin esa yana 6 jildi 1921-1926 yillarda chiqarildi.

1872 yilda Berlinda SHpringer nashriyotida «Oftalmologiya bo'yicha yillik hisobot» (Godovoy otchet po oftalmologii), 1874 yilda esa shu nashriyotda “Xirurgiya bo'yicha markaziy faraqa” (“TSentralnyy listok po xirurgii”) xafthalik nashri, 1877 yildan xafthalik “Ginekologiya bo'yicha markaziy varaqa” («TSentralnyy listok po ginekologii») nashrlari chiqarila boshlandi.

XX asrning boshlarida, 1 Juhon urushigacha tibbiyotning turli masalalariga oid, tibbiyotga oid maxsus bibliografik nashrlar soni ko'payo bordi.

I jahon urushi davrida yuqoridagi SHpringer nashriyoti faoliyati to'xtab qoldi. 1920 yildan 1939 yilgacha bu firmaning bibliografik faoliyati yuqori darajada o'sdi. Kundalik va davomli bibliografik nashrlar bilan birga o'z nashrlari uchun 600 dan ortiq nemis va 1000 chet el jurnallarini tasvirladi.

II jahon urushi tufayli SHpringer firmasi nashrlari va boshqa nemis bibliografiyasi inqirozga yuz tutdi

Bu davrda TEXNIKA fanlari bo'yicha bibliografiya ham yilnomalar ko'rinishida keng tarqaldi. Germaniyada 1916 yilda ikki xafthalik “Texnika kitoblari va jurnallari obzori” («Obzor texnicheskix knig i jurnalov») ko'rsatkichi Nemis injenerlari jamiyatining nashri sifatida chiqo boshladı.

II jahon urushi tufayli bu nashr ham to'xtab qoldi.

Urushdan keyingi davrda AQSH va Angliyada texnikaga oid referativ bibliografik nashrlar chiqdi. 1944 yilda Ogayo shtatida “Metallar bo'yicha adabiyotlar obzori – kitoblar va maqolalarning annotatsiyali ko'rsatkichi” (“Obzor literatury po metallam – annotirovanniy ukazatel knig i statey”); Londonda “Olmosning sanoatda foydalanilishi bo'yicha bibliografiya” (“Bibliografiya po ispolzovaniyu almaza v promyishlennosti”); 1951 yilda Berlinda “Markaziy texnika varaqasi” («TSentralnyy texnicheskiy listok») nomli 2 qismli (1957 yildan 5 qismda) ko'rsatkichi va boshqa nashrlar bosildi.

FALSAFA bo'yicha bibliografiya XIX asrning 3 choragi davomida kam bo'lib, unchalik ahamiyatga ega bo'lмаган.

XIX asrning 60-yillari oxirlarida vaqtli nashrlar sahifalarida kundalik bibliografiya materiallari berila boshladı.

XX asr boshlarida falsafaga oid kundalik bibliografiya tuzishga urinishlar bo'ldi. 1923 yildan 1932 yilgacha Edfurda “Falsafa sohasidan adabiy hisobotlar” (“Literurnye otchetы iz otrasley filosofii”) nomli nemis kitoblari, maqolalari, dissertatsiyalarini o'z ichiga olgan ko'rsatkich chiqdi.

1949 yilda Germaniyada “Falsafa bo'yicha adabiyotlar ko'rsatkichi” nomli 2 oylik referativ nashr chiqo boshladı.

1824 yilda Berlinda kitob savdogari T.Xr.Fr.Enslin tomonidan “Huquq kutubxonasi” (“Pravovaya biblioteka”) ko'rsatkichi chiqdi. XIX – XX asr boshlarida Germaniyada huquq bo'yicha kundalik bibliografiya kitob savdosi va retrospektiv xususiyatga ega bo'lган.

Angliyada kitob savdogari Jon Klark 1810 yilda “Qonunlar kutubxonasi” nomli ko'rsatkich chiqardi.

1888 yilda Amerikada “Huquqiy mazmundagi vaqtli adabiyotga ko‘rsatkich” (“Ukazatel k periodicheskoy literature pravovogo soderjaniya”) qo‘llanmasi chiqdi. Uning 1-jildida bu soha vaqtli nashrlari chiqarila boshlagandan to 1887 yil yanvarigacha bo‘lgan materiallar hisobga olingan. 2-jildi 1899 yilda chiqdi, unga 1887-1898 yillar maqolalari kiritilgan. Jami 6 jildda chiqqan bu ko‘rsatkichlarga 1937 yilgacha bo‘lgan materiallar kiritilgan.

XIX-XX asrlarda yeapitalizmning eng yuqori darajada rivojlanish bosqichiga ko‘tarilgan, imperializmga o‘tgan davrda iqtisodiyot, siyosat, sinfiy kurash juda muxim edi va ahamiyati kuchaydi.

1905 yilda Berlinda oylik «Ijtimoiy fanlar bibliografiyasi» («Bibliografiya obshchestvennykh nauk») nomli nashr paydo bo‘ldi. U huquq, sotsiologiya, ichki va tashqi siyosat, iqtisod va moliya, statistika bo‘yicha adabiyotlarni o‘zida jamlagan.

XYIII asr oxirida Germaniyaning alohida gertsogliklari, knyazliklari bag‘ishlangan regional tarixiy bibliografik materiallar ko‘p edi. SHunday bibliografiyalardan biri Nyurnberg shahriga bag‘ishlangan va 1772-1793 yillarda Altdorf va Nyurnbergda 8 qismda chiqqan «Villian Noriysk kutubxonasi” (“Vilianskaya Noriyskaya biblioteka”) nomli ko‘rsatkichdir. Ularning 5 qismi asosiy qismlar, 6-8 qismlari esa yuqoridagilarga qo‘sishimcha va yordamchi ko‘rsatkichlardir.

1951 yilda Gyunter Frantsning «Nemis tarixi bo‘yicha bibliografiya» (“Bibliografiya po nemetskoy istorii”) ko‘rsatkichi chiqdi. Unda Germaniyaning qadimgi davrdan to Veymar respublikasi tarixigacha bo‘lgan tarixiga oid muxim adabiyotlar qamrab olingan. Bu ko‘rsatkich asosan universitet talabalariga mo‘ljallangan.

Universitet o‘qituvchilari va talabalariga mo‘ljallangan ko‘rsatkich AQSHda ham paydo bo‘ldi. Garvard universiteti professorlari Ed CHenning va A.B.Xartlarning “Amerika tarixini o‘rganishga qo‘llanma” (“Posobiya k izucheniyu istorii Ameriki”) nomli qo‘llanmasining 1-nashri 1896 yilda chiqdi. Ularda adabiyotlar shu davlat tarixini o‘rganish doirasi uchun tanlab olingan.

Bu ko‘rsatkichlardan materialni to‘liq qamrab olish tomonidan farq qiladigan ko‘rsatkichlar – L.Finkelning “Polsha tarixi bo‘yicha bibliografiya” (“Bibliografiya po istorii Polshi”) hamda TSirbtning “CHex tarixi bibliografiyasi” (“Bibliografiya CHeshskoy istorii”) asarini olish mumkin. Bu qo‘llanmalarda yuqoridagilarga nisbatan adabiyotlar to‘liqroq olingan.

XIX-XX asrlarda yana tarix sohasida alohida voqealar yoki davrlar tarixiga oid bibliografiyalar ham yaratildi. Bunday voqealar sifatida alohida olingan davlat hayotida tub burilish qilgan voqealar olingan. Masalan, Germaniya uchun bu - reformatsiya va dehqonlar urushi, Angliya uchun – XYII asr burjua inqilobi, Frantsiya uchun - Buyuk frantsuz burjua inqilobi muxim hisoblanadi. Bibliografiya ham shu voqe-a-xodisani aks ettirishi lozim edi.

1915-1923 yillarda Gustav Volfning “Germaniyada Reformatsiya tarixinining manbashunosligi” (“Istochnikovedeniye istorii Reformatsii v Germanii”) nomli 3 jildlik tadqiqoti chiqdi.

Undan keyinroq Myunxen Davlat kutubxonasining qadimiylar nemis kitoblari bo'yicha ko'zga ko'ringan mutaxassisi Karl SHottenloer 6 jildlik "Diniy harakatlar davridagi Germaniya tarixi bo'yicha bibliografiya, 1517-1585" ("Bibliografiya po istorii Germanii v epoxu religioznogo raskola, 1517-1585") qo'llanmasini chiqardi. Unda 50000 ga yaqin tasvir berilgan.

XYIII asr oxirida Frantsuz burjua inqilobiga bag'ishlangan eng muxim bibliografiyalardan biri Per Karonning "Frantsuz inqilobini o'rganish uchun amaliy qo'llanma" ("Prakticheskoye rukovodstvo dlya izucheniya Frantsuzskoy revolyutsii") ko'rsatkichi 1912 yilda chiqqan. Unda Karon shu masalaga bag'ishlangan qo'lyozma va bosma manbalarni ularning saqlanish joyi bilan ko'rsatgan. 1947 yilda u bu ishining qayta to'ldirilgan 2-nashrini chiqardi.

FILOLOGIYA bo'yicha bibliografiya XIX-XX asrda boshqa tarmoqlarga nisbatan ancha rivojlandi. Bu sohada klassik filologiya umumiy ta'lif tizimida yuqori o'rinda turganligi sababli bibliografiyasi ham o'ziga xos rivojlanishga ega bo'ldi. Bu, ayniqsa, Germaniyada yaqqol namoyon bo'ldi. Kitob savdogari Enslinning 1817 yildan ishlangan "Mumtoz grek, shuningdek lotin yozuvchilari kutubxonasi" ("Bibliografiya klassicheskix pisateley, kak grecheskix, tak i latinskix") nomli ko'rsatkichi 1700-1878 yillardagi grek (1-nashri) to 1880-1882 yillargacha (oxirgisi) 8 ta qayta -lotin mualliflar asarlarini o'zida aks ettirgan.

Bu ko'rsatkichga qo'shimcha sifatida Enslin 1826 yilda "Filologiya kutubxonasi yoki grek va lotin tillarini o'rganishga oid bo'lgan grammatika, lug'at, xrestomatiya, o'qish kitoblari va boshqa asarlarning alifbo ko'rsatkichi" ("Filologicheskaya biblioteka ili alfavitnyu ukazatel grammatik, slovarey, xrestomatiy, knig dlya chteniya i drugix proizvedeniy, otnosyaщixsy k izucheniyu grecheskogo i latinskogo yazykov...") ni chiqardi.

Keyinchalik 1840 yilda bu nashrni Enslinning izdoshi Engelman qayta ishlab nashr etdi.

Bu ko'rsatkichlar asosan o'rta maktablar – gtmnaziyalar o'qituvchilariga mo'ljallangan edi.

Frantsiyada mashxur filolog Jyul Maruzo keng annotatsiyalangan "Klassik bibliografiyaning o'n yilligi" ("Desyati let klassicheskoy bibliografii") nomli 2 jildlik qo'llanmasini chiqardi. Unda 453 ta turli tillardagi vaqtli nashrlar mazmunini aks ettirdi. Uning 2-jildi chiqqandan keyinoq "Filologiya yilnomasi" ("Filologicheskiy yejegodnik") nomli kundalik bibliografiyasini chiqarishga kirishdi. Unda 400-500 jurnallardan 8000 gacha nomdagi materiallar tasvirlangan. Keyinchalik bu nashr YUNESKOning organi va mablag'i bilan ta'minlangan nashr bo'lib qoldi.

Mumtoz filologiyadan boshqa filologiya fanlari bo'yicha bibliografiya XYIII asr oxiri XIX asr boshlarida paydo bo'lgan edi.

XIX asrning 40-yillaridan Germaniyada slavyanshunoslikka qiziqish ortdi, bu borada bibliografik mazmundagi jurnallar chiqarishga urinishlar ham bo'ldi. 1847-1848 yillarda, keyinroq 1855-1856 yillarda "Slavyan bibliografiyasi" ("Slavyanskaya bibliografiya") jurnali chiqdi.

1876 yilda Xorvat YAgich “Slavyan filologiyasi bo‘yicha arxiv” («Arxiv po slavyanskoy filologii») jurnaliga asos soldi. Unda tadqiqot xarakteridagi maqolalar bilan birga slavyan filologiyasi bo‘yicha kundalik bibliografiyani ham berib bordi. 1892 yilda bu jurnalga ilova sifatida chex Fr.Pastrjnekning “1876-1896 yillar uchun slavyan filologiyasi bo‘yicha bibliografik obzor” (“Bibliograficheskiy obzor po slavyanskoy filologii za 1876-1896 gg.”) i chiqdi. Unda slavyan xalqlarining tilshunoslik, adabiyot tarixi, folklor va arxeologiyasi bo‘yicha asarlar berilgan. Har bir bo‘limda material til belgisi bo‘yicha joylashtirilgan.

XX asrda II – jahon urushigacha YEvropaning ko‘pgina davlatlarida slavyanshunoslik jurnallari chiqarildi, lekin ular orasida birgina CHex fanlar akademiyasining “CHexoslovakiya tilshunoslik va filologik asarlarining bibliografiyasi” (“Bibliografiya chexoslovatskix yazylvedcheskix i filologicheskix rabot”) asarini sof bibliografik nashr deyish mumkin. U 1930-1938 yillarda yilnomaga sifatida 1929-1935 yillar uchun chiqarildi. Unda materiallar ikki: tilshunoslik, adabiyot bo‘limlarida qisqacha annotatsiyalar bilan berilgan, bo‘limlar ichida shu bo‘limning ichki sistemasi bo‘yicha keltirilgan.

II-jahon urushi tufayli to‘xtab qolgan bu nashr 1950 yilda besh yillik jildlarda Zdenek Til tomonidan “... yillar uchun CHex tilshunoslik bibliografiyasi” (“CHeshskaya yazylkovedcheskaya bibliografiya za ... gody”) nomi bilan tiklandi.

1940 yilda Angliyada F.U.Betson tahriri ostida 4 jildlik “Ingliz adabiyotining Kembrij bibliografiyasi” (“Kembridjskaya bibliografiya angliyskoy literatury”) chiqarildi, 1957 yilda esa 5 jildi Jorj Uotson tahriri bilan chiqdi. Unda material 3 xronologik davrga bo‘lib berilgan: 1 jildi 600 yildan boshlab 1660 yilgacha; 2 jildi XYII asr va XYIII asrdagi; 3 jildi XIX asr asarlarini hisobga olgan. 4 jildi yordamchi ko‘rsatkichlar; 5 jildi (qo‘srimcha bo‘lib) 1901-1944 yillardagi ingliz adabiyoti tarixi haqidagi eng yangi adabiyotlar haqida axborot beradi. Biroq, bu bibliografiyada tasvirlar juda qisqa berilgan edi (nashr joyi, nashriyot, saxifalar soni kabi muxim ma’lumotlar ko‘p hollarda tushirib qoldirilgan).

Avstriyada, Polshada ham shunday qator kamchiliklarga ega bo‘lgan bibliografiyalar yuzaga kelgan. Ammo ular hozirda o‘sha xato-kamchiliklari bilan aytarli qimmatga ega emas.

XYII asr oxirida matematika, mexanika, tabiatshunoslik fanlariga qiziqish kuchayishi natijasida Angliya va Frantsiyada falsafiy materializm paydo bo‘ldi. Natijada olimlar tomonidan ko‘plab asarlar yaratildi va ular vaqtli nashrlar saxifalarida yoritib borildi. Nashrga tayyorlangan kitoblarining ko‘plari chiqarib bo‘lmay qolgan (nashriyotlar ulgurmay qolayotgan) edi.

XYII-XYIII asrlarda ilmiy jurnallarda yangi ilmiy adabiyotlar haqida axborot ko‘plab bosilar edi. Bu axborotda ba’zan yangi adabiyotning nashr etilganligi haqida soddagina axborot, ba’zan esa uning qisqacha mazmunini ochib beruvchi annotatsiya ham tasvirga qo‘shib berilar edi. 1-1,5 asr mobaynida u jurnallar bibliografik xarakterda bo‘lgan.

Jurnallar Akademiya bilan hamkorlikda ish olib borar edilar. Frantsiyada 1665 yil 5 yanvardan chiqa boshlagan “Olimlar jurnali” (“Jurnal uchenykh”)

keyinchalik akademiya paydo bo‘lgach, Akademiya jurnali bo‘lib qoldi. Jurnalda fanning turli sohalariga oid yangi kitoblar taqrizlanardi va referatlar yozilib bosilar edi.

Keyinchalik bunday jurnallar mundarijalariga ko‘rsatkichlar ham tuzila boshlandi. Birinchi shunday ko‘rsatkich 1663 yilda Van Byoygem tomonidan “Olimlar jurnali”ning 15 yillik to‘plamiga tuzilgan. Unda tuzuvchi 231 betda shu jurnalning har bir soni mundarijasini ohib beradi. Undan keyin esa 100 varaqdan oshiqroq material ismlar ko‘rsatkichidan iborat.

“Olimlar asarlari” (“Trudy uchenykh”) jurnaliga ham 1665-1750 yillar uchun Abbat de Klaustche 10 jildlik ko‘rsatkich tuzgan. U ko‘rsatkich 12 yil mobaynida chiqarilgan.

Jurnallarning mundarijasiga tuzilgan ko‘rsatkichlardan tashqari vaqtli nashrlarning alohida turi bo‘lgan gazetalarning o‘zini hisobga olgan bibliografik qo‘llanmalar tuzildi. 1631 yilda Frantsiyada 1-bo‘lib chiqarilgan “Gazeta de Franse” («Frantsuz gazetasi») nomi bilan tijorat e’lonlari varaqasi chiqarilgan. SHunday varaqalarda e’lon beruvchilarning qiziqishi gazetalar yoki vaqtli nashrlarning 1-spravochnigini paydo bo‘lishiga sabab bo‘ldi.

1790 yilda Teylor va Nyutonlar 200 nomdagi ingliz gazetalarining nomlarini hisobga olgan “Gazetalar bo‘yicha spravochnik” (“Spravochnik po gazetam”) varaqani chiqardilar. Keyinchalik bunday nashrlar ko‘plab chiqarilib, bora-bora ular yilda 1 marta chiqariladigan bo‘ldi. 1846 yildan bizning davrimizgacha Londonda Mitchel nashriyotida chiqish vaqtি kamdan-kam buzilgan yillik “Gazetalar bo‘yicha spravochnik” va “E’lon beruvchilar yo‘l ko‘rsatkichi” nomli nashr chiqarilgan.

1869 yil Rouel AQSHda 1-chi “Amerika gazetalari spravochnigi” (“Spravochnik Amerikanskix gazet”) ni yaratdi. U 20 yil davomida chiqib turdi.

1907 yilda AQSHda “Qo‘shma SHtatlar va Kanada kundalik vaqtli nashrlari va jurnallari bo‘yicha yo‘l ko‘rsatkich” (“Putevoditel po tekishiim periodicheskim izdaniyam i jurnalnam Soyedinennых SHstatov i Kanadы”) nomli spravochnik Severens tomonidan tayyorlanib chiqarildi.

XIX asrning 2-yarmida va XX asrda YEvropaning ko‘pgina davlatlarida shunday spravochniklar paydo bo‘lgan. Biroq, ularning hammasi deyarli tijorat maqsadlariga xizmat qilishga mo‘ljallanganligi sababli ularni sof bibliografiya deb aytib bo‘lmaydi.

Vaqtli nashrlarga kundalik ko‘rsatkichlar bilan bir qatorda retrospektiv qo‘llanmalar ham tayyorlangan va chiqarilgan. Bu ish XIX asrning o‘rtalariga kelib ko‘p mutaxassislarda qiziqish uyg’otdi.

1859-1861 yillarda Frantsiyada Ejen Atenning “Frantsiyada matbuot tarixi” (“Istoriya pechatи vo Frantsii”) nomli yirik asari chiqdi. Lekin bu ish juda ko‘p kamchiliklarga ega edi. Keyinchalik Aten o‘zining “Frantsuz vaqtli matbuotining tarixiy va tanqidiy bibliografiyasi” (“Istoricheskaya i kriticheskaya bibliografiya frantsuzskoy periodicheskoy pechatи”) nomli nashrini chiqardi va unda yuqoridaagi xato va kamchiliklarni bartaraf etishga muvaffaq bo‘ldi. Unda 1631-1864 yillardagi

vaqtli nashrlar chiqish vaqtি xronologiyasi bo‘yicha berilgan. Aten unda juda qimmatli, keng materiallarni bergen.

Angliyada 1920 yilda “Tayms” gazetasi tomonidan “Ingliz va Uels gazetalari, adabiy va tanqidiy jurnalarning 300 yil uchun spravka ro‘yxati” (“Spravochniy spisok angliyskix i uelskix gazet, literaturnykh i kriticheskikh jurnalov za 300 let”) nomli ro‘yxati Angliyada 1-gazeta paydo bo‘lganining 300 yilligi munosabati bilan tuzilib, e’lon qilindi. Britan muzeyi kutubxonasi fondida yig’ilgan gazetalar unga asos qilib olingan. Materiallar xronologik joylashtirilgan.

5.3. Bibliografiya nazariyasining rivojlanishi

XIX asr oxirida bibliografiyaning rivojlanishida yangi bosqich boshlandi. Frantsuz inqilobi davrida **bibliografiyaning nazariyasi** ko‘zga tashlanadigan darajada rivojlandi. Frantsuz revolyutsionerlarining nazariy qarashlari bu davrdan keng tarqaldi.

Inqilob tufayli tubdan qayta tashkil etilgan kutubxonachilik ishi kataloglashtirish va bibliografiya ishiga ham katta ta’sir etdi. Joylarda vaqtinchalik “adabiyotlarni saqlash joylari” tashkil etildi. Bu muassasalar o‘zlariga kelib tushgan adabiyotdarning katalogini 2 nusxada tuzishlari kerak edi. Katalogning 1-chi kartochkali nusxasi Parijda 1791 yil tashkil etilgan “Bibliografiya byurosi”ga tushishi zarur edi. Bu kartochkali kataloglar asosida “Bibliografiya byurosi”ga umumfrantsuz yig’ma katalogini tuzishi yuklatilgan edi. Byuro zarur kartochkani ololmagani sababli bu vazifani bajara olmadni.

Bu byuro boshlig’i YUrben Domerg 1793 yilda “Umumiylar bibliografiya to‘g’risida” (“Ob obshchey bibliografii”) nomli ma’ruzasi bilan Ijtimoiy ta’lim qo‘mitasiga chiqdi. Unda u belgilangan tadbirlarning tashkiliy tuzilishi va ketma-ketligini yoritgan edi.

1794 yili Ijtimoiy ta’lim qo‘mitasining yana bir xodimi abbat Greguar “Bibliografiya haqida ma’ruza” (“Doklad o bibliografii”) bilan chiqdi. Lekin u sharoitda ularda qo‘yilgan taklif va vazifalarni bajarish qiyin edi.

Ulardan keyin Donu, YUber Ameyon Kamyu, Ler, Gabriel Peno, SH.Ashar, Jak SHarl kabilar bibliografiyanı tashkil etish va tuzilishi haqida nazariy materiallar – maqolalar yozgan va ma’ruzalar qilganlar. Ulardan Ler 2 yilliy kutubxonachilarni o‘qitish kursini tashkil etdi va uning dasturini ishlab chiqdi. Gabriel Peno esa “Kitobshunoslik bo‘yicha izohli lug’at” (“Tolkoviy slovar po knigovedeniyu”) nomli asarini yozdi. Unda u kitobshunoslik va bibliografiyaning o‘zaro munosabati masalalarini yoritishga urindi.

Nashriyotchi va kitob savdogari Bular “Bibliografiya to‘g’risida oddiy traktat” (“Elementarniy traktat o bibliografii”) nomli asarini yozdi. “Kitobning adabiy va tijorat qimmatini o‘rganish bilan shug’ullanadigan shaxs bibliograf bo‘la oladi. Bibliograflar 3 toifaga bo‘linadi: kitobni sevuvchilar, kutubxonachilar va kitob savdogarlari”, deb yozgan Bular.

Frantsuz nazariyotchilarining asarlari boshqa davlatlar bibliograf - nazariyasiga kirib kelayotgan shaxslarni ham bu maydonga kelishini tezlatdi. Masalan, 1814 yilda Angliyada T.X.Xornning “Bibliografiyani o‘rganishga kirish” (“Vvedeniye v izuchenije bibliografii”) kitobi chiqdi. Polshada I.Lelevel yozgan “Bibliografiya haqida ikki kitob” (“Dve knigi o bibliografii”) nomli kitob chiqdi.

XIX asr boshida Germaniyada bibliografiya nazariyasi rivojlandi. Fridrix Adolf Ebert – yirik nazariyotchi bo‘lib, “Umumiy bibliografik lug’at” (“Vseobyyi bibliograficheskiy slovar”) kitobini yozgan. Unda o‘ziga qadar hali xech bir mutaxassis tomonidan ko‘rilmagan nazariy masalalarni yoritdi. U “Bibliografiya mamlakat yozuv madaniyatini uning tarixiy rivojlanishi bilan darajasini o‘lchashning eng ishonchli vositasidir”, deb yozgan.

SHunday qilib, bu ko‘rib o‘tilgan davr bibliografiya tarixida juda ulkan o‘zgarishlar, jumladan bibliografiyada ham turli (universal kundalik va retrospektiv, tarmoq, vaqtli nashrlarga tuzilgan) yirik – yirik bibliografik qo‘llanmalarining yaratilishi, bibliografiyaning nazariy masalalari jiddiy ko‘rilgan davr bo‘lib qoldi.

T a k r o r l a s h u c h u n s a v o l l a r :

1. Bu davrdagi ijtimoiy madaniy hayot qanday edi?
2. Bosma maxsulotning davlat hisobini olib borish ishining holati qanday edi?
3. Bu davrda bibliografiyaning qaysi turi juda yaxshi rivojlandi?
4. Bu davrda tuzilgan tarmoq qo‘llanmalari tarmoq bibliografiyasi alohida tur sifatida paydo bo‘lgan davrda tuzilgan qo‘llanmalardan qanday farq qilar edi?
5. Bibliografiyaning nazariy masalalariga nima sababdan e’tibor kuchaydi?
6. Bu yirik davrda tuzilgan bibliografik materiallarning hozirgi davr uchun ahamiyatini gapirib bering.
7. U tuzilgan ko‘rsatkichlarning qaysilari bizgacha yetib kelgan?

6-BOB. BIBLIOGRAFIYA SOHASIDA XALQARO HAMKORLIK

Hozirda integratsion tendentsiyalarning ahamiyatitintinmay o'sib, ko'plab muammolar ulkan, umuminsoniy xususiyat kasb etmoqda. Ilmiy texnika taraqqiyoti, xususan elektronika, hisoblash, axborot, ko'paytirish texnologiyalari sohasidagi rivojlanish asrlar davomida insonlar o'rtasida aloqani qiyinlashtirgan to'siqlarni bartaraf etdi va etmoqda, ulkan xalqaro loyihalarni (shu jumladan, bibliografik loyihalarni) amalga oshirishni ta'minlamoqda.

Har tomonlama xalqaro hamkorlik mumkin bo'libgina qolmay, balki zarur bo'lmoqda.

Fan, texnika, badiiy madaniyatning kelgusi taraqqiyoti, xalqlar va mamlakatlar o'rtasidagi ishonchning ortishi turli-tuman axborot manbalarini keng va tez almashlashsiz mumkin emas. SHu sababli xalqaro axborot, (jumladan, bibliografik) hamkorlik, xalqaro va kichik axborot ta'minlash tizimini yaratish – hozirgi jahonxalqaro aloqalar kompleksining muxim bo'g'inidir. Bu muxim ishda faol ishtirok etish, xalqaro loyihalar va dasturlarni ishlab chiqish va amalda qo'llashda jahonning ko'plab davlatlari ishtirok etadi.

Xalqaro bibliografik hamkorlikda xalqaro bibliografik dasturlar va tizimlarni ishlashda va joriy qilishda turli davlatlardan davlat va nodavlat tashkilotlari ishtirok etadi.

6.1. Xalqaro bibliografik hamkorlik tarixi

Kutubxonachilik-bibliografik faoliyat sohasida hamkorlikka XIX asr oxirlarida zamin hozirlangan. YUrist-bibliograflar Pol Otle va Anri Lafontenlarning tashabbusi bilan 1895 yilda Bryusselda Xalqaro bibliografiya instituti tashkil etilgan. Uning vazifasi bibliografiya masalalarini ishlab chiqadigan ilmiy-tadqiqot markazi sifatida tadqiqot ishlarini olib borishdan iborat bo'lgan. Ularning har ikkisi bu institutning direktori bo'lganlar. 1895 yilda bu institutning filiali SHveytsariyada, 1898 yilda Frantsiyada va boshqa shaharlarda tashkil qilingan.

Bu institut tomonidan juda ko'p nashrlar chiqarilgan. "O'nli klassifikatsiya jadvali" (UO'K), qator davlatlar bosma mahsulotining kartotekasi, "Vsemirno'y bibliograficheskiy repertuar" tuzilgan. UO'K ning to'liq (33 ming bo'limdan iborat) matnnini bosib chiqargan. Undan jahon bo'yicha kutubxonalarda foydalilanilgan, hozirda ham foydalaniylmoqda.

1914-1921 yillarda bu institut o'z ishini to'xtatgan. 1931 yilda institutning hujjatlashtirish bo'limi Xalqaro hujjatlashtirish institutiga aylantirildi va 1938 yilda buning negizida Hujjatlashtirish bo'yicha xalqaro federatsiya tashkil qilingan.

Xalqaro bibliografiya institutining 1-kongressi 1910 yilda Bryusselda bo'lib o'tdi, unda 30 davlatdan 300 kishi qatnashgan. Unda asosan bibliografiya ishi usullarining yagonaligi, bibliografik ko'rsatkichlar tuzishda kooperatsiya masalalari ko'rildi. SHu kongressda hamma davlatlar va xalqlar bibliograflarining hamkorligini rivojlantirish zarurligi haqida qaror qabul qilingan.

Xalqaro kutubxonachilik tashkilotlari turli tarmoq kutubxonalari bo‘yicha tashkil etilgan. Uning maqsadi – turli davlatlarning kutubxonalari o‘rtasida hamkorlikni rivojlantirish, xalqaro standartlarni tayyorlash, birgalikda tadqiqotlar olib borish, tajriba va ixtisosli almashish bo‘lgan. Uning davlat va nodavlat, jamoatchilik tashkilotlari bor.

Davlat tashkilotiga **YUNESKO** (Maorif, Fan va madaniyat bo‘yicha Birlashgan Millatlar tashkilotining bo‘limi) kiradi. U Birlashgan Millatlar tashkilotining ixtisoslashtirilgan tashkiloti sifatida 1946 yilda tashkil etilgan. Bibliografiya, kutubxonachilik ishi va ilmiy-axborot faoliyatining tivojlanishiga kata ta’sir ko‘rsatadi. Uning uyi Parijda. Vazifasi – turli xalqaro kutubxonachilik-bibliografik tashkilotlar ishini muvofiqlashtirib boradi, xalqaro bibliografik nashrlarni mablag’ bilan ta’minlaydi. Universal bibliografik hisob (UBU – universalnyiy bibliograficheskiy uchet) dasturi bo‘yicha tadqiqotda ishtirok etadi, ilmiy va ilmiy-texnika axboroti sohasida Xalqaro dasturda hamkorlik, rivojlanayotgan davlatlar kutubxonachilik-bibliografiya ishi qurilishida yordam beradi.

YUNESKO ning eng eng so‘nggi - hozirgi davrda muxim ahamiyatga ega bo‘lgan dasturlaridan biri “Hamma uchun axborot” (“Informatsiya dlya vse”) bo‘lib, u 2000 yildan ishlana boshlagan. Uning asosiy maqsadi va vazifasi - fuqarolarning, davlat va jamoat tashkilotlarining xuquqiy-axborot so‘roqlarini zamonaviy axborot texnologiyasidan keng foydalangan holda tashkil etilgan rasmiy huquqiy hujjatlar fondi asosida qondirishga sharoit yaratishdan, ulkan axborot jamiyati va bilimlar jamiyatini qurish uchun asos bo‘ladigan elementlarning instrumentariysini ishslash va ulardan kelgusida samarali foydalanishni tashkil etish, axborot va bilimlarni jahon bo‘yicha erkin almashishdan iborat. Bu dastur doirasiga yaqin “Jahon xotirasi” (“Pamyat mira”) dasturi ham bor. Uning maqsadi – insoniyatning hujjatli merosini saqlab qolishdir.

Nodavlat, jamoat tashkilotlari ko‘p. Ulardan eng yirigi – **IFLA** (Xalqaro kutubxonalar assotsiatsiyasi va muassasalari federatsiyasi) 1927-1929 yillarda tashkil topgan. 1965 yilda uning qoshida doimiy Bibliografiya komissiyasi tuzilgan. Dunyodagi 130 dan ortiq davlatlardan 150 dan ortiq kutubxonachilik assotsiatsiyalari va 600 dan ortiq kutubxonalar va kutubxonachilik muassasalarini, shuningdek, 5 ta xalqaro kutubxonachilik tashkilotlarini birlashtirgan yirik tashkilotdir. SHtab-kvartirasi Gaagada. Uning vazifasi – bibliografik jarayonlarni avtomatlashtirishning ahvoli va istiqbollarini o‘rganish, bibliografiya sohasidagi milliy va xalqaro muvofiqlashtirish va kooperatsiya imkoniyatlarini tadqiq qilish, kutubxonachilik ma’lumoti, bibliografiya, axborot ishlarini ham o‘z ichiga oluvchi kutubxonachilik faoliyatining hamma sohasida tadqiqotlar, munozaralar, o‘zaro kooperatsiyani rag’batlantirishdir. Uning tarkibida – UBU (universal bibliografik hisob) dasturi bo‘yicha IFLA markazi, 8 ta bo‘limi, nashriyotchilik bo‘limi, Xalqaro abonenment bo‘limi bo‘yicha IFLA markazi mavjud.

Hozirgacha IFLA ning 70 ta sessiya-kengashi bo‘lib o‘tgani (70-kengashi 2004 yil 27-28 avgustda Buenos-Ayres (Argentina) da bo‘ldi). Xalqaro kengashlar

chaqiradi, ko'rgazmalar tashkil qiladi, yosh tadqiqotchilarga mukofotlar beradi, qator xalqaro standartlarni ishlashda qatnashadi.

IFLA ning tadbirlari doirasida 11 yildan buyon "Kutubxonalar va assotsiatsiyalar o'zgarayotgan dunyoda: yangi texnologiyalar va hamkorlikning yangi shakllari" mavzusida "Qrim" xalqaro konferentsiyasi bo'lib o'tadi. Unda jahoning ko'plab davlatlaridan yirik kutubxonalar, assotsiatsiyalar, oliy ta'lim muassasalarining professor-o'qituvchi-olimlari, ilmiy-texnika axboroti markazlari va kitob palatalarining xodimlari, arxivlar, muzeylar xodimlari ilmiy ma'ruzalari bilan ishtirok etadilar.

IFLA prezidenti dasturi ham bor. 2003-2005 yillarga mo'ljallangan "Kutubxonalar ta'limni uzlucksiz rivojlantirishni qo'llashga" dastur bo'lib, bu dastur xalqaro hamjamiyat a'zolarining jismoniy, mintaqaviy, ijtimoiy va madaniy chegaralaridan qat'iy nazar axborot ayriboshlashda qatnashish uchun bir xil imkoniyat yaratib berishni kafolatlaydi. Foydalanuvchining butun hayoti davomida bilim, ta'lim olish, savodxonlikni davom ettirish, saqlash ko'zda tutiladi. Dastur kurslar, lektoriylar, seminarlar tashkil qilish, fikr almashish, inson huquqlarini, ayniqsa, kattalarning aybi bilan bilim olishdan maxrum bo'lib, aziyat chekayotgan bolalar va yoshlar huquqiga hurmatni targ'ib qilish, malaka oshirish, fuqarolarning axborot bilimlarini oshirish bo'yicha olib boradigan ishlarida kutubxonachilarning imkoniyatlarini kengaytirish orqali amalga oshiriladi.

Hujjalr bo'yicha xalqaro federatsiya Xalqaro bibliografiya instituti o'miga tashkil etilgan nodavlat tashkiloti deb yuqorida aytildi. Ma'muriy organi, 8 ta muammoli qo'mitasi va 2 ta mintaqaviy komissiyadan tarkib topgan. Uning ishida 500 ga yaqin tashkilotlar, 70 dan ortiq millatlar a'zolari ishtirok etadilar. Uning doimiy kotibiyati Gaagada. Kengashi har yili, Bosh assambleyasi 2 yilda bir marta yig'iladi.

Bu Federatsiya ilmiy-axborot faoliyatini boshqaradi, informatika sohasida ilmiy tadqiqotlar yo'nalishini belgilaydi, mutaxassislarning axborot talablarini o'rganadi, kadrlar tayyorlashni tashkil qiladi, jahoning qator mamlakatlaridagi yirik axborot markazlari va maxsus kutubxonalar, shuningdek, sohaning yirik mutaxassislari va olimlarini birlashtiradi, UO'K ni muntazam ko'rib chiqadi. Byulletenlari, yilnomalari, maxsus jurnallari, konferentsiyalar, kongresslari materiallari, maqolalar to'plamlari, UO'K ning rasmiy nashrlari chiqarib turiladi. Federatsiya YUNESKO bilan YUNISIST (Ilmiy-texnika axboroti jahon tizimi) ni ishlab chiqqan, uni ishlashda 30 davlat vakillari ishtirok etgan.

6.2. Hozirgi xalqaro dasturlar

YUNISIST dasturining maqsadi – hujjalarning turlari bo'yicha axborot tizimini yaratishdir. Bu dastur bo'yicha 1973 yilda seriyali nashrlar to'g'risida ma'lumotlarning avtomatlashtirilgan Xalqaro tizimi tashkil etildi.

Hozirda turli xalqaro dasturlar juda ko'p. Ulardan yana biri "Vozrojdeniye" xalqaro jamg'armasining "Kutubxonachilik dasturi"dir.

Uning maqsadi – kutubxonalararo kooperatsiya asosida ochiq axborot-kutubxona infratuzilmasini yaratishga ko‘maklashishdan iborat. Uni amalga oshirish tamoyillari: xokimiyat bo‘limlari, xalqaro tashkilotlar va axborot markazlari, mustaqil fuqaroviylar bilan hamkorlik; mavjud me’yoriy hujjatlar, standartlarni fuqaroviylar tahlil qilish imkoniga ega bo‘lgan adoralararo ekspertlar guruhini tuzishga yordam berish.

YANA YEVRASIZYA jamg’armasi ham borki, uning ham kutubxonachilik, axborot xizmati, sohasi, bibliografiya masalalarini o‘z ichiga olgan dasturlari mavjud. Ulardan biri “Axborot jamiyat texnologiyami” nomli eng yirik dasturidir. Uning maqsadi – axborotdan foydalanishni yaxshilash, aholiga ko‘rsatilayotgan xizmatlar sifati va muvofiqligini, aniq talablarga mosligini ta’minlash; xizmatchilar, tadbirkorlar, mijozlarga jamiyatda ular bajarayotgan rollari uchun katta imkoniyatlar yaratish; ijodning rivojlanishiga yordam berish; o‘qishga keng imkoniyatlar yaratish, olimlarga axborotni qisqa vaqt va kam harajatlar bilan olish imkonini yaratish, elektron axborot resurslarini yaratish va uning integratsiyasi, undan erkin foydalanishdan iborat. YANA u hamjamiyat davlatlarining o‘zaro hamkorligini talab qiladi.

YUqoridagilardan tashqari bizga eng tanish bo‘lgan IRBIS dasturi ham hamkorlik dasturi bo‘lib hisoblanadi. U 1994 yilda ishlangan (Rossiyada Davlat ilmiy-texnika kutubxonasi, 1997 yildan amalga joriy qilina boshlagan). Hozirda undan MDH davrlarli kutubxonalari, AQSHda, Buyuk Britaniyada ayrim kutubxonalar, Xalqaro kutubxonachilik axborot va tahliliy Markazida foydalanmoqdalar. Uning 5 ta dasturi mavjud.

Takrorlash uchun savollar:

1. Xalqaro hamkorlik deganda nimani tushunasiz?
2. Bibliografiya sohasida xalqaro hamkorlikni tashkil etuvchi tashkilotlarni sanang.
3. Birinchi hamkorlik tashkiloti qachon va qayerda tashkil etilgan?
4. Davlat va jamoatchi hamkorlik tashkilotlarining maqsadi va vazifasini aytib bering.
5. YUNESKO ning vazifalarini gapirib bering.
6. IFLA qanday tashkilot va uning vazifalari nimalardan iborat?

A S O S I Y A D A B I Y O T L A R

Karimov I.A. Yuksak ma`naviyat – yengilmas kuch.- T., 2008.- 175 b.

Karimov I.A. Ma`naviy yuksalish yo‘lida: Tarix. Ma’rifat. Ma’naviyat.- T.: O‘zbekiston, 1998. -420 b.

Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot – pirovard maqsadimiz. J.8.- T.: O‘zbekiston, 2000.- 110 b.

Karimov I.A. Xavfsizlik va tinchlik uchun kurashmoq kerak. J. 10.- T.: O‘zbekiston, 2000.- . 332 b.

Berdiyeva Z. va boshq. Bibliografiya: (Umumiy bibliografiya): Madaniyat kollejlari uchun o`quv qo’lli/. Z.Berdiyeva, H.Mamatraimova, T.Zokirova, O.Erahmedova. - T.,2007.- 208 b.

Dolgopolova I.V., SHamsiyev SH.M. Istorya bibliografii v period srednix vekov: (do izobreteniya knigopechataniya): Ucheb. posobiye.- T.,2003.- 56 s.

Zdobnov N.V. Istorya russkoy bibliografii.- 3-e izd.- M.1955.- 608 s.

Korshunov O.P.Bibliografovedeniye: Obshchiy kurs: Uchebnik dlya vuzov.- Moskva: Liberiya, 2006.- 123 s.

Mamatraimova X. Bibliografiya // O‘zbekiston milliy entsiklopediyasi. 2-jild. Beshik-gidrofizika.-T., 2001.- B.16-17.

Mashkova M.V. Istorya russkoy bibliografii nachala XX veka.- Moskva: Kniga, 1969.

Semenovker B.A.Bibliograficheskiye pamyatniki Vizantii.- Moskva: Arxeogr. tsentr, 1995.- 222 s.

Simon K.R. Istorya inostrannoy bibliografii.- Moskva,1963.- 736 s.

Turapov M.M. Razvitiye bibliograficheskogo dela v Uzbekistane (1852-1970).- T.,1983.- 128 s.

MUNDARIJA

S O‘ Z B O S H I

1 – BOB. BIBLIOGRAFIYANING PAYDO BO‘LISH TARIXI

- 1.1 Qadimgi Gretsiya va Rimda bilografiyaning paydo bo‘lishi
- 1.2. Qadimgi Misrda bibliografik axborot mavjudligining shakllari
- 1.3. “Bibliografiya” atamasining keyingi qo‘llanila boshlanishi va tarqalishi

2 – BOB. KEYINGI ANTIK DUNYO VA O‘RTA ASRLAR DAVRIDA BIBLIOGRAFIYA: PAYDO BO‘LISHI VA RIVOJLANISHINING ASOSIY YO‘NALISHLARI

- 2.1 . Biobibliografik lug’atlar O‘rta asrlar bibliografiyasining alohida janri
- 2.2. Bibliografiyaning boshqa turlarini paydo bo‘lishi
- 2.2.1. Kitob savdosi bibliografiyasining paydo bo‘lishi

3 – BOB. TIKLANISH DAVRI UNIVERSAL BIBLIOGRAFIYASI

- 3.1. Konrad Gesner – Yevropa bibliografiyasining asoschisi
- 3.2. Yangi sharoitda bibliografik asarlarning an’anaviy xillarini yaratilishi

4-BOB. MILLIY BIBLIOGRAFIYANING PAYDO BO‘LISHI

- 4.1. “Milliy bibliografiya” tushunchasining izohlanishi
- 4.2. Birinchi retrospektiv bibliografik to‘plamlarning yaratilishi
- 4.3. Kundalik milliy bibliografiya tuzishga urinishlar
- 4.4. Vaqtli nashrlar milliy bibliografiyasining paydo bo‘lishi va rivojlanishi

5-BOB. JAHONNING YIRIK DAVLATLARIDA BIBLIOGRAFIYANING RIVOJLANISHI (XYIII-XX asrlar)

- 5.1. Matbuotning davlat bibliografik hisobi
- 5.2. Tarmoq qo‘llanmalarini tizimining yaratilishi
- 5.3. Bibliografiya nazariyasining rivojlanishi

6-BOB. BIBLIOGRAFIYA SOHASIDA XALQARO HAMKORLIK

- 6.1. Xalqaro bibliografik hamkorlik tarixi
- 6.2. Hozirgi xalqaro dasturlar